*Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti*  
E-mail:tillo.bakirov@mail.ru

*Andijon davlat chet tillari instituti dotsenti, f.f.d A.Matkarimova taqrizi asosida*

## EXPRESSION OF OLD TURKISH LAXEMAS IN SOME MODERN TURKIC LANGUAGES

Annotation

The article discusses the lexical-semantic features of the time-denoting lexemes used in the period of the old Turkic language in some modern Turkic languages.

**Key words:** Lexeme; morpheme; system; etymology; denotate; Anthropo-linguistics; temperament.

## ВЫРАЖЕНИЕ ДРЕВНЕТУРКСКИХ ЛАКСЕМ В НЕКОТОРЫХ СОВРЕМЕННЫХ ТЮРКСКИХ ЯЗЫКАХ

Аннотация

В статье рассматриваются лексико-семантические особенности времяобозначающих лексем, употреблявшихся в период древнетюркского языка в некоторых современных тюркских языках.

**Ключевые слова:** Лексема; морфема; система; этимология; обозначать; Антропологистика; темперамент.

## ESKI TURKIY TIL DAVRI VAQTNI IFODALOVCHI O‘Z QATLAM LEXSEMALARNING HOZIRGI AYRIM TURKIY TILLARDA IFODASI

Аннотация

Mazkur maqolada eski turkiy til davrida qo‘llangan vaqt bildiruvchi leksemalarning hozirgi ayrim turkiy tillardagi leksik-semantik xususiyatlari haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Leksema; morfema; sistema; etimologiya; denotat; antropolingvistika; temperament.

**Kirish.** Turkiy tillarda vaqt ma‘nosi payt ravishlari, vaqt ma‘noli otlar, sifatlar, olmoshlar, fe‘llar, yuklamalar kabi morfologik, payt hollari, vaqt ifodalovchi konstruksiyalar singari sintaktik yo‘nalishlarda o‘rganilgan yoki qayd qilingan. Leksik birliklarning temporal ma‘noli haqida xususiy, u yoki bu munosabat bilan bildirilgan fikrlar uchraydi. Shuni e‘tirof etish joizki, qadimgi turk tili davridan boshlab turkiy tillardagi vaqt ma‘noli leksemalar leksik sathda o‘z o‘rniga ega bo‘lgan. Qadimgi va eski davr vaqt leksemalari qanday shakllangan va qanday semantik maydon hosil qilganligi haqidagi qarashlar bir necha bor tahlilga tortilgan, ammo ularning hozirgi turkiy tillarga munosabati deyarli o‘rganilmagan. Aksariyat biz hozirda tilimizda qo‘llanmaydi deb o‘ylaydigan leksemalar fonetik jihatdan farqlar bilan hozirgi davr turkiy til lahja va shevalarida uchramoqda, yoki so‘zlarning morfemik tarkibiga singib ketgan.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili** Ayni yo‘nalishda qilingan ishlar salmoqliq deb bo‘lmaydi. Ammo ayrimlari tadqiqotimiz asoslanishi uchun katta ahamiyatga ega. Bulardan Fatosh Karadag‘ning “Divānu lug‘ati‘t- turk‘ten gūney sibīrya türk dillerine zaman kavrami ile ilgili söz varlığı” asarida vaqt leksemalarining hozirgi sibir tillaridagi holati yoritib berilgan. Gulsum Ekshening “Kazak türkçesinde zaman kavramıyla ilgili söz varlığı”, Serjan Demirgunesh “Türkçedeki zaman belirteçlerinin sınıflaması ve dökümü üzerine bir deneme çalışması” nomli tadqiqoti, O‘zbek tilshunosligida Baxtiyor Abdushukurov tomonidan nashr etilgan “Eski turkiy adabiy til leksikasi”, Anadolu universiteti tomonidan nashr etilgan ko‘p jildli “Çağdaş türk yazı dilleri” kitobi, shuningdek, Ahmet Akchatashning “Türkiye türkçesinde zaman belirleme” nomli tadqiqoti va o‘zbek tilshunosligida Muhayyo Hakimovanning “O‘zbek tilida vaqt ma‘noli lug‘aviy birliklar va ularning matn shakllantirish imkoniyatlari” nomli tadqiqoti ishimizning asoslanishi uchun asosiy manba bo‘lib xizmat qildi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Turkiy tillarda vaqt tushunchasi tarixan anglashilgan va bugungi kungacha takomiliga yetib borayotgan ontologik birlik. Turkiy tillarda vaqt va o‘lchov ma‘nolari mustaqil til birligi (semema) yoki boshqa til birliklari semantikasining tashkil etuvchisi (sema) sifatida mavjud. Vaqt va o‘lchov semantikasi o‘zining leksik, grammatik, fonetik ifodalanishlariga ega. Turkiy tillarda vaqt ma‘noli payt ravishlari, vaqt ma‘noli otlar, sifatlar, olmoshlar, fe‘llar, yuklamalar kabi morfologik, payt hollari, vaqt ifodalovchi konstruksiyalar singari sintaktik yo‘nalishlarda o‘rganilgan yoki qayd qilingan.

Eski tilida vaqt semantikasini payt ravishlari, holat va miqdor ravishlarining semantik surukturasida kuzatish mumkin. Payt

ravishlari “Vaqt” ifodalovchi lug‘aviy sistemaga “Vaqt” umumiy semasi bilan kiradi va ayni paytda uning o‘zi ham elementar mikrosistemadir. Bu mikrosistema elementlari “Vaqt” ifodalovchi lug‘aviy sistemaning boshqa tashkil etuvchilaridan farqli o‘laroq nisbatan sof vaqtni ifodalaydi. Payt otlari vaqtni predmet sifatida atasa, payt ravishlari harakatning sof sodir bo‘lish vaqtini bildiradi va qachon, qachongacha, qachondan beri savollariga javob bo‘ladi.

**Tahlil va natijalar.** Eski turkiy tilida payt ravishlarini ularning vaqt turlarini ifodalashiga ko‘ra olti guruhga ajratish mumkin. Bular obyektiv va hayotiy vaqtning u yoki bu belgi-xususiyatlarini ifodalash uchun shakllangan.

Kelasi zamoni ifodalovchi payt ravishlari. Bu guruhga quyidagilar:

Yarin –ertaga [DLT;150-bet;2017], “Qutadg‘u bilig” asarida esa quyidagicha: jarin ertaga. Bu kun munda ersa jarin anda – [Agar baxt] bugun bu yerda bo‘lsa, ertaga u yerda [QBN, 5010]. Bugundan keyingi birinchi kuni ifodalovchi bu so‘z asosan hozirgi turk tilida ishlatiladi. Qadimgi turkchada “irte” so‘zi “ertaga” degan ma‘noni bildiradi. “irte” qadimgi turkiy tilda ba‘zi turkiy shevalarda qo‘llangan va so‘zning turli fonetik shakllari bir xil ma‘noga ega. o‘zbek va uyg‘ur turkchalarida “erta”, qirg‘iz va qozoq turkchalari “erteng”, turkman turkchasi “ertir”, tatar turkchasi kelajakni “irtege” so‘zlari bilan ifodalaydi. Oltoy turkchalarida; “tanda” so‘zi bilan ertaga ma‘nosini ifodalangan.

Soq - so‘ng, so‘ngra [DLT;444-bet;2017]. O‘zbek tilida ham ayni ma‘noni saqlagan leksema semantik jihatdan kengaygan. Keying, oxirgi kabi ma‘nolari ifoda etadi. Ba‘zan mustaqil so‘zga bog‘lanib, ko‘makchili qurulma hosil qiladi. Qozoq tilida esa asosan ko‘makchili qurulma qismi sifatida foydalaniladi. sonan keyin [soñ] [sonan keyin [soñ] Shundan keyin, so‘ngra. Апай Алматыга бармады, сонан соң мен келдим [Ө. Нұрмаханова, Ылбала]. Орам Алматга келмагани учун мен келдим [Kenan Koç, 2022, 81-bet]. Uyg‘ur turkchasi esa Keyin[ ket+in, t-y ketmoq fe‘li +In vosita kelishigi] turchicha so‘zi sinonim sifatida faolroq qo‘llanadi. Qirg‘iz tili, qozoq tili va o‘zbek tillarida ham keyin leksemasi songa nisbatan ancha faol qo‘llangan. Isra –keyin [DLT;63-bet;2017], Basa – So‘ng, keyin [DLT;401-bet;2017] leksemalarini kiritish mumkin. Ushbu leksema “Qutadg‘u bilig” asarida ham quyidagicha: basa so‘ngra, keyin. Eđgü tutsa bajat eđläsä, qamuy eđgü boldı anıñda basa – Xudo kimni yaxshi bilib, unga nozar solsa, uning hayoti yaxshilikka yo‘g‘iriladi [QBN, 4433; QBN, 6064]. Isra, soq ,basa so‘zlari o‘zaro sinonim bo‘lib, ularning asosiy semalari aynandir. Sharqiy sibir tillaridagina basa leksemasi tuva tilida pasa shaklida uchratishimiz mumkin. Bu leksema ravish bo‘lib

keyin degan ma'noni anglatib kelmoqda. [Gürsoy Naskali- Duranlı, 1999, s. 71].

Emdi –endi, endigina [DLT;150-bet;2017], o'zbek tilida ayni leksema bo'lmasada fonetik farq qiluvchi ayni ma'nodagi leksema mavjud. Qozoq tilida ham fonetik farq o'zbek tili bilan bir xil bo'lib endi [endi] shakli bu leksemani ifoda etadi. endi демал –endi dam ol. [Kenan Koç, 2022, 73-bet]. O'zbek va qozoq tillarida bu so'z ikki ma'no qirrasiga ega: birinchisi, hozir, ayni vaqtda; Ikkinchisi, bundan keyin degan ma'noda. Turk tilida esa bu leksema shindi yagona ma'noga ega, hozir, ayni vaqtda ma'nosida, bundan keyin ma'nosi esa artik leksemasi orqali ifoda etiladi. [Tuncer Gülensoy 2007,647-bet].

**O'tgan zamoni ifodalovchi payt ravishlari.** Kecha Eski turk tili davrida faol bo'lgan “kecha” so'zi [Tuncer Gülensoy 2007,358-bet]. Turkiya, ozarbayjon, turkman, o'zbek va uyg'ur tillarida ishlatiladi. Turkman tilida e>i o'zgarish, ozar va turk tillarida e>ç o'zgartirildi. Eski turkchada kechki vaqt, tun ma'nosini bildiruvchi “kech” so'zi bor. Orxon-enasoy yodgorliklarida ham tilga olingan. O'zbek, uyg'ur, qirg'iz, qozoq va tatar tillarida ham borligini davom ettirmoqda. Asosan o'g'uz tillarida ishlatilgan “Dün” so'zi eski turkiy til davrida faol turkiy so'z bo'lib, oldingi kunni ifodalash uchun ishlatiladi. Turkman tilida “y” undoshining “n” undoshidan so'ng ortishi kuzatiladi, ya'ni “duyn” shaklida. Ifoda etiladi.

Baya - boya, biroz oldin. [DLT;403-bet;2017], O'zbek tilining badiiy til va lahjalarida faol qo'llanib kelinayotgan boya shaklidagi leksema ayni zamonada ham biroz oldin, avvalroq kabi ma'nolarni ifoda etadi. Bu leksema asosan, turkiy tillarning qorluq guruhi va unga yondooch turkiy tillarda faol bo'lib, ozarbayjon turkchasi bayag shakli bilan ayni ma'noni ifoda etadi. Bayagki adami taniyrsan? –boyagi odamni taniyrsanmi? Uygur tilida ayni leksema كۆرۈمقەنى بويلاقنى مەن مەن كۆرۈمقەنى –Men boyagina ko'rdim [Çupuri, Gulam, 1986, 39-bet]. Qirg'iz tilida ham bu leksema baya shaklida ifoda etiladi. Baya kördüm—endigina keldim. [Ahmed Bican Ercilasun , 1991.76-bet]

Ilk –ilk, oldin, avval [DLT;31-bet;2017], “ilk” leksemasi hozirgi turkiy tillarda ma'no qirrasini o'zgartirgan so'zlardan biridir. O'zbek tilida hozirda bu leksema oldin avvalni emas, birinchi va boshlang'ich kabi ma'nolarni ifoda etib kelmoqda. Lekin undan hosil qilingan ravishlar, eski turkiy til davridagidek, ilgari bu leksema [il-garu jo'nalish kelishigi hamkorligida hosil bo'lgan] Turk tilida ham shunday ilk so'zi birinchi va boshlang'ich ma'nolarida. Ilk kez – birinchi marta, Ilkokul – boshlang'ich maktab, ammo qipchoq guruhi tillarida esa uning oldin ma'nosi yaxshi saqlanib qolgan [Kenan Koç, 2022, 78-bet]. Aşnu –oldin, ilgari [DLT;65-bet;2017],Shuningdek, bu so'z “Qutadg'u bilig”da ham Men aşnu ajajın eligkâ sözüñ, ne ermiş tilâijñ

kim ermiş özüñ – Men birichi fikringni, tilaging nima, o'zing kim ekanligingni

hukmdorga aytay. [QBK, 222].ilk so'ziga sinonim so'z bo'lib hozirgi turkiy tillarda bu leksemaning qo'llanishi faol emas.

Burun –burun, oldin [DLT;160-bet;2017], “Qutadg'u bilig” asarida: Bizñ tilimizkâ burunıy uquş– [Bu kitob] bizning tilimizdagi [turkiy tildagi] birinchi donishmandlik kitobidir [QBN, 81]. Bu so'z o'zbek tilining izohli lug'atida quyidagicha ifoda etiladi: BURUN III – I]. rvsh. Ilgari, ilgari, o'tgan vaqtlarda. Ahvol burun qanday bo'lsa, hozir ham shunday emas. Mana bu joylar burun Abduvaqqos degan bir kishiga tegishli ekan. A. Qahhor, Qo'shchinor chiroqlari. Burunlari Ilgarilari, ilgari zamonlarda. Elyurt boshidagi og'ir kulfatni.. burunlari, faqat kambag'alchilikdan deb bilib, bundan narisini ko'rmay kelgan bo'lsa, endi – o, yo'q. [M. Ismoiliy, Farg'ona t.] demak hozirgi tilimizda burun leksemasi eski davr semalarini saqlamoqda. Qorluq guruhi tillaridan yana biri uyg'ur tilida ham bu leksema ayni shakl va ma'noni ifoda etadi. Qozoq tilida ham бұрын[burun] leksema mavjud bo'lib, ushbu leksema o'zbek tili bilan ayni shaklda va ayni mazmunda. бұрын мұндай нәрселер болмас еді—avval bunday ishlar bo'lmas edi [Kenan Koç, 2022, 78-bet].

ön –oldin, avval [DLT;28-bet;2017] bu leksema hozirgi turkiy tillarda, turk tilida faol bo'lib, asosan o'rin ma'nolarini ifoda etadi, oldi yoki oldi tomon sifatida. Ozar tilida ham ön ayni ma'noni ifoda etadi. Turkman tilida ham o'rin ham vaqtni ifoda etsa, bu leksema qirg'iz tilida ham ayni ma'noda ishlatilib, old so'zi unga nisbatan faoldir [Tuncer Gülensoy 2007,343-bet]. Ushbu leksemalarning ko'pi o'zaro sinonimik qatorlar tashkil qiladi. Masalan, Aşnu, ön, burun, so'zlari o'zaro sinonim bo'lib, “o'tgan vaqt-[lar]da”, “hozirgi vaqtga qadar” ma'nosini ifodalaydi. Ushbu sinonimik qatorda so'zlar qo'shimcha ma'no nozikliklari va qo'llanishiga ko'ra farqlanadi. Aşnu, ön, burun so'zlari hozirga uzoqroq o'tgan vaqtni, Baya so'zi yaqin o'tmishni bildiradi. Bu so'zlar uslub jihatdan ham farqlanadi. Semantik strukturasi: Aşnu,

burun – vaqt; hozirga qadar; o'tgan vaqtlarda, hozirgi vaqtga qadar ma'nolarini anglatadi, ilk, ön leksemalari ham o'zaro sinonimik qatori hosil qilib, “birinchi galda”, “birinchi navbatda” ma'nosini ifodalaydi. Ma'lumki, hodisalar vaqtda galma-gal ro'y berar ekan, vaqt o'rni tushunchasi ham shakllanadi. Vaqtda voqea-hodisalarning birinchi navbatda sodir bo'lishini ushbu sinonimik qatordagi so'zlar aks ettiradi.

Hozirgi zamoni ifodalovchi payt ravishlari.

Ushbu guruhga emdi- hozir,endi [DLT;63-bet;2017]; Hozirgi turkiy tillarning hech birida bu so'z o'z shaklida uchramasdan, fonetik variantlar bilan uchraydi. O'zbek tilida bu so'z endi shaklda, Turk tilida shindi shaklida, Ozari tilida Indi shakli, qozoq tilida imdi shakli, Uyg'ur tilida esa ämdi shakllari ayni shu leksema ma'nolarini ifoda etadi. Bu so'z hozirgi turkiy tillarning deyarli barchasida faol bo'lib faqatgina fonetik tafovutlarga ega [Tuncer Gülensoy 2007,536-bet]. Ammo Uş –hozirgina, hozir [DLT;28-bet;2017], sinonim leksemalari anchagina nofaol. Hozirgi turkiy tillarning aksarida emdi so'ziga sinonim sifatida: Kazir, Hozir, Azir leksemalari faol qo'llanadi. Hozirgi zamonning cheksiz vaqt davomiyligidagi o'tgan va kelasi zamoni ajratib turuvchi qisqa bir nuqta ekanligidan darak beradi. Ushbu leksemalarning semik mundarijasi quyidagicha bo'lishi mumkin: Emdi – payt, shu payt, hozirgi o'zbek tilida hozirgidan keying vaqtni ham ifodalaydi.

4.Uzlüksizlikni ifodalovchi payt ravishlari. Ushbu guruhga turkiy tillardagi vaqtdagi to'xtovsiz davomiylikni ifodalovchi ravishlar kiritiladi.

Mangu- Manggu, umrbod; mangu ajzun –mangu dunyo [DLT;63-bet;2017]. menjü abadiy, mangu. Özüñ menjü ermâz atıñ menjü ol, atıñ menjü bolsa özüñ menjü ol – sen mangu emassan, ammo noming mangu, noming mangu ersa, o'zing ham mangu qolasan [QBN, 294; QBN, 226]. Yuqorilardan “mangu” uzluksizlikdan-da kuchliroq semaga ega, ya'ni “cheksizlik” ma'nosi. Qozoq tilida мәңгі [mäñgi] zf. oxiri bolmagan, bitmaydigan, songsizlikni ifoda etadi. Мәңгіге, мәңгіртте болмаска амалың жоқ [Т. Рыскелдиев, ұлы көш].Mangu manqurt bo'lishdan boshqa chorang yoq. Qozoq tiliga yaqin Bashqird tilida mangi shaklida uchraydi. [Kenan Koç, 2022, 78-bet]. Turk tilida esa bu so'z “bengu” shaklida uchraydi, lekin “ebediy” so'zichalik faol emas. Ammo umrbodlik, abadiylikni ifoda etadi. Bengü ağla kalbım –Mangu yig'la qalbim [Tuncer Gülensoy 2007,543-bet].

O'zbek va boshqa ayrim turk tillarida “mangu” ma'nosini ifoda eta oladigan so'z bolib, bu so'z o'zbek tilidagi “umrim bo'yi” ko'makchili qurilmadir. Qozoq tilida “өмір бойы” [ömir boyı] bor bo'lgan, yashagan vaqti davomida, hayoti bo'yi ma'nosini tamsil etadi. Ауыр кайгы арылмай, өмір бойы осылай өтетіндей көрінеді [С. Мұқанов, Тол. жин.]og'ir qayug'u tugamaydiganek, Umr bo'yi davom etadigandek ko'rinadi. Turk tilida esa “ömür boyunca” ko'makchili qurilmasi ayni shu ma'noni ifoda etadi [Tuncer Gülensoy 2007,543-bet].

Sutkaning qismini ifodalovchi ravishlar.

Keça –kecha, kechqurun [DLT;238-bet;2-jild;1960] Bu so'z sutkaning quyosh botgandan keyingi paytini ifodalagan. Bu so'z “Qutadg'u bilig” asarida: keçä kechqurun. Keçä jatza tañta jana aç turur – Kech yotsa, tong paytida yana och bo'lib turadi [QBK, 1035]. O'zbek tilida bu so'z hozirgi kungacha eski davr ma'nosini saqlagan. Bundan tashqari, bu so'z hozirgi o'zbek tilida bazm, ziyofat ma'nolarini ham ifoda etadi. Qozoq tilida кеш [keş ] kecha,kechqurungi vaqt. Күндіз ойлана жүріп, бірнеше кеш бойы осылайша отырып жазу жазады [М. Әуезов, Абай жолы]. Kunduzlari o'ylab, kechalari o'tirib, shunaqa xat yozar edi. Turk tilida esa fonetik farq bilan Gece leksemasi ayni shu ma'noni tamsil etadi. Akşam olmaya yakın eve gitmek için acele etti, uçarar gitti. –oqshom bo'lishiga yaqin uyga ketishga shoshildi [Kenan Koç, 2022, 78-bet]. Oltoy tilida ham ayni shu so'z mavjud bo'lib keç “oqshom, kech” ma'nosida haliga qadar ifoda etiladi [Baskakov, 1958, 46].

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib aytganda, ayrim turkiy tillarda ravishlar olmoshlar tarkibida aralashib ketgan. Ravish so'z turkumining bunday harakterlanishi keyingi davr mahsuli ekanligi bilan e'tirof eta olamiz. Turkiy tillarda ravishlarning shakllanishida vosita, jo'nalish, chiqish kelishigining o'rni beqiyosdir.

Turkiy tillar qadimiy idiziga borib taqalishiga qaramasan, ko'plab turkiy tillarda Arab va fors tilining ta'siri yorqin namoyon bo'lib turadi. Turkiy tillarining qo'shni tillar bilan ittifoqi, shuningdek, madaniy, siyosiy omillar ham turk tilining fonetik, leksik va hatto grammatik sathlariga o'z ta'sirini o'tkazgan. Ayniqsa, G'arbiy turk tillarida vaqt semasi birliklar bilan bog'liq leksemalar qatorida bevosita dinning ta'siri o'laroq, namoz vaqtlari, arabcha hijriy oy nomlari uchraydi.

Eski turkiy til davriga oid vaqt ravishlari ma'no tillarning barchasida ushbu leksemalarning ham ravish, ham mustaqilligini qisman va butunlay yo'qotgan, natijada hozirgi turkiy vazifadosh ko'makchi olaroq til birliklari orasida o'rin egallamoqda.

#### ADABIYOTLAR

1. Абдиев М.[2004] Соҳавий лексиканинг систем таҳлили муаммолари. - Тошкент.
2. Ахтамова Х. [1988] Пайт муносабатини ифодаловчи қўмакчи формалар// Ўзбек тили ва адабиёти.
3. Ahmed Bican Ercilasun ve baskalar,[1991] Karsilastirmali turk lehceleri sozlugu —Ankara.
4. Baskakov,N.A. [1958]. Altayskiy yazık, Moskva.
5. Бегматов Э., Неъматов Х., Расулов Р. [1989] Лексик микросистема ва унинг тадқиқ методикаси // Ўзбек тили ва адабиёти,
6. Ğururı, Ğulam, Uyğur Şiviliri Sözlügi, Milletler Neşriyatı, Béuciñ, [1986]Sözlüü, Ankara: Türk Dil Kurumu Yayınları,
7. Кошгарий Махмуд [1960]"Диван луготит турк" Ташкент: ССР, ФАА.
8. Kenan Koç. [2022] Kazak türkçesinde zaman kavramıyla ilgili söz varlığı – Muğla.
9. Нурмонов А. [1995]Тил тизими ва ўзбек тилшунослигининг долзарб муаммолари // Ўзбек тили ва адабиёт.
10. Tuncer Gülensoy [2007]. Türkiye Türkçesindeki Türkçe Sözcüklerin Köken Bilgisi



UDK:316.3(575.1+410.1)

**Manzura BEKMURODOVA,**  
O‘zbekiston Milliy universiteti magistranti  
E-mal: [bekmurodovamanzura129@gmail.com](mailto:bekmurodovamanzura129@gmail.com)

Andijon davlat chet tillari instituti dotsenti, PhD M.Qosimovaning taqrizi asosida

#### ANALYSIS OF LINGUACULTURAL FEATURES OF COMMUNICATION IN UZBEK AND ENGLISH FAMILIES

Annotation

In the article, the specific features of family communication are divided into classifications and the linguacultural features of the two nations are analyzed through the examples of literary works in the languages being compared.

**Key words:** Daily communication, communicative purpose, family communication.

#### АНАЛИЗ ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ОБЩЕНИЯ В УЗБЕКСКОЙ И АНГЛИЙСКОЙ СЕМЬЯХ

Аннотация

В статье особенности семейного общения разделены на классификации и раскрываются лингвокультурные особенности двух народов на примерах литературные произведения на сравниваемых языках.

**Ключевые слова:** Повседневное общение, коммуникативная цель, семейное общение.

#### O‘ZBEK VA INGLIZ OILALARIDAGI MULOQOTNING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI TAHLILI

Annotatsiya

Maqolada oila muloqotning o‘ziga xos xususiyatlari tasniflarga bo‘linib qiyoslanayotgan tillardagi badiiy asarlardagi misollar orqali ikki millatning lingvomadaniy xususiyatlari ochib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Kundalik muloqot, kommunikativ maqsad, oila muloqoti.

**Kirish.** “Oila – ijtimoiy institutlarning eng qadimgisidir. Insoniyat boshidan kechirgan tarixiy davrlarning qanchalik turfa va murakkab bo‘lishiga qaramay, ayniqsa, XIX va XX asrlarda ro‘y bergan buyuk o‘zgarishlar va islohotlarga dosh bera olgan ushbu maskan o‘z tizimi, tarkibi va jamiyat oldida turgan majburiyatlarini bajarishi nuqtai nazaridan sog‘ omon saqlanib qolgan tuzilmadir. Oilani insonlar tashkil etgani va undagi hayot-mamotni ular o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar tashkil qilishini hisobga oladigan bo‘lsak, uni sof psixologik jarayonlar maskani ham deb atash mumkin”[1]. Oiladagi muloqot – bu oila a‘zolari o‘rtasidagi axborot almashinuvi, o‘zaro ta‘sir va tushunish jarayoni. U oila a‘zolarining bir-birlarini yaxshiroq tushunishlariga, o‘zaro hurmat va ishonchni rivojlantirishga, muammolarni hal qilishga, yaqinlikni saqlashga va oilaviy baxtni ta‘minlashga yordam beradi. Insonlar oilada bir-birlari bilan muloqotda bo‘lganida turli lisoniy vositalar – so‘z, iboralar, gaplar va ularning variantlaridan foydalanadilar. Dialog olib boryotgan kishilarning muloqotidan va foydalanayotgan so‘zlaridan ularning millati va madaniyati haqida osongina bilib olish mumkin. K.Marks va F.Engelslar «Nemis mafkurasi»da muloqotni ijtimoiy taraqqiyotning asosiy omillaridan biri deb atashadi[2]. Haqiqatdan ham, kundalik hayotimizni diaologlarsiz va muloqotlarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Inson ongi muloqot jarayoni natijasida o‘sib, dunyoqarashi kengayib boradi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** “Oila a‘zolari o‘rtasida sodir bo‘ladigan murakkab va serqirrali o‘zaro munosabatlar ko‘plab olimlar, shu jumladan, o‘zbekistonlik olimlar (M.Davletshin, G.Shoumarov, E.G‘oziev, B.Qodirov, X.Karimov, N.Sog‘inov, F.Akramova, G.Yadgarova, M.Salaeva, D.Xoliqov va boshqalar) tomonidan o‘rganilgan. Ularda ko‘proq o‘zbek oilasiga xos urf-odatlar, udumlar, an‘analarni nuqtai nazaridan oilaviy munosabatlarning etnopsixologik qirralari tadqiq etilgan. Oiladagi ijtimoiy munosabatlar va ularning kelib chiqish qonuniyatlarini batafsil monografik tarzda o‘rganganlardan biri rus olimi L.Y. Gozman (1987) hisoblanadi”[3] M.Maxsudova o‘zining “Muloqot psixologiyasi” o‘quv qo‘llanmasida ham oila muloqoti to‘g‘risida fikrlarni keltirib o‘tgan[4].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Muloqot-insonning kim ekanligi ,xarakteri va shuningdek uning millati va xalqini anglatuvchi vositadir. Ingliz va o‘zbek oilalari muloqotining lingvomadaniy xususiyatlarini aniqlash hamda muloqotdagi til va madaniyat elementlarini tahlil qilish. Har ikki madaniyatdagi oilaviy munosabatlar va an‘analarni o‘rganish.

**Tahlil va natijalar.** “Oila – jamiyatning ajralmas bo‘lagi. Biror bir xalq, millat yoki jamiyat yo‘qki, u o‘zining rivojlanish tarixida va taraqqiyot istiqbolini belgilashda oila va uning atrofidagi

muammolarni, qadriyatlarini inobatga olmagan bo‘lsa. Har qanday istiqbol oilaning manfaatlaridan ayro tasavvur qilinmaydi. Zero, har bir inson uchun oila – bu umring boshlanishi, barcha narsalarning muqaddimasidir. Qolaversa, har bir inson o‘z baxti va saodatini eng avvalo oilasi bilan bog‘laydi, ya‘ni, o‘z uyi, oilasida baxtli bo‘lgan insongina o‘zini to‘laqonli bahtiyor his etadi”[5]. Oila davrasida insonlar kun davomida turli muloqotlardan foydalanadilar va bu kundalik muloqotlar orqali ular bir birlariga o‘z fikrlari, xohish istaklarini bildiradilar. Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent – M. Maxsudova o‘zining nazariyalari asosida muloqotning yoshga xos xususiyatlarini bir necha bosqichlarga bo‘lib o‘rgangan. Maxsudovaning ilmiy izlanishlari va nazariyalari asoslangan holda oiladagi kundalik muloqot jarayonlarini chog‘ishtirilayotgan ikki tilda quyudagi guruhlariga bo‘lib oson o‘rganish mumkin. Oiladagi kundalik muloqot: opa-singillar va aka-ukalar muloqoti, er-xotin muloqoti, qaynona kelin muloqoti, ona bola muloqoti, ovsinlar muloqoti, quda-andalar muloqotiga ajratib ularni o‘zbek va ingliz tilidagi badiiy adabiyotlar hamda kinofilmlardan olingan parchalar orqali o‘xshash va farqli jihatlarini tahlil qilish, va lingvomadaniy xususiyatlarini ochib berish mumkin.

Bizga ma‘lumki, o‘zbek oilalaridagi muloqot jarayonlarida doimo hurmat va o‘zbeklarga xos andisha ko‘rinib turadi. Ayniqsa opa-singil va aka-ukalar o‘rtasidagi muloqot ya‘ni siblings‘ communicationda xushmuomalalik sezilib turadi. Shuningdek, “ko‘pgina tadqiqotchilar (Richardson R., 1994; Driskoll R., Iksteyn D., 2003; Brazington R., 2003 va boshqalar) shaxsning sibling maqomi uning shaxsiga, er-xotinlik va ota-onalik maqomlariga, do‘stlar bilan muomalasiga, ishda rahbariyat va hamkasblar bilan o‘rnatilgan muloqotlarining xarakteriga ta‘sir etishini o‘rganishgan”[6]. Aka-uka va opa singillar muloqoti jarayonida ko‘pgina tagma‘nolarni uchratishimiz mumkin. Masalan doimo ular bir birlari bilan hazil mutoyiba yoki kinoyal so‘zlarni ishlatishlari tabiiy holdir. Badiiy asarlardan olingan quyidagi parchalar orqali fikrimizni yanada ochishga harakat qilamiz.

— Hoshim! — deb chaqiradi ba‘zan oyim.

— Labbay, oyijon?

— Tomdan oltin tashlab bergin.

— Xo‘p bo‘ladi, oyijon, — deymaun sekin u yoq-bu yoqqa qarayman-da:

— Oysha! - deb qichqiraman.

— Labbay, akajon?

— Tomdan o‘tin tashlab bergin.

— Xo‘p bo‘ladi, akajon, — deydi Oysha”. (“Sariq devni minib”. X.To‘xtaboyev)

Ushbu parchada aka singil muloqoti keltirilgan bo'lib akaning singlisiga buyruq ohangi qichqiraman so'zidan ko'rinib turibdi. Singilning esa akaga nisbatan cheksiz hurmati har bir javobining so'ngida akajon so'zini takrorlashi orqali yaqqol seziladi. O'zbek xalqi mehribon va samimiy xalq bo'lgani bois har bir oilada bolalarni kichik yoshligidan boshlab aka va opalarni sizlashga va doimo ularga hurmat ko'rsatishga o'rgatib boriladi. Ammo inglizlarda esa bunday holat kuzatilmaydi. Aka singillar yoki aka ukalar muloqotida sizlash va hurmat bilan gapirishni kuzatish qiyin. Shuningdek, ular o'z fikrlarini hech qanday ikkilanishlarsiz bayon etadi.

"Jane: "I believe that love should be gentle and kind. It grows slowly but surely."

Elizabeth: "And I believe that love should be passionate and full of fire! It must challenge us or it is not worth having" (Jane Austen. "Pride and Prejudice").

"Y.Gozman, K.Xorni va boshqalarning yozishlaricha, faqat emotsional hissiyotlarga tayangan er va xotin munosabatlari tobora vaqt o'tishi bilan oqilona hamkorlik va do'stlik, qon-qarindoshlik munosabatlari aylanib boradi".

Y.Dubrovinning (2004) ta'kidlashicha, "Ko'pchilik nikohlarni baxtli ham baxtsiz ham deb atash mushkul, chunki ularda er-xotinlarning bir-birlarini sekin-asta tarbiyalab borishlari va taqdir taqozosi bilan bora-bora munosabatlari chuqurlashib, tushunish hissi va do'stona munosabatlari sayqal topib, u hattoki, romantik muhabbat darajasiga ko'tariladi"[7].

Oila muloqotini o'rganishda nafaqat opa-singil va aka-ukalar muloqoti shuningdek, er-xotin o'rtasidagi kundalik muloqotlardan xalqning lingvomanadaniy xususiyatlarini ko'rish mumkin. O'zbek er-xotin muloqotidan uzoqlashmagan holda ingliz xalqida ham er-xotin muloqotida yumshoqlik va muloyimliklarni ko'rishimiz mumkin.

"My dear Mr. Bennet, replied his wife, how can you be so tire some! You must know that I am thinking of his marrying one of them.

Is that his design in settling here?

Design! Nonsense, how can you talk so!

But it is very likely that he may fall in love with one of them, and therefore you must visit him as soon as he comes.

I see no occasion for that. You and the girls may go, or you may send them by themselves, which perhaps will be still better, for as you are as handsome as any of them, Mr. Bingley may like you the best of the party.

My dear, you flatter me. I certainly have had my share of beauty, but I do not pretend to be anything extraordinary now. When a woman has five grown-up daughters, she ought to give over thinking of her own beauty". ( Jane Austen. "Pride and Prejudice". 2 page)

Ushbu parchadagi er-xotin muloqotida shuni ko'rishimiz mumkinki, xotini qanchalik qiziqqon va shoshqaloq bo'lishiga qaramay, Mr Bennet deyarli har bir nutqida my dear so'zi orqali fikrini xotiniga chiroyli shaklda ifoda etgan. Shuni ham alohida takidlash joizki, oilada shunday kommunikatsiyalar bo'ladiki, ularda millatning o'ziga xos bir ko'zgusini yaqqol ko'rish mumkin. Masalan, quyidagi asardan olingan parcha orqali fikrimizni isbotlash mumkin:

"Choyni ichib bo'lg'andan keyin qutidor fotiha o'qub o'rnidan turdi:

— Men senga aytib qo'yay, Kumush, — dedi turar ekan qutidor Oftob oying'a, — bu kunga bir mehmon aytgan edim. Cho'ringni chiqarib mehmonxonani tozalat. Anovi yangi qoplag'an ko'rpalarini ber, tanchaga o'shani yopsin. Katta gilamni ham chiqar, uyingda mevalaring bor edimi?

— Bor.

— Bor bo'lsa yaxshi. Bir ozdan so'ng et olib kirguzarman, varaqi pishirib qo'yingiz.

Oftob oyim varaqi pishirishdan u kungi mehmon-ning unchamuncha kishi bo'lmag'anlig'ini bildi". (A.Qodiriy. "O'tgan kunlar").

Ushbu parcha er-xotin muloqoti orqali o'zbek millatiga xos bo'lgan mehmondo'stlik va mehribonlik aks etgan. O'zbek xalqining mehmondo'st odamlariga eng sara, eng yaxshi narsalarini mehmonga ilinadi.

O'zbek xalqida qaynona kelin munosabatlari doimo dolzarb masalalardan biri bo'lgan. Ko'p xolatlarda ularning muloqotlarida qo'pol va yoqimsiz so'zlarni uchratish mumkin. O'zbek millatiga xos bo'lgan qaynona kelin muloqotini va shuningdek ovsinlar hamda ona bola muloqotlaridagi o'ziga xos ma'nolarni taniqli adibimiz Said Axmadning birgina „Kelinlar qo'zg'oloni“ dramasi orqali aniqlash mumkin va buni boshqa millatlarda foydalaniladigan muloqot bilan qiyoslab lingvomanadaniy xususiyatlarini ochib berish mumkin.

"S o t t i. Layli-Majnun. (Nigoraga). Engashib salom qiling.

N i g o r a. Salom!

F a r m o n (g'azab bilan). Qaysi go'rda tarbiya ko'rgansiz? Ota-onangiz axloq, odob degan narsalarni o'rgatmaganmi? (Yuzini teskari o'giradi.)". (Said Axmad. „Kelinlar qo'zg'oloni“).

Ushbu parchada qaynona kelin muloqotini va undagi qo'pollikni ko'rish mumkin. Ularning nutqlaridan kelinning shaddodligini qaynona ham bo'sh kelmaydigan ,ammo, yaxshiga yaxshi yomonga yomon ekanligini ko'rish mumkin. Shunday bo'lsada farzandi tenggi kelinini sizlab murojaat qilishidan yomon qaynona emasligini anglash mumkin. Aksincha, kelini yosh va gapga kirmaydigan erkatoq qizligini ham ularning muloqotlaridan anglab olish qiyin emas.

"F a r m o n (ichkaridan). Nega ko'nmas ekansan? Ko'nasan. Men seni o'g'ri bo'l deya yotganim yo'q.

Shuncha kelinlarim senga o'xshagan odam. Hammasi aytganimni qiladi.

N i g o r a. Men ko'nmayman. Siz axir zamonamizdan ikki yuz yil orqada qolib ketgansiz-ku.

F a r m o n. E, menga artistlik qilma. (Sottiga.) Bu kelin osonlikcha bo'yin egadiganga o'xshamaydi. Qilt etgan tovushi, g'iring degan gapni menga yetib tursin. Tushundingmi?

S o t t i. Xo'p bo'ladi, oyijon. Ko'zim durbin, qulog'im mikrafon". (S.Axmad. "Kelinlar qo'zg'oloni") Bu parchada esa qaynonaning kelinlari bilan o'zaro muloqotini ko'rishimiz mumkin. Ularning nutqlarida qaynonaning qattiqo'l va talabchan ekanligini, Nigoraning esa bo'ysinmas kelinligini ko'rish mumkin. Katta kelin Sottining esa qaynonaning o'ng qo'li ekanligini "Xo'p bo'ladi, oyijon. Ko'zim durbin, qulog'im mikrafon" nutqi orqali anglashiladi.

Oila muloqoti haqida so'z borganda ona bola muloqotini ham ta'kidlash joizdir. Ona va o'g'il muloqotida ham chiroyli gaplarni uchratishimiz mumkin.

"Otabek mehmonxonaga yaqinlashishi bilan chaqaloq yig'isini eshitib ixtiyorsiz ichkari havlig'a tomon burildi va yo'lakda onasiga yo'liqdi. Qorong'u bo'lsa ham O'zbek oyimning tusidagi shodliq belgulari ochiq ko'rinib turar edi:

— O'g'ul muborak bo'lsun, bolam!

— O'zi tetikmi?

— Tetik!

— Oldig'a kiraymi?

— Yo'q, — dedi O'zbek oyim, — chillalik uyga kechasi ko'chadan kelib kirish yaxshi emas".(A.Qodiriy. „O'tgan kunlar“). Ushbu parchadagi ona va bolaning muloqotidan o'zbek millatiga xos bolajonlik ya'ni farzandli bo'lganligidan ikki suhbatdoshning ham benihoya shod ekanligini sezishimiz mumkin.

Nafaqat o'zbeklarda balki, ingliz millatidagi ona bola muloqotlaridan anglashilgan ma'nolarni ko'rishimiz mumkin. Masalan :

"-Kevin, Kevin, Kevin(pouse) . Kevin Merry Christmase sweyetheart

-Mum

-Oh Kevin I'm so sorry

-Mum,where's everybody else

-Oh baby,they couldn't come they wanted to so much"

("Home alone". Film)

Uyda yolg'iz filmidan olingan ona bola muloqotida ular bir birlarini judayam sog'inganligini va bo'lib o'tgan ishlardan afsusdaligini anglash mumkin. Shuningdek o'g'il nafaqat onasini balki, boshqa oila azolarini ham sog'inganligini "where's everybody else" nutqi orqali sezish mumkin.

O'zbek xalqi azaldan mehr-muruvvatli va andishali xalq hisoblanadi. Shuning uchun ham faqat o'zbek millatidagina bir hovlida uch to'rttagacha aka-ukalar birga yashab bir tom ostida istiqomat qilishi mumkin. Tabiiyki, aka ukalarning xotinlari ya'ni ovsinlar muloqoti ham o'rganishga arzidigan qiziq mavzu hisoblanadi. Ularning muloqotida hajviya ,g'iybat yoki kinoyalarni anglash mumkin. Masalan quyidagi parcha orqali fikrimizni isbotlaymiz.

"S o t t i. Hozir issiq suv chapishtirib beraman. Tahoratingizni yangilab olasiz, oyijon.

B o s t o n (chiqib ketarkan). Patxalim o'lgur. Shu desangiz...

B a s h o r a t. Suykalmay joning chiqsin! (Hali ham yelkasida dasturxon bilan turgan Nigoraga.) Mana shu Sottixon ovsiningizga ehtiyot bo'ling. Aslo sir ayta ko'rmang, darrov sotadi. Ishonmagin do'stingga, somon tiqar po'stingga.

M u h a y o. Shpion bu o'lgur, shpion!

M e h r i. Bu shpion o'lgur hammamizni nervniy qilib qo'yan". (S.Axmad. "Kelinlar qo'zg'oloni"). Navbatdagi ovsinlar muloqotidan ham bir biriga boshqasini yomonlashi ya'ni g'iybat aks

etgan bo'lib katta kelinlar yangi kelinni xavfdan ogohlantirib turgani ularning komik muloqotidan osongina anglashiladi.

**Xulosa.** Yuqoridagi tahlillardan ko'rinadiki, O'zbek va ingliz oilalaridagi kundalik muloqot farqlari va o'xshash tomonlari bir qator madaniy, til va ijtimoiy omillarga bog'liq. Oila muhimligi har ikkala madaniyatda ham oila a'zolari orasidagi munosabatlar juda muhim hisoblanadi. Oila a'zolari bir-birlariga yordam berishadi va qo'llab-quvvatlashadi. Shuningdek, muloqotning iliqqligi haqida to'xtalib o'tilsa, o'zbek va ingliz oilalarida ijobiy muloqot uslubi mavjud bo'lib, bu ularning bir-biriga bo'lgan mehr-muhabbatini ifodalaydi. Ikkala madaniyatda ham an'anaviy qadriyatlar, masalan, hurmat, samimiyat va sadoqat muhim ahamiyatga ega. Ikki millat muloqot uslubida bir qator farqlarni ko'rish mumkin: o'zbek oilalarida ko'proq

an'anaviy va rasmiy muloqot uslublari mavjud bo'lishi mumkin, ayniqsa kattalar bilan suhbatda. Ingliz oilalarida esa ko'proq norasmiy va ochiq muloqot uslublari mavjud. O'zbek madaniyatida tashqi ko'rinish va kiyim-kechakga ko'proq e'tibor beriladi, bu esa muloqotda ham aks etishi mumkin. Ingliz oilalarida esa bu jihat biroz kamroq ahamiyatga ega. O'zbek oilalari odatda o'zaro suhbatlarda an'anaviy mavzularni (masalan, oziq-ovqat tayyorlash, mehnat qilish) muhokama qilishadi. Ingliz oilalarida esa kengroq mavzular (sport, texnologiya) haqida suhbatlashish odatiy hol hisoblanadi. O'zbek madaniyatida kattalarni hurmat qilish juda muhimdir. Ingliz madaniyatida esa egalik yoki tenglikka asoslangan munosabatlar ko'proq tarqalgan. Bu farqlar va o'xshash tomonlar har bir oilaning kundalik kommunikatsiya jarayonidan yaqqol seziladi.

#### ADABIYOTLAR

1. Karimova V.. Oila psixologiyasi. Toshkent – 2007. -316 b.
2. <https://goaravetisyan.ru/uz/ponyatie-obshcheniya-v-socialnoi-psihologii-socialnaya-psihologiya-tema/>
3. <https://interonconf.org/index.php/ger/article/download/5476/4821/4722>
4. Maxsudova M.. Muloqot psixologiyasi. Toshken «Turon-iqbol»2006.-119 b.
5. Karimova V.. Oila psixologiyasi. Toshkent – 2007. -7 b
6. Karimova V.. Oila psixologiyasi. Toshkent – 2007. -128 b
7. Xorni K. Jenskaya psixologiya. – SP .1993.
8. Qodiriy A.. “Tanlangan asarlar” “O'tgan kunlar” “Sharq” nashriyoti,Toshkent-2014.-880 b.
9. Austen J.. “Pride and Prejudice” .Info books.org.-515 b.
10. Axmad S.. “Kelinlar qo'zg'oloni”
11. To'xtaboyev X. “Sariq devni minib” Toshkent «Yangi asr avlodi» 2010.-236 b.



UDK:811.02.1.

**Shaxnoza BEKMUROTOVA,**  
Toshkent davlat texnika universiteti dotsenti, PhD  
E-mail: shaxnoza90.90@mail.ru

ToshDAU dotsenti G.Tilovova taqrizi asosida

## VIEWS OF LINGUISTS ON PAIRS OF WORDS

Annotation

Pairs of words (Zwillingsformeln) form a special group in the phraseological system of the German language, and the combinations with a special syntactic structure and whose components give phraseological meaning are often classified as pairs of words. A pair of words is also known as a binomial, also known as a pair formula. Pairs of words, the components of which give a phraseological meaning, were even called proverbial formulas by V. Fleischer, which, according to the opinion of a linguist, represent a formulaic, typical form. They are combinations of two different (or identical) words of the same part of speech that are related to each other mainly through synonymy or antonymy.

**Key words:** Paired forms, Wortpaar, Zwillingsformeln, Doppelungen, Binomiale, Paarformel, synonym, antonym, semantic, structure.

## МНЕНИЯ ЛИНГВИСТОВ НА ПАРЫ СЛОВ

Аннотация

Пары слов (Zwillingsformeln) образуют во фразеологической системе немецкого языка особую группу, а к парам слов часто относят сочетания, имеющие особую синтаксическую структуру и компоненты которых придают фразеологическое значение. Пара слов также известна как бином, также известный как формула пары. Пары слов, компоненты которых придают фразеологическое значение, В. Флейшер даже назвал поговорочными формулами, которые, по мнению лингвиста, представляют собой шаблонную, типическую форму. Они представляют собой сочетания двух разных (или одинаковых) слов одной части речи, связанных друг с другом преимущественно посредством синонимии или антонимии.

**Ключевые слова:** Парные формы, Wortpaar, Zwillingsformeln, Doppelungen, Binomiale, Paarformel, синоним, антоним, семантика, структура.

## TILSHUNOSLARNING JUFT SO'ZLAR HAQIDAGI QARASHLARI

Annotatsiya

Juft so'zlar (Zwillingsformeln) nemis tilining frazeologik tizimida o'ziga xos guruhni tashkil qiladi va ko'pincha maxsus sintaktik tuzilishga ega bo'lgan va komponentlari frazeologik ma'no beruvchi birikmalar juft so'zlar deb tasniflanadi. Juft so'zlar binominal, shuningdek, juftlik formulasi deb ham nomlanadi. Komponentlari frazeologik ma'no beruvchi juft so'zlar, hatto V.Flaysher tomonidan maqol formulalari deb ham atalgan, ular asosan tilshunos olimning fikriga ko'ra formulali, odatiy shaklni ifodalaydi. Ular bir xil nutq qismining asosan bir-biri bilan sinonimiya yoki antonimiya orqali bog'liq bo'lgan ikki xil (yoki bir xil) so'zlarning birikmasidir.

**Kalit so'zlar:** Juft shakllar, Wortpaar, Zwillingsformeln, Doppelungen, Binomiale, Paarformel, sinonim, antonim, semantik, struktur.

**Kirish.** Nemis tilida bugungi kunda juft so'zlarni o'tgan zamonada bo'lgan tilga oid eskilik sarqiti deb tez-tez tilga olinsada, lekin u zamonaviy tilga oid ifoda, tushuncha demakdir, undan foydalanish esa ifodaning darajalanib oshib borishining yordamchi vositasi sifatida xizmat qiladi. Ushbu nazariyaga ko'ra bir xil qiymatga ega juft so'zlar ichidan keyinchalik ayrim so'zlar butunlay yo'qolib borishi mumkin. Ana shunday ierarxik tartiblangan juft so'zlarda bir-biridan farq qiluvchi darajalar mavjud bo'lib, bir-biriga qarama-qarshi ma'nolari beruvchi juft so'zlar heif und kalt.

Ko'plab tilshunoslar ilmiy ishlarida juft so'zlarga nisbatan turli terminlardan foydalanishgan: „Paarformel“ (juft shakllar) (I.Brandsh), „Wortpaar“ (juft so'zlar), „Binomiale“, (juftlik) (V.Hofmayster), „Zwillingsformeln“ (egizak shakllar), „sprichtwörtliche Formeln“ (maqol shakllar) (A.Iskos, A.Lenkova), „Doppelungen“ (takror so'zlar) va „formelhafte Wendungen“ (shaklli so'z birikmalari) kabi nomlar shular jumlasidandir.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Soha mutaxassislari A. Iskos va A. Lenkova o'zlarining „Lesestoffe zur deutschen Lexikologie“ asarida juft so'zlarga nisbatan „Zwillingsformeln“, „sprichtwörtliche Formeln“ va „Wortpaare“ terminlarini qo'llashgan. V.Hofmayster esa „Sammlung der gebräuchlichen Zwillingsformeln in der deutschen Gegenwartssprache“ asarida „Wortpaar“, „Binomiale“ kabi ikki terminlardan foydalangan. E.Assenine ham o'zining ilmiy maqolasida „Wortpaare“ terminidan, tilshunos olim I.Brandsh esa faqatgina „Paarformeln“ terminidan frazeologik birlik sifatida foydalangan. Sh.Imyaminova, G.Tilovova o'zlarining „Nemis va o'zbek tillarida juft so'zlar“ qo'llanmasida, „Bugungi kunda juft so'zlar ko'pgina tillarda bir necha nomlar bilan ataladi va aynan nemis tilida inobatga olingan alohida nomi mavjud emas, shuning uchun nemis tilida „Wortpaare“ va „Zwillingsformeln“ terminlari ko'proq qo'llaniladi“, deb ta'kidlab o'tganlar. Juft va takroriy so'zlarning ma'no mohiyati va termin sifatida ham bir-biriga o'zaro yaqinligi va o'xshashligi hamda bu ikki xil so'z turkumi, ularning bir-biriga

munosabati haqida turli fikrlar paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Shuningdek, juft so'zlar asosan ikki guruhga, ya'ni sof juft so'zlar va takroriy juft so'zlarga ajratiladi. Boshqa bir guruh tadqiqotchilar esa juft va takror so'zlarni umumiy belgilarga ega bo'lgan turli so'z kategoriyalari deb ta'riflashadi va ularni alohida guruhlarga bo'lishadi.

Tilshunos olimlarning ilmiy nazariyalorigina emas, balki juft so'zlarga nisbatan turli terminlardan foydalanishgani ham ahamiyatlidir.

U.Shryoter birinchi bo'lib juft so'zlar Zwillingsformeln, Zwillingspaare, Paarformeln kabi terminlarni qo'llagan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Nemis tilida juft so'zlar yuqorida keltirilganidek, tilshunoslar tomonidan turli xil terminlar bilan berilgan, bu holat esa, albatta, nomutanosiblikka olib keladi. Zwillingsformeln va Wortpaare terminlar odatda sinonim hisoblanadi. Lekin Z.Gergieva nemis iboralarini o'rganish asosida ushbu ikki tushunchani ajratadi. Wortpaare — bu turli xil so'zlarning birikmasi (sinonimlar, antonimlar bo'lishi mumkin. Masalan, Tag und Nacht, klar und deutlich), Zwillingsformeln esa — ikki bir xil so'z birikmasi, ya'ni „egizak komponentlar“dir. O'zbek tilida esa o'zbek tilshunos olimlari faqat juft so'z terminidan foydalanishgan. Shuning uchun nemis tilida tilshunoslar tomonidan eng ko'p foydalanilgan va o'zbek tiliga ma'nosi mos keladigan „Wortpaare“ termini ma'qul deb hisoblandi.

Rus tilshunos olimlari ko'plab monografiya va ilmiy maqolalarda juft so'zlar tadqiq etilgan, biroq ularning xilma-xilligi, lingvistik va nutqiy materiallarning turlichaligi ushbu grammatik kategoriyaning nomlanishini murakkablashtiradi. Umumlingvistik paradigmadagi juft so'zlarga bag'ishlangan bir qator ishlarda, asosan, dvandva (hind tilshunoslari termini) termini, juft so'zlar (rus tadqiqotlarida uchraydigan termin), kopulyativ uyushmalar (nemis termini), binomlar (internatsional qabul qilingan termin). Juft so'zlar haqidagi rus tilidagi tadqiqotlarda juft nomlanishlar yoki sintagma



formulari (V.Kolesov), aynan soʻzlar (A.Potebnya), tavnologizmlar (L.Royzenzon, A.Bushuy), tavnologik frazeologizmlar va qofiyalangan frazeologik birliklar (V.Mokienko), reprezentativ juftlar (A.Xrolenko), reduplikatsiya (F.Minlos) va boshqalar qoʻllaniladi.

1900-yilda M.Djafar rus tilidagi bu kabi tuzilmalar – turkiy tillarning taʼsiri, degan taxminni keltirgan. Turkiy tillarda birinchi tovushning qaytalanishi hamda boshlangʻich guruhdagi m tovushli undoshlarning ikkinchi komponenti – keng tarqalgan hodisa hisoblanadi. Reduplikatsiyaning bunday turini A.Reformatskiy, N.Trinititskaya, Y.Plen, I.Pachay, F.Minlos kabi tilshunos olimlar kengroq koʻlamda oʻrganishgan.

S.Nikolayev oʻzining „Chto takoye xuxri-muxri“ maqolasida quyidagi taxminni keltiradi: „Koʻplab (takrorlanishlar) soʻzlar boshidagi undoshlarning bir maromda almashinuvi rus tili tarkibiga oʻzlashish orqali kirib qolgan“. Shu bilan bir qatorda muallif shurumburum, xurda-burda va h. kabi koʻplab turkiy tillardan oʻtgan oʻzlashmalar mavjudligini ham taʼkidlaydi. Shunday qilib, turkiy tillardan nafaqat reduplikatsiya modellari, balki alohida iboralar ham oʻzlashganligi maʼlum boʻldi. S.Nikolayevshu kabi soʻzlarning barchasi ham oʻzlashmagan, balki ularning negizida asl rus soʻzlari ham mavjud ekanligini, masalan: tari-bari, tren-bren va hokazolarni taʼkidlaydi.

V.Belikov rus tilida yana bir reduplikatsiyani koʻrsatib oʻtadi. Bu juft soʻzlardagi ikkinchi komponentning tabii (taʼqiqlangan yoki ishlatilishi mumkin boʻlmagan soʻzlar) leksika darajasida buzilishi hisoblanadi. Shunday qilib, ushbu koʻrinishdagi reduplikatsiyani toʻlaqonli rus tiliga oid ekanligini bemalol taʼkidlashimiz mumkin.

Reduplikatsiya konstruksiyasi turkiy tillardan rus tiliga oʻz fonetik xususiyatlarini yoʻqotmagan holda oʻzlashganligiga qaramay, rus juft soʻz va oʻzlashgan qatlamdagi juft soʻzlar taqqoslanganida, bir qator stilistik, semantik, funksional koʻlamdagi farqlar aniqlandi.

M.Djafarning qayd etishicha, fors tilida F.Fortunatovga iqtibos keltirgan holda „juft-tarkibiy jumlar“ iborasini qoʻllaydi. Uning taʼkidlashicha, „bu kabi juft soʻzlarni ixtiyoriy forsha soʻzlar misolida ham tuzish mumkin. Masalan, pul – qogʻozli pullar, pul-mul – qogʻozli va tangali pullar“.

U keltirgan tasnif juft soʻzlarni tahlil qilayotgan koʻplab tilshunos olimlar uchun poydevor vazifasini bajaradi. Ushbu iboralarning manbai, tilshunos nuqtayi nazariga koʻra, asl xalq poeziyasi hisoblanadi. A. Yevgeneva ham oʻzining „Ocherki po yaziku russkoy ustnoy poezii v zapisyax XVII - XX vv.“ monografiyasida xuddi shu fikrni yoqlab chiqadi. V. Kolesov ham yuqoridagi fikrlarga qoʻshilgan holda, rus tilidagi juft soʻzlar qisman xalq nutqi va folklor uchun yaratilganligini taʼkidlaydi.

Rus tilidagi m- va sh-reduplikatsiyalarning oʻziga xos farqli jihatlari shundan iboratki, ularda stilistik boʻyoqdorlik mavjud emas, aksincha, ekspressivlik kuzatiladi.

**Tahlil va natijalar.** Bundan tashqari, turkiy tillarda shunga oʻxshash iboralar nutqning turli uslublarida qoʻllaniladi. Yana shuni taʼkidlash lozimki, soʻzlarga bu koʻrinishdagi buzuvchi soʻz-ulamalarni qoʻshish eshituvchi uchun gohida maʼlum bir

konnotatsiyaga ega boʻlsa, baʼzida unga ega boʻlmasligi, maʼlum bir tilga ega shaxsni tavsiflovchi til oʻyini hisoblanishi mumkin. Shu bilan bir qatorda, xuddi shunday reduplikatsiyalarning aksariyati individual jihatdan boyitilgan boʻlishiga qaramasdan, nutq davomida paydo boʻlishi va yoʻqolib ketishi ham tabiiy holdir.

A. Potebnyaoʻzining „Zapiski po russkoy grammatike“ asarida folklor janri va xalq nutqidagi birinchi va zalvorli juft soʻzlar borasidagi tafsilotlarini yoritib bergan. U keltirgan tasnif juft soʻzlarni tahlil qilayotgan koʻplab tilshunos olimlar uchun poydevor vazifasini bajaradi. Ushbu iboralarning manbai, tilshunos nuqtai nazariga koʻra, asl xalq poeziyasi hisoblanadi. U xalq poetikasiga xos boʻlgan iboralardan formula sifatida foydalanadi va ularni rus tilining oʻziga xos grammatik kategoriyasi misollari, deya izohlaydi. V.Felitsina va V.Mokienkolarning frazeologik lugʻatlaridagi nejdanno – negadanno, mi-dorog, lyubo – dorogo kabi konstruksiyalar buyuk rus xalq nutqiga xosligi taʼkidlanadi. A. Evgeneva ham oʻzining „Ocherki po yaziku russkoy ustnoy poezii v zapisyax XVII - XX vv.“ monografiyasida xuddi shu fikrni yoqlab chiqadi. V. Kolesovham yuqoridagi fikrlarga qoʻshilgan holda, rus tilidagi juft soʻzlar qisman xalq nutqi va folklor uchun yaratilganligini taʼkidlaydi.

Ayni shu paytda A. Potebnya xleb-sol, otets-mat koʻrinishidagi rus konstruksiyalari, xitoy birikmalari, hind tilidagi iboralarning semantik va struktur jihatidan oʻxshashligiga ishora qiladi.

I.Pachay Sharqiy Yevro osiyo tillarida „yigʻindi koʻrinishidagi juft soʻzlarning“ oʻziga xos funksiyasiga alohida urgʻu beradi. Juft soʻzlar semantikasining ushbu xususiyatini A. Potebnya avvalroq payqagan: „Bir-biri bilan muqobil boʻlmagan xususiyliklarni taqqoslash mantiqiy qonuniyatning buzilishi emas, balki maʼnoni taʼkidlash usuli, umumlashtirish usuli, baʼzida esa – shu kabi predmetlarning ajoyibligini, gʻayritabiiyligini hamda oʻziga xosliklarini tasvirlash maʼnosidagi ideallashtirish hisoblanadi“. B.Velxlining „Parniye slova i yestestvennaya sochinitelnaya svyaz“ asarida turli oila tillariga mansub tillardagi juft soʻzga xos xususiyatlar haqida soʻz boradi. Juft konstruksiyalarning bu xususiyatlari iboralarning komponentlari sinonimik juftliklardan iborat boʻlgan holda oʻrta asrlardagi rus tillariga oʻziga xos maʼno kasb etgan.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilish mumkinki, juft soʻzlarni nemis tilida klassifikatsiyalashga asosan H.Burger, V.Flaysler, H.Myuller, V.Hofmayster kabi nemis tilshunos olimlari katta hissa qoʻshgan. Keyinchalik esa E.Zayler juft soʻzlarning klassifikatsiyalash davri bilan birgalikda ularni qoidaga asosan yasali usullarini tadqiq qilgan. Nemis tilidagi juft soʻz terminlaridagi notmutanosibliklarni koʻrish mumkin. Sababi nemis tilshunoslari juft soʻz terminini tadqiqotlarida turlicha qoʻllashgan. Oʻzbek tilshunos olimlaridan N.Mamatov va A.Hojiyevlar oʻzlarining tadqiqotlarida faqatgina juft soʻz termini qoʻllanilishi haqida fikr bildirishgan. Juft soʻz termini nemis tilida turlicha nomlar bilan keltirilishi, oʻzbek tilida esa faqatgina juft soʻz terminidan foydalanishi Ikki chogʻishtirilayotgan tillardagi farqli jihatlardan biri sanaladi.

#### ADABIYOTLAR

1. Гергиева З.Г. Парные словосочетания в системе немецкой фразеологии. Владикавказ: Изд-во Северо-Осетинского гос. ун-та им. К. Л. Хетагурова, 2006. –260 С.
2. Мокиенко В.М., Фелицина В.П. Русские фразеологизмы. Лингвострановедческий словарь. – М.: Рус. яз., 1990. – С. 224.
3. Колесов В.В. Принцип парного соединения близкозначных слов в древнерусских литературных текстах // Исследования по истории и диалектологии русского языка: межвуз. сб. науч. тр. – АлмаАта: Издво КазПИ, 1990. – С. 13.
4. Пачай И. Ареальные аспекты парных слов в русском языке. –Ниредьказа: STUDIUM, 1995. – С. 96.
5. Потебня А. А. Записки по русской грамматике. Т. IV. М.; Л.: Изд-во АН СССР, 1941. – С. 418.
6. Дмитриев Н.К. Грамматика кумыкского языка. – М.; Л.: Изд-во АН СССР, 1940. – С. 47.
7. Hofmeister W. Sammlung der gebräuchlichen Zwillingsformeln in der deutschen Gegenwartssprache. Peter Lang: Frankfurt a.M., 2010. – S. 3.
8. Imyaminova Sh. S., Tilovova G. A. Nemis va oʻzbek tillarida juft soʻzlar. –T.: Mirzo-Ulugʻbek nomidagi Oʻzbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2008.. – B. 13.
9. Palm Ch. Phraseologie, Eine Einführung, Tübingen, Hueber, Narr, 1995 -S.130.
10. Pilz K.D. Phraseologie: Redensartenforschung, Stuttgart, Narr, Metzler. 1981. -S 147.



UDK: 81.1(2)

**Madina BOLLIIYEVA,**  
ADU tayanch doktoranti  
E-mail: [madina\\_bolliyeva88@mail.ru](mailto:madina_bolliyeva88@mail.ru)

ADU professori, f.f.d. D.Abdullayeva taqrizi asosida

### BALLADADA LIRIK “MEN”

Annotatsiya

Mazkur maqolada ballada janri kelib chiqishi, jahon adabiyotidagi ko'rinishlari, mavzulari haqida fikr yuritiladi. O'zbek adabiyotidagi ballada janri jahon adabiyotida yaratilgan ballada janridagi asarlar bilan o'xshash va farqli jihatlari ko'rsatiladi. Usmon Azim balladalarining boshqa o'zbek shoirlaridan farqli ekani, undagi mavzu, qahramon his-tuyg'ularining ifodasi, shoirming ichki meni misollar bilan dalillanadi.

**Kalit so'zlar:** ballada, janr, asar, lirika, poeziya, she'r, qo'shiq, raqsbop qo'shiq, raqsga tushish, peyzaj, liro-epik tur.

### ЛИРИЧНОЕ “Я” В БАЛЛАДЕ

Аннотация

В данной статье рассматриваются истоки жанра баллады, его проявления и темы в мировой литературе. Показаны сходные и разные стороны жанра баллады в узбекской литературе и произведения жанра баллады, созданные в мировой литературе. Баллады Усмана Азима отличаются от других узбекских поэтов, тема, выражение чувств героя, внутреннее я поэта подтверждены примерами.

**Ключевые слова:** баллада, жанр, произведение, лирика, поэзия, поэма, песня, пляс, пляска, пейзаж, лирико-эпический тип.

### LYRIC “I” IN THE BALLAD

Annotation

This article discusses the origins of the ballad genre, its manifestations and themes in world literature. Similar and different aspects of the ballad genre in Uzbek literature and the works of the ballad genre created in world literature are shown. Usman Azim's ballads are different from other Uzbek poets, the theme, the expression of the hero's feelings, the inner self of the poet are proved by examples.

**Key words:** ballad, genre, work, lyric, poetry, poem, song, dance song, dancing, landscape, lyric-epic type.

**Kirish.** Adabiyot qalb ko'zgusi, uning har bir asari (xoh u epik, xoh lirik yoki dramatik bo'lishidan qat'i nazar) inson hayotining, ruhining, iztiroblari va qalb kechinmalarining eng nozik tasviridir. Bu nozik tasvirlar adabiyotning turli janrlarda yozilgan asarlarda yaqqol namoyon bo'ladi.

Lirik asarlar, ya'ni she'riyatning qator o'ziga xos xususiyatlari bor. Avvalo, lirik asarlar, asosan, she'riy shaklda yoziladi. She'riy shakl deyilganda, vaznga solinishi, qofiyalanishi, ma'lum satrlar yig'indisi bo'lmish bandlardan iborat bo'lishi nazarda tutiladi. O'zbek she'riyatida barmoq, aruz, erkin (sarbast) vaznlari keng qo'llab kelinmoqda. Ikkinchisi, eng asosiysi, unda insonning ruhiy holat va ke- chinmalari qalamga olinadi. Uchinchisi, ko'p hollarda poetik maqsad talabi bilan inversiya (gap bo'laklarining o'zgargan tartibi)ga murojaat qilinadi.

Adabiyotning eng nozik qalb kuychisi bu lirik turidir. Lirik turning har bir janrida insonlarning qalb kechinmalari va iztiroblari turli vaznlarga solinib bayon qilinadi. Shunday lirik janrlar ham borki, unda faqatgina qofiya va vaznlardan tashqari epik turning elementlari ham mujassam bo'ladi. Ya'ni shoir o'z kechinmalari va hayotining ma'lum bir qismini voqealar bilan bayon qiladi. O'z ichida lirik va epik turlarning elementlarini olgan janrlarni liro-epik janrlar deb ataymiz.

Liro-epik janrlardan biri balladadir. Bu janr uzoq yillik tarixga ega. Uning tarixiy ildizlari Yevropa folklorshunosligiga borib taqaladi. Janrning dastlabki yozma ko'rinishlari ham aynan jahon adabiyotidagi asarlardir.

“Provansal tilidagi bu janr ballada – yoki qisqartirilgan shakli baladeta bo'lib, poeziyaga tegishli hisoblangan. Ilk bor XIII asrda yozilgan Provansal she'rlarida namoyon bo'la boshlagan. Saqlanib qolingan bir necha ma'lumotlarga qaraganda, bu so'z raqsbop qo'shiq so'ziga sinonim sifatida ishlatilgan. Provansal balladalarining strukturasi alohida ajralib turuvchi shakli va semantik belgilari bo'lmagan.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** O'rta asrlarga kelib, ballada boshqa Yevropa davlatlari adabiyotida ham paydo bo'la boshlagan. Masalan: fransuz tilida balade, ballade – kuchli she'riy va musiqali matn shaklida bo'lib, poeziya va musiqaning sevimli janri hisoblangan. Bu janr Fransuz adabiyotida XIII asr oxirlarida paydo bo'la boshlagan. 1300-yillarda Janno de Lekyurelya tomonidan yozilgan balladalar, shubhasiz, eng dastlabki balladalar hisoblanadi.

Angliya davlatida ballada janri ancha oldinroq paydo bo'la boshlagan. XIX asrda ballada haqida turli asoslangan taxminiy fikrlar mavjud edi. Bu fikrlarga ko'ra, ballada janri Angliyaga Norman bosqinchilari XI asrda Angliyani bosib olish uchun kelganda, Normand adabiyotidan ballada janri ham kirib kelgan. Bu janrga sirli va g'amgin ruh berilgan. Ballada janrida tasvirlangan qonli urushlar va qo'rqinchli to'fonlar, Buyuk Britaniya, ayniqsa, Shotlandiya xalqlarining o'sha davrdagi kayfiyatlarini anglatgan. Bardalar o'zlarining balladalarida turli janglar va bayramlar haqida kuylashgan. Keyinroq ballada janrida ijod qilayotgan shoirlar Shotland milliy qahramonlari Duglas, Persi va boshqalarning jasoratlarini bitishgan. Shotlandiya va Angliya davlatlarida xalq qahramoni bo'lmish Robin Gut, go'zal Rozamundo hamda qiroli Eduard IV haqidagilari eng mashhur balladalaridan hisoblanadi” [2].

“Ballada janri lug'aviy ma'nosiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, Provansal tilida balada (raqsbop qo'shiq), balar (raqsga tushish), Italyan tilida ballata – lirik raqqli qo'shiq, ballare – raqsga tushmoq, fransuz tilida ballada yoki ballette – raqqli qo'shiq so'zidan olingan. Bu so'zlarning barchasi qadimgi lotin tilidagi ballare – o'yinga tushmoq so'zidan tarqalgan bo'lib, bu so'zlarning o'zi esa Grek tilidagi ballefmis (raqs) so'ziga borib taqaladi. Skandinaviya xalqlarida balladani raqs orqali ijro etish XX asrlarga qadar saqlanib qolgan” [3].

**Tadqiqot metodologiyasi.** O'zbek adabiyotiga bu janr jahon adabiyotidan kirib kelgan bo'lib, XX va XXI asrlarda ijod qilgan bir necha shoirlar ijodlarida balladalarini ko'rishimiz mumkin xolos. Balladaning oddiy she'rdan farqli tomoni ham shundadir. XX asrda H.Olimjon, Mirtemir, M.Shayxzoda, Shuhrat kabi bir necha shoirlar ijodida ballada janri namunalari kuzatishimiz mumkin. XXI asrga kelib, A.Oripov, X.Hudoyberdiyeva va U.Azimlarning ijodida turli mavzu hamda mazmundagi balladalarini uchratamiz. Asrlar davomida bu janrning mavzulari, g'oyalari va qahramonlari ham o'zgarib kelmoqda. Mustaqillik davri balladalar shu jihatlari bilan boshqa davr balladalaridan ajralib turadi. Bu balladalar orasida shoir U.Azimning balladalar alohida tahlilga munosibdir.

Usmon Azim ijodida turli mazmun-mohiyatga ega bo'lgan balladalarini uchratishimiz mumkin. Bu balladalar har birida shoirming lirik “Men”ining guvohi bo'lamiz. Har bir balladada shoir o'zining ichki kechinmalarini, iztiroblarini voqealarning zamirida bayon etib bergan. Lirikaning bosh maqsadi – bu insonning ichki his-tuyg'ularini bayon etishdan iboratdir. Umuman olganda, barcha lirik

janrlarning qahramoni bu shoirlarning o'zi bo'ladi. Lirikani lirik kechinma va lirik "men"siz tasavvur etib bo'lmaydi. Iztiroblarga to'lgan, g'amgin qahramonlarni yaratish ham mushkul. Lirik "Men" lirik qahramonning his-tuyg'ularini bayon etish uchun xizmat qiladi. Aynan lirik "Men" orqali shoir syujetni, konfliktlarni va lirik qahramonni yaratadi hamda tuyg'ularini bayon etadi.

Shunday balladalaridan biri "Dasht haqida ballada"dir. Shoir balladada o'z ichki kechinmalarini bayon qiladi. Balladaning qahramoni orqali shoirming hayotiy iztiroblarini anglash mumkin.

**Tahlil va natijalar.** Balladada bosh qahramon – bu Dasht bo'lib, u ramziy obraz qilib olingan. Umuman olib qaraganda, Usmon Azimning balladalarida qahramonlar ramziy obrazlar vositasida yaratilgan. Balladalarda buyumlar, tuyg'ular tilga kiradi. Aslida ham ramziy buyumlar va tuyg'ular tirik bir obrazning bir bo'lagi hisoblanadi. Bir necha daqiqa davom etadigan syujetda qahramonning bir umrlik iztiroblarini ko'rish mumkin. Ballada syujetiga e'tibor qarataadigan bo'lsak, qishloqdan shaharga ko'chib kelgan, ammo qalbi qishloqda qolgan qahramon hayoti hikoya qilingan. "Dasht" – bu aslida qahramonning qalbidir. Shoir dasht obrazi orqali o'z qalbiga murojaat qilmoqda. Inson o'z yurtidan uzoqlarda yashay olmaydi. Begona shaharda qahramon o'zini turmushning ijtimoiy-maishiy omillar bilan chalg'itadi, ammo qalbi hamisha o'z yurtini qo'msab yashayveradi.

"Tog'lar kichraydi, pasaydi osmon,  
Yashab bo'lmaydi-ku, axir engashib  
Jo'nadim balandroq osmonlar tomon  
Ortimdan Boysunning dashti ergashdi.  
Meni ishonmadi ufqlariga u  
Dosh berib tezlikning shamollariga  
Ortimdan yugurdi, yugurdi yoxu  
Qoqilib temiryo'l shpallariga".

Ballada janrida peyzaj tasviri alohida o'rin tutadi. Tabiat tasviri orqali qahramonning ruhiy holatini va iztiroblarini anglash mumkin. Usmon Azim balladalarida peyzajning eng go'zal tasvirlarini ko'ramiz. Yuqoridagi misralarda ham tabiatning eng nozik va go'zal tasviri berilgan. Shoir o'z yurti Boysunning go'zal ufqlari va shamollarini kuylagan. Lirikani poetik va biografik mensiz tasavvur etib bo'lmaydi. Har qanday biografik va poetik men lirik matnda o'zgaradi. Syujet va peyzaj tasvirlari bilan unga sayqal beriladi. Lirik "Men" bu san'atning, lirikaning tili hisoblanadi. Chunki shoirlar o'z qalb kechinmalarini she'rga jo qiladi. Ularning asarlarining qahramonlari ham ko'pincha shoirlarning o'zlaridir. Shuning uchun lirik "Men" lirik qahramonning ruhi va uning ong ortidagi tuyg'ularini ifoda etadi.

Poetik "men" va biografik "men" Lirikaning odatiy, o'zaro ajralmas unsuri sanaladi. Ammo har qanday biografik ma'lumot poetik matn ichida o'z mazmun-mohiyatini o'zgartirib, ijtimoiy-madaniy yoki ma'naviy-estetik mohiyat kasb etishi mumkin. Lirik asar aksar holatlarda har qanday insonga tushunarli, uning dardiga, zavqiga mos bo'ladi. Ammo jahon adabiyotida "san'at san'at uchun" qoidasiga muvofiq ravishda "sof san'at", "sof lirika" tushunchalari ham vujudga kelgan. "Sof lirika" xususiyati shuki, bunda "men" sof san'at tili, ramzlar tili orqali yuksak badiiy-estetik maqomda ifoda etiladi. Shoir o'zi uchun yozadi; o'quvchini ko'zlamaydi; individual ruhiy holat misralarga ko'chadi. Adabiyotshunoslar lirikani mavzusiga qarab shartli ravishda ishq-muhabbat, falsafiy, peyzaj, publitsistik va boshqalarga ajratadilar.

Vagonga chiqarib, qay bir bekatda  
Koyidim – bu ishdan zarra yo'q ma'ni!  
U ruhsiz cho'zildi tepa qavatga  
Biletsiz va pulsiz yo'lovchi kabi.  
Muhabbat lovullab kirdi yurakka,

Ilk bora alamli so'zlar tingladim.

Yuzlarimni bosib xoru xashakka

Dashtimni quchoqlab, tunlar yig'ladim.

Balladaning boshqa janrlardan farqi shundaki, janrda bir vaqtning o'zida peyzaj tasviri, syujetning shiddat bilan davom etishi, dialoglar va qahramonlar yoki tuyg'ular o'rtasidagi o'zaro konfliktlarning dramatik tasvirlaridir. Peyzaj tasvirlaridan so'ng, shoir o'z iztiroblarini voqelik, ya'ni she'riy syujet orqali tasvirlagan. Balladada eng muhim komponent ham liro-epik syujetning tasviridir. Ushbu liro-epik syujet orqali sog'inch, afsus, nadomad kabi his-tuyg'ularni anglash mumkin.

Yalinaman unga

– Bor, Boysunga bor!

Shaharga yarashmas sahroyi so'xtang.

Borsang – shamol tayyor, yomg'ir ham tayyor,

Tog'lar orasida yashaysan ko'rkam.

Pandu nasihatlar berib tolaman,

Aldayman:

– Yur, ketdik ifor terгани...

Har bahor dovdirab Boysun boraman,

Boysunga dashtini tashlab kelgani...

Qaytaman. Ammo dasht sezib ulgurur...

Dosh berib tezlikning shamollariga,

Ortimdan halloslab, shoshib yugurur,

Qoqilib temir yo'l shpallariga.

Yuqoridagi misralarda dramatik ruhning guvohi bo'lamiz.

O'zaro dialoglarning keltirilishi orqali qahramonning hayoti yanada mungli tus olgan. O'z qalbidan olislarda yashash qahramon uchun naqadar mushkul va g'amlidir. Dasht qiyofasida yurtidan olisda yashashga majbur bo'layotgan inson qalbining qiyofasidir. Ballada qahramonlar insonlar bo'lishi shart emas, bugungi kun balladalarida insonlarning qalbi va his-tuyg'ulari ham qahramon bo'la oladi. Janrning eng muhim talabi esa epik syujetning lirik ifoda elementlari yordamida tasvirlanishidir.

Uyimga gezarib kirib kelaman,

Meni asra endi, inglizcha qulf!

Shundoq ostonamda dasht qolar garang,

Eshikka termulib "UF" tortdi... uf!

Mana, tong chog'ida ishga ketyapman.

Yurak, azobdasan – qanday dard ezar?

Junjukib, egasiz it kabi g'amgin

Vokzal maydonida yolg'iz dasht kezar..."[1]

So'nggi misralar orqali shoir o'z qalbiga murojaat qiladi.

Qalbining g'amlari va ijtimoiy muammolardan ozod bo'lishini istaydi. Uning uchun qalb ozodligi Boysun tog'laridadir. Ammo qalb o'z qahramonidan ayro yasholmaydi.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib aytganda, asrlar davomida davrlar, insonlar, fan va texnologiyalar o'zgarгани kabi adabiy turning ba'zi bir janrlari ham o'zgarishga uchraydi. Ballada janri ham asrlar davomida turli ko'rinishlarda va turli mavzularda yashab kelinmoqda. Ba'zi davrlarda tarixiy jarayonni madh etsa, qaysidir davrga kelib xalq qahramonlarinig jasoratlarini kuylagan. Eng muhimi, musiqa san'atidan adabiyotga kirib kelgan bu janr uzoq tarixiy bosqichlarga ega bo'lib, janriy o'zgarishlarga ham uchragan. Shunga qaramay janrning eng muhim talablari bugungi kunga qadar saqlanib kelmoqda.

Usmon Azim balladalarida o'zbek adabiyotida o'ziga xos o'rin tutadi. Ular o'zining tasviriy ifodalari, ta'sirchan syujeti va noodatiy qahramonlari bilan boshqa shoirlarning balladalaridan keskin farq qiladi. ShHoirning balladalarida inson ong orti kechinmalari yetakchi vazifani bajaradi.

#### ADABIYOTLAR:

1. Азим У. Сайланма. – Тошкент, 1996. – Б. 57.
2. Biblioteka.ru
3. Иброхимов М. Ўзбек балладаси. – Тошкент, 1975. – Б. 89.
4. Ўзбек мумтоз адабиёти. – Тошкент: ФАН, 2001. – 34 б.



**Maloxat DADAMIRZAYEVA,**  
O'zDJTU dotsenti  
E-mail: [sherxon19800101@gmail.com](mailto:sherxon19800101@gmail.com)

O'zDJTU professori v.b, f.f.d A.Muminova taqrizi asosida

### FRANSUZCHA QIYOSIY FRAZEOLGIK BIRLIKLAR VA ULARNI O'ZBEK TILIGA TARJIMA QILISH MASALALARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada fransuzcha qiyosiy frazeologik birliklar va ularni o'zbek tiliga tarjima qilish masalalari ko'rib chiqilgan va qiyosiy tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada frazeologik birliklar ijtimoiy-madaniy ahamiyati va ushbu birliklarni o'rganilishi tarixi haqida ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Yemotsional-yekspressiv ma'no, frazeologik yekvivalent, grammatik vositalar, stilistik xususiyatlar, onomastik komponentli frazeologizmlar, antroponim komponentlar.

### FRENCH COMPARATIVE PHRASEOLOGICAL UNITS AND PROBLEMS OF THEIR TRANSLATION INTO UZBEK

Annotation

In this article, French comparative phraseological units and the issues of their translation into Uzbek language were considered and compared. The article also provides information on the socio-cultural significance of phraseological units and the history of the study of these units.

**Key words:** Emotional-expressive meaning, Phraseological equivalent, grammatical means, stylistic features, phraseologisms with onomastic component, anthroponymic components.

### ФРАНЦУЗСКИЕ СОПОСТАВИТЕЛЬНЫЕ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИЕ ЕДИНИЦЫ И ПРОБЛЕМЫ ИХ ПЕРЕВОДА НА УЗБЕКСКИЙ ЯЗЫК

Аннотация

В данной статье были рассмотрены и сопоставлены французские сопоставительные фразеологизмы и вопросы их перевода на узбекский язык. Также в статье приведены сведения о социокультурной значимости фразеологизмов и истории изучения этих единиц.

**Ключевые слова:** Эмоционально-выразительное значение, фразеологический эквивалент, грамматические средства, стилистические особенности, фразеологизмы с ономастическим компонентом, антропонимические компоненты.

**Kirish.** Inson – jamiyat va shaxs hayotida o'ziga xos o'rnini yegallab, jamiyatning har tomonlama rivojlanishida va har bir shaxsning yuksak mavqega yerlashida asosiy omillardan biri tildir. Bugungi globallashuv, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va internet asri bo'lgan davrda tobora kuchayib borayotgan raqobat asri bo'lgan hozirgi sharoitda demokratik taraqqiyot, modernizatsiya va yangilanish borasida belgilangan maqsadlarga yerlashda yeng muhim qadriyat va hal qiluvchi kuch bo'lgan bilim va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalashda til ta'limining o'ziga xos o'rnini bor. Ma'lumki, ta'lim-tarbiya jarayonida ona tili o'qitishni zamonaviy uslublarda olib borish, til birliklarining mohiyatini anglash zamon talabidir. Tilning lug'at tarkibiga faqat so'zlar yemas, balki turg'un bo'lib qolgan so'z birikmalari ham kiradi. Tarkibi ancha murakkab bo'lgan turg'un birikmalar frazeologizmlar yoki frazeologik birikmalar (iboralar) deb ataladi.

**Adabiyotlar tahlili.** Frazeologizmlarning tarkibida nechta so'z ishtirok yetishiga qaramay, ular yagona umumiy ma'no bilan birlashadi va yemotsional-yekspressiv ma'noni ifodalaydilar, shaklan o'zlariga o'xshash sintaktik tuzilmalardan farqli ravishda, nutkda suzlarni yerkin tanlash, almashtirish yo'li bilan yuzaga kelmaydi, balki ma'no va muayyan leksikgrammatik tarkibli, avvaldan tayyor material sifatida qo'llanadi, frazeologik yekvivalent tanlashda tarjimon albatta kontekstda anglatgan mazmunga ye'tibor berishi lozim, aks holda, tanlangan yekvivalent matnda ifodalangan mazmunga to'g'ri kelmay, fikriy g'alizliklarni keltirib chiqaradi. grammatik vositalar tarjima jarayonida bir tilga xos bo'lganda albatta ikkinchi tilda grammatik vositalar orqali berish shart yemas. Bunday hollarda tarjimada yo vaziyat yo kontekstga alohida ye'tibor qaratish lozim[1]. Asosiy, tarjimada so'zlar kabi frazeologizmlarning anglatgan ma'nosini, yemotsional – yekspressiv va stilistik xususiyatlarini saqlagan holda shakliy xususiyatlarini ham aks yettirish zarur har bir til o'z doirasidagi so'zlarni o'rnida qo'llash, ma'no kengayishi usullarini o'rganish, o'ziga xos bo'lgan xususiyatlarini dunyoning tildagi ko'rinishi orqali aks yettirishda muhim rol o'ynaydi.

Turli tillar frazeologiyasini qiyosiy aspektida o'rganish masalasi keyingi yillarda ko'plab tadqiqotchilar diqqat markazida bo'lib kelmoqda. G.S. Qurbonova "Fransuz va o'zbek tillarida onomastik komponentli frazeologizmlarning milliy-lisoniy

xususiyatlari" mavzusidagi dissertatsiya ishida ikki tildagi onomastik komponentli frazeologizmlarning milliy-madaniy xususiyatlarini aniqlash bilan birga ularning o'xshash hamda farqli jihatlarini tadqiq qilgan. Buning uchun muallif chog'ishtirilayotgan tillarda antroponim komponentli frazeologik birliklarning kelib chiqish manbalarini aniqlagan, frazeologik birliklarning motivatsiyasini belgilash orqali frazeologizmlar tarkibidagi dominant antroponim komponentlarning milliy-madaniy chog'ishtirma tahlilini o'tkazgan, toponim komponentli frazeologizmlarni lisoniy-madaniy belgilariga ko'ra tasniflagan hamda ularning konnotativlik darajasini aniqlashga yerishgan[2]. Turli tillar frazeologiyasini qiyosiy o'rganish tarixi o'tgan asrning 60-yillaridan boshlangan. Avvallari tadqiqotlar ko'proq frazeologik birliklarni bir tildan boshqa tilga tarjima qilish muammolarini o'rganishga bag'ishlangan bo'lsa, keyinchalik esa tadqiqotlar ko'lamini kengayib borgan. Hozirgi kunda o'zbek tilshunosligida ham lingvistik tadqiqotlar ko'lamini ortib borishi bilan turli tillar frazeologiyasini qiyosiy o'rganish masalasiga qiziqish tobora ortib borishi sir emas. O'zbek tilshunosligida 2000-yillarga qadar frazeologizmlarning semantik, grammatik va uslubiy jihatdan tadqiq qilishga qaratilgan ishlar salmog'i ancha keng bo'lgan. Hozirgi bosqichda yesa tadqiqotlarda asosiy ye'tibor o'zbek frazeologizmlarini chet tillardagi frazeologizmlar bilan chog'ishtirma asosda o'rganishga qaratilmoqda.

Fransuz va o'zbek tillari frazeologiyasini qiyosiy o'rganishga A. A. Nasirov ham katta hissa qo'shgan. U o'zining doktorlik dissertatsiyasida fransuz, o'zbek va rus tillaridagi proverbal frazeologizmlarning semantik-stilistik va milliy-madaniy xususiyatlarini chog'ishtirib o'rganagan. Ushbu tadqiqotda proverbal frazeologizmlarning kelib chiqish tarixi, manbalari, proverbal frazeologizmlarga doir terminlar apparati ishlab chiqilgan, qiyoslanayotgan tillarda frazeo-semantik guruh tarkibiga kiruvchi proverbal frazeologizmlarning mazmunini ochib berish va ularni tegishli tartibda frazeo-semantik maydonlarga ajratish amalga oshirilgan. Bundan tashqari, muallif proverbal frazeologizmlarning stilistik xususiyatlarini yoritish bilan birga ularning okkazonal transformatsiyalanish usullarini aniqlagan. Tadqiqotda tanlab olingan materialni semantik maydon doirasida tadqiq qilish metodidan foydalanilgan bo'lib, ushbu metod o'rganilayotgan frazeologik birliklar o'rtasida mavjud bo'lgan sistem aloqalarni ochib berishga

xizmat qilgan. Shundan kelib chiqib, muallif proverbial frazeologizmlarga "nutq jarayonida tayyor holda namoyon bo'ladigan, to'liq yoki qisman ko'chma ma'noda ishlatiladigan, strukturasi gapga teng, semantik yaxlit, kontekst tarkibida mustaqil ma'no anglatadigan, kinoya-qochirimli, nasihatimiz fikrni ifodalovchi maqol, matal, hikmatli so'z, aforizm, naql, o'git, yumuq iboralardan tarkib topgan turg'un birikmalar"ni kiritadi[3].

**Natija va muhokama.** Tarjima nazariyasi va amaliyotining yeng murakkab masalalaridan biri "fraziologik birliklar" hisoblanadi. Fraziologizmlar murakkabligi quyidagilarga bog'liq:

bir xil moddiy ma'noga yega bo'lgan so'zlar turli tillarda turlicha ma'no va stilistik funktsiya (vazifa) larni bajaradi, bunday so'zlar turli tillarda turli so'zlar bilan birikib keladi.

Rus tilshunosi V.V.Vinogradovning umumiy tilshunoslik miqyosida yetirotf yetilgan tasnifiga ko'ra frazeologizmlar uchta guruxda[4]:

1. Frazeologik chatishmalar (frazeologicheskiye srasheniye): bunday birikmalarning ko'chma ma'nosi ularning tarkibidagi so'zlarga bog'liq bo'lmaydi. Birikmalar (frazeologicheskiye yedinstva): bunday birikmalar ham ko'chma ma'noga yega, ammo ko'chma ma'no frazeologizmlar tarkibidagi so'zlarga bog'liq.

2. Frazeologik birikuvlar (frazeologicheskiye ustoychiviye sochetaniya): bularda tarkibidagi so'zlarning ma'lum bir qismigina ko'chma ma'noga ega, birikmaning ma'nosi tarkibidagi so'zlarga bog'liq. Bular asosan ot bilan fe'ning birikuvi bo'lib, fe'l ko'chma ma'noda, ot to'g'ri ma'noda keladi. birliklarni ingliz tilida berish juda murakkab vazifa. "O'zining semantik boyligi obrazlilik va yorqinligi kuchi tufayli frazeologiya juda muhim rol o'ynaydi" (V.B.O.) U nutqqa ifodalilik orginallik beradi. Ayniqsa frazeologizmlar og'zaki nutqqa, badiiy adabiyotda va siyosiy adabiyotlarda keng qo'llaniladi. Frazeologizmlar tarjimasida tarjimon uning ma'nosini berishi, uning obrazlilikni ifodalash lozim, fransuz tilida mos ifodani topishi va shu bilan birga frazeologizmlarning stilistik vazifasini ham unutmashligi shart. Fransuz tilida mos obraz mavjud bo'lmagan hollarda tarjimon 'yaqinroq moslikni' topishga urinadi.

Frazeologik birliklar ijtimoiy-madaniy ahamiyatga ega bo'lib, jamiyatning umumiy tasviri, yashash tarzi, urf-odatlarini o'zida namoyon etadigan til vositasi hisoblanadi. Tilshunoslikda frazeologiya tilning beqiyos boyligi, cheksiz imkoniyatlari hamda uning o'ziga xos tarixiy-taraqqiyot bosqichlarini aks ettiruvchi leksik qatlam sifatida namoyon bo'ladi. U lug'at sathidagi eng erkin qo'llaniladigan sath bo'lib, asosi eng qadimgi xalq og'zaki ijodiga borib taqaladi. Frazeologik birliklar o'z semantikasida xalqning uzoq davom etuvchi madaniy rivojlanish jarayonlarini aks ettirib, o'sha xalqning bilimlari hamda til va nutq andozalarini qayd etib boradi va avlodlardan avlodlarga yetkazib beradi. F. I. Buslaev frazeologizmlarni o'ziga xos mikro olam deb ataydi[3]. Ular o'zlarida ajdodlar tomonidan keyingi avlodlarga qisqa va ixcham iboralar shaklida qoldirilgan axloqiy qoidalar va sog'lom fikrlarni aks ettiradi. Frazeologizmlar har qanday milliy tilning qalbi hisoblanib, ularda millatning ruhi va o'zligi takrorlanmas darajada ifodalanadi. Shu sababli deyarli barcha frazeologizmlarda milliy madaniyat izi saqlanib qolgan bo'ladi.

Inson qiyofasi va xarakterini ifodalash har bir tilda ko'rilganda, shu til vakillarining dunyoqarashi, mentalitetidan kelib chiqqan holda beriladi. Shuningdek, tilning qanchalik keng maydonga egaligidan darak beradi. Ma'lumki, iboralar til egasi bo'lgan xalqning ma'naviy madaniyati, urf-odati, kasbi, yashash sharoiti, intilishi, voqelikka munosabati bilan uzviy bog'liqdir. Iboralar obrazlilik va ekspressivlikni vujudga keltiruvchi muhim vositalar bo'lib, ular badiiy, siyosiy va publitsistik matnlarning ifodaviy ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiladi[4]. Quyida fransuzcha comparative iboralarning o'zbek tiliga tarjimasini qayd etilgan:

Répéter qqch comme un perroquet - to'tiqushdek takrorlamoq;

Cyest simple comme bonjour - bu juda oson ( fr. bu xuddi salomdek oson);

Cyest comme l'œuf de Columbe - bu Kolumbnig tuxumidek (amalga oshirishga oson lekin uning topilishi ziyraklik talab qiladigan yechimga nisbatan ishlatiladi).

Il pleut comme vache qui pisse - chelaklab yomg'ir quyayapti;

Être gueux comme un rat d'église - o'ta qashshoq bo'lmoq (fr. cherkov kalamushidek tilanchi bo'lmoq);

Être fauché comme les blés - sariq chaqasi bo'lmaslik ( fr.bug'doy kabi o'rilgan bo'lmoq);

Être riche comme Crésus - Kresusdek boy bo'lmoq ( Kresus - Lideya qiroli mil.avv. VI asr, o'zining boyligi bilan tanilgan);

Turli tizimdagi barcha tillarga xos hodisa sifatida keng tarzda tadqiq etilgan "takroriy so'z" yoki "takroriy shakl" tushunchalari tilshunoslikda "reduplikatsiya" deb nomlanib, u lotincha reduplicatio - ikkilanish, qo'shaloqlanish ma'nosini anglatgan holda so'zdagi dastlabki bo'g'inni yoki o'zakni, butun so'zni takror qo'llash bilan tilda takroriy so'z yoki grammatik shakl hosil qilish usulidan iborat fonomorfologik hodisa bo'lib hisoblanadi[5]. Mazkur til hodisasining turli xil shakllari mavjud bo'lib, ular til birliklarining, xususatan, fonema, morfema va so'z kabilarning so'z birikmasi, gap, abzats va matn tarkibida takror tarzda qo'llanilishi orqali namoyon bo'ladi hamda u takrorlanish, davomiylik va kuchaytirish ma'nosini ifodalashga xizmat qiladi. Ushbu til hodisasi aynan frazeologik birliklar misolida tadqiq etilsa, ularning frazeologik ibora yasash jarayonida eng sarmahsul vosita ekanligiga guvoh bo'lish mumkin. Binobarin, frazeologik birliklarda takroriy elementlarning mavjudligi ularga xos lingvomadaniy, lingvodidaktik, shuningdek, leksik-semantik va stilistik xususiyatlarni tadqiq etishga yordam beruvchi asosiy fenomenlardan biri sanaladi [6]. Shunga ko'ra N.M.Shteynberg, o'zining "Reduplikatsiya v sovremennom fransuzskom yazike" nomli monografiyasida mazkur hodisaning fransuz tilidagi umumiy xususiyatlarni xususida kengroq ma'lumot berib o'tgan. Shu bilan birga, ayrim tadqiqotchilar frazeologiyada takroriy elementlarni modellashtirish masalalariga ham alohida e'tibor qaratgan.

Tildagi takrorlanish hodisasining bu kabi ko'rinishlari yuqoridagi kabi frazeologik birliklarga nisbatan kuzatilganda, ularga xos xilma-xil takroriy elementlar mavjudligi va ularda o'ziga xos shakliy xususiyatlar aks etishi ko'zga tashlanadi. Masalan, fransuzcha frazeologik birliklar tarkibidagi komponentlarning takrorlanish holati mustaqil ma'noli so'zlar misolida juda keng tarqalgandir. Bunda asosan, ot, fe'l, sifat, son kabi so'z turkumlari shular jumlasidandir. Masalan, ot so'z turkumiga xos so'zlarning epanadiploza, fe'l so'z turkumiga xos so'zlarning esa poliplota shaklida takroriy tarzda kelishi fransuz frazeologiyasida juda keng tarqalgan.

Shuningdek, frazeologik birliklar tarkibida sifat va ravish so'z turkumiga xos so'zlarning takroriy tarzda qo'llanilishi prosonomaziya shaklida ko'p uchraydi. Masalan:

A bon salut, bon accueil. – Salomiga yarasha aligi.

A rude âne rude anier. – Ko'p gap eshakka yuk.

Bon champ sémé, bon blé rapporté – Nimani eksang shuni o'rasan.

**Xulosa.** Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarni xulosa qilib shuni ta'kidlash joizki, tilning lug'at boyligi leksika va frazeologiya (frazeologizmlar takibi) dan iboratdir. So'z ham, frazeologizm ham lug'aviy birlik hisoblanadi. Frazeologizmlar so'z birikmasi yoki gaplar kabi nutq jarayonida hosil bo'lmaydi, balki ular, xuddi so'zlar kabi, tilda tayyor holda bo'ladi. Demak, frazeologizmlar nutq hodisasi emas, balki til hodisasi hisoblanadi: aravani quruq olib qochmoq, kavushini to'g'rilab qo'yimoq, sichqonning ini ming tanga, tomndan tarasha tushganday, nog'orasiga o'ynamoq, kapalagiy uchib ketdi kabilar tilda tayyor holdagi lug'aviy birliklardir. Xullas, har bir tilning frazeologik qatlami o'sha til egasi bo'lmish xalqning urf-odatlarini-yu, turmushini, dunyoqarashini aks ettiradi. Bundan tashqari, obrazli, mazmundor, ta'sirchan va bo'yoqdor iboralar nutqimiz ko'rki, tilimizning boyligidir. Frazeologizmlar leksik birliklar kabi iste'mol doirasi nuqtai nazaridan ham tasnif qilinadi, ya'ni umumiste'moldagi iboralar va qo'llanilishi chegaralangan iboralar farqlanadi. Umumiste'moldagi iboralarga shunga qaramay, holdan toymoq, ro'yobga chiqmoq kabilar kirs, qo'llanilishi keng bo'lmagan iboralar ilmiyligi (imkoniyatlar doirasi, nazar tashlamoq, og'riqli nuqtalar), badiiyligi (sabr kosasi to'lmoq, ko'ngli ochiq), dialektalligi (halak bo'lmoq – ovora bo'lmoq), eskirganligi (alifni kaltak demoq, dum xurjunda) bilan xarakterlanadi. Bunday xususiyatlar har bir tildagi frazeologik birliklar uchun xosdir. Bugungi kunda tilshunosligimiz oldida frazeologik iboralardagi darajalanish, giponimiya, iyerarxonimiya kabi semantik munosabatlarni o'rganish va tadqiq etish asosiy vazifalardan biri bo'lib qolmoq.

#### ADABIYOTLAR

1. Назарян А. Г. Фраzeология современного французского языка, Москва " Высшая школа " 1987.
2. Qurbonova G.S. Fransuz va o'zbek tillarida onomastik komponentli frazeologizmlarning milliy-lisoniy xususiyatlari (National-linguistic features of onomastic component phraseologisms in French and Uzbek), Extended abstract of candidate's thesis, Tashkent, 2019, 11 p

3. Buslaev F.I. Russkie poslovisy i pogovorki, sobrannye i ob'yasnennye (Russian proverbs and sayings collected and explained), Moscow: Russkiy yazyk, 1954, 176 p.
4. Виноградов В.В. Об основных типах фразеологических единиц в русском языке // Виноградов В.В. Лексикология и лексикография: Избр. Тр. - М.: Наука, 1986.
5. Бардоши В., Эттингер Ш., Штельтинг С., Бутина Е. В. Фразеологизмы французского языка: Словарь-практикум. Екатеринбург: Уральское изд-во, 2002
6. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. –Toshkent: “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) kutubxonasi.



УДК:811.512

Лу ДОНГЛИАНГ,

Докторант Национального университета Узбекистана  
E-mail:18346341385@163.com

Рецензент: С.Камилова доктор филологических наук, профессор НУУз

#### ON IVAN BUNIN'S TRAGIC WORLDVIEW: A STUDY BASED ON THE LIFE OF ARSENEV

Annotation

The philosophical and aesthetic ideas expressed in "The Life of Arseniev" are consistent with the tragic worldview of Friedrich Nietzsche. The images of weapon and color in the book are very expressive. The image of weapon can be characterized as the embodiment of the Dionysian spirit. It symbolizes the world will. The images of color can be considered as a specific embodiment of the Apollonian spirit. It symbolizes the world of phenomena. I. Bunin affirmed the will with the image of weapon, and affirmed the phenomena with color. Through the interweaving of weapons and colors, I. Bunin achieved a symbolic interpretation of the world and expressed his affirmation and praise of the will to live.

**Key words:** Tragic worldview, Dionysian spirit, Apollonian spirit, weapon, color.

#### О «ТРАГИЧЕСКОМ МИРОВОЗЗРЕНИИ» ИВАНА БУНИНА НА ПРИМЕРЕ «ЖИЗНИ АРСЕНЬЕВА»

Аннотация

Философско-эстетические мысли, выраженные в «Жизни Арсеньева», соответствуют трагическому мировоззрению Фридриха Ницше. Образы холодного оружия и красок в книге весьма выразительны. Образ оружия можно охарактеризовать как воплощение дионисического начала. Он символизирует волю мира. Краски можно рассматривать как специфическое воплощение аполлонического начала. Они символизируют мир явлений. И. Бунин образом оружия утвердил волю, а красками утвердил явления. Через переплетение оружия и красок И. Бунин достиг символической интерпретации мира и выразил свое утверждение и восхваление воли к жизни.

**Ключевые слова:** Трагическое мировоззрение, дионисическое начало, аполлоническое начало, оружие, краски.

#### “ARSENEV HAYOTI” MISOLIDA IVAN BUNINNING “FOJALI DUNYOQARASHI” HAQIDA

Annotatsiya

“Arsenev hayoti”da ifodalangan falsafiy va estetik fikrlar Fridrix Nitshening fojiali dunyoqarashiga mos keladi. Kitobdagi pichoqli qurollar va bo‘yoqlar tasvirlari juda ifodali. Qurol tasvirini Dionis ibtidoxing timsoli sifatida ta’riflash mumkin. Bu dunyoning irodasini anglatadi. Bo‘yoqlarni Apollon ibtidoxining o‘ziga xos timsoli deb hisoblash mumkin. Ular hodisalar dunyosini ramziy tasvirlaydi. I. Bunin irodani qurollar tasviri bilan, hodisalarni esa bo‘yoqlar bilan tasvirlagan. Qurollar va ranglarning uyg‘unligi orqali I. Bunin dunyoning ramziy talqiniga erishdi va yashash irodasini tasdiqlash va ulug‘lashini bildirdi.

**Kalit so‘zlar:** Fojiali dunyoqarash, Dionischa ibtido, Apollon ibtidosi, qurollar, bo‘yoqlar.

**Введение.** В произведениях И. Бунина присутствует весьма явное эмоциональное состояние - печаль. Каковы характеристики и природа этой печали? В академических кругах существуют разные мнения по этому поводу, и почти все выводы расплывчаты. Однако это действительно важная отправная точка в понимании духовного мира И. Бунина. Писатель Бунин в «Жизни Арсеньева» раскрыл сущность воли к жизни - это вечное и изначальное страдание мира, которое является основной причиной бессмысленности мира и жизни. В то же время Бунин рассматривал страдание как необходимый процесс для эстетической радости. Так что печальная атмосфера, исходящая из произведений И. Бунина, по сути своей является рожденным блаженством в муках. И. Бунин ставил печаль как противоположность пессимизму и утверждал позитивность печали и страдания в жизни и мире. Это мироощущение соответствует трагическому мировоззрению Ф. Ницше. «Трагическое мировоззрение» И. Бунина проходит через все его творчество. Например, во «Снах Чанга» Бунин отметил, «Было когда-то две правды на свете, постоянно сменявших друг друга: первая та, что жизнь несказанно прекрасна, а другая - что жизнь мыслима лишь для сумасшедших» [1]. В «Розе Иерихон» написал, что «нет в мире смерти, нет гибели тому, что было, чем жил когда-то! Нет разлук и потерь, доколе жива моя душа, моя Любовь, Память» [1]. В «Тумане» говорил, «Улыбаясь, я сидел потом на верхней палубе и чувствовал к кому-то детскую благодарность за все, что должны переживать мы. И ночь и туман, казалось мне, были только затем, чтобы я еще более любил и ценил утро. А утро было ласковое и солнечное, - ясное бирюзовое небо весны сияло над пароходом, и вода легко бежала и плескалась вдоль его бортов» [2]. Собрав воедино эти взгляды, можно легко ассоциироваться с трагическим мировоззрением Ницше. «Жизнь Арсеньева» представляет собой обобщение этих взглядов. Анализируя символические образы в произведении - оружия и краски, полезно понять сходство мироощущения

Бунина с трагическим мировоззрением Ницше, а также понять печальный стиль произведений Бунина.

**Обзор литературы.** До сих пор лишь немногие ученые установили связь между И. Буниным и Ф. Ницше. Главной причиной такого положения было утверждение Бунина о независимости от всех течений и направлений. Символизм, натурализм, Диониса, Аполлона и другие литературные теории и направления он называл «Вальпургиевой ночью» [3]. Это привело к тому, что многие ученые выразили неясное отношение к «модерности» у Бунина. Помимо этого, критическое исследование Бунина развивается в сложном и непостижимом направлении «некоего стихийного элемента» [4] или спонтанности творчества (Глеб Струве рассказал, «Бунин романов не писал и писать не мог») [5], хотя мы не можем отрицать сложность мысли Бунина. Возможно, именно из-за этой сложности он отрицал Диониса и утверждал Аполлона, говоря, «Эта религия страдающего бога - какая-то салонная схоластика» [6], «Конечно, терпеть не могу ничего противоестественного. Во мне только аполлоновское начало» [7]. Все это показывает, что Бунин не может игнорировать сходство трагического мировоззрения Ф. Ницше со своим собственным мироощущением в некоторых аспектах.

**Методология исследования.** В данной статье используются анализ текста, сравнительный анализ, междисциплинарные исследования и другие методы изучения мировоззрения И. Бунина. Путем анализа текста можно принять более глубокое понимание тем, образов и текстовых деталей бунинского шедевра «Жизнь Арсеньева». В то же время применить философское мышление к анализу «Рождения трагедии» для понимания истинного смысла трагического мировоззрения Ф. Ницше. Затем путем дедуктивного умозаключения сопоставляется и анализируется мироощущение И. Бунина с философскими мыслями Ф. Ницше для доказательства «трагического мировоззрения» Бунина.

**Анализ и результаты.** «Трагическое мировоззрение» - эстетический и философский подход, выдвинутый Фридрихом Ницше в его первой книге «Рождение трагедии». Данный подход составляет основу всей академической карьеры Ф. Ницше. Двойственное художественное стремление природы - аполлоническое и дионисическое начала составляют основу трагического мировоззрения. Они являются символами художественного инстинкта, где Ницше суммировал аполлонические и дионисические начала в своем анализе греческой культуры. Аполлон и Дионис коренятся в глубочайших инстинктах человека. Первый является побуждением индивида к самоутверждению с помощью иллюзии фантазии, а второй - побуждением индивида к отрицанию себя и возвращению к сути мира. Оба они предстали на эстетической сцене Ницше как два спасителя жизни. Ницше отмечал, что «Аполлоновское, дионисическое. - Есть два состояния, при которых само искусство являет себя в человеке подобно природной силе, распорядясь им, хочет он того или нет: во-первых, понуждением к видению, во-вторых, понуждением к оргазму» [8].

К. Паустовский говорил, «Я назвал «Жизнь Арсеньева» повестью <...> Это - слиток из многих земных горестей, очарований, размышлений и радостей <...> В этом слиянии поэтического восприятия мира с внешне прозаическим его выражением есть нечто строгое, подчас суровое» [9]. Несомненно, в этом романе Бунин показывает печаль и «трагическое мировоззрение» через поэтическое восприятие мира героя Алексея Арсеньева.

В целом процесс поэтического восприятия мира Алексеем можно разделить на два этапа. Во-первых, герой Алексей обнаружил, что суть мира - «вечно страждущее и исполненное противоречий» [10], посредством печали и страдания, пронизанными такими жизненными реалиями как смерть и любовь. Бунин в лице Алексея не отрицал волю к миру, в отличие от Шопенгауэра. Персонаж Алексей Арсеньев часто употребляет такие слова, как «мука сладчайшей любви» [11], «сладкая и горькая грусть» [11], чтобы подтвердить положительное значение страдания и печали в жизни и воле мира. Во-вторых, на основе понимания правды страдания мира он спасает жизнь на художественно-эстетическом уровне посредством воображения, памяти и других методов, утверждая жизнь как представление воли к миру. Эти два переплетающихся процесса миропонимания подобны двум художественным стремлениям трагического мировоззрения Ницше на философском уровне - аполлоническое и дионисическое. Мы можем объединить и проанализировать два символических образа - оружия и краски, созданных Буниным в романе, и двойственные художественные стремления, предложенные Ницше, чтобы изучить общую картину «трагического мировоззрения» Бунина.

Образ холодного оружия является представлением дионисического стремления. Он выражает «волю в ее всемогуществе, как бы позади *principii individuationis*» [10]. Он представляет собой художественную силу, которая разрушает границы индивидуального существования, уничтожает индивида и возвращается в дорогу «к Матерям бытия, к сокровеннейшей сердцевине вещей» [10].

Первый раз холодное оружие показано в романе в виде старинного охотничьего кинжала. Когда добрый и нежный мальчик Алексей прикасается к этой гладкой, холодной, острой стали, в его сердце возникнет сладострастный восторг. У него возникает желание возить нож по рукоятку. Однажды Алексей с истинным упоением зарезал молодого грача с перелетным крылом. Кинжал подобен зверскому порыву природы, который отпустили с цепи. Все это символизирует пробуждение дионисического начала природы в индивидуальности и дает индивиду погрузиться в безумное состояние. Вот почему Алексей сказал: «Я все-таки зарезал этого несчастливого грача, отчаянно борющегося со мной, в кровь изодравшего мне руки, и зарезал с страшным удовольствием!» [11].

Как только история с кинжалом закончилась, Бунин позволил Алексею впасть в другое первобытное слепое побуждение. Алексей много раз с энтузиазмом поднимался на чердак своего дома в поисках сабли. Страстная и бесцельная любовь Алексея к сабле на самом деле имеет ту же природу, что и восторг и удовольствие, возникшие в сердце юноши, когда был убит грач. Сабля, подобно кинжалу, «заставляет» Алексея увечься ею, становясь его бесцельной мечтой и страстью.

Поэтому сабля есть оформление дионисического стремления в инстинкте индивида. Когда Алексей обнаружил в мире это инстинктивное побуждение, он понял, что «ведь и все в мире было бесцельно, неизвестно зачем существовало, и я уже чувствовал это» [11].

Именно через создание образа холодного оружия, И. Бунин показал суть воли к жизни и ее представления - индивидуальной жизни, как вечно страждущее и исполненное противоречий, поэтому произведение показывает печальную, сентиментальную атмосферу. Однако это лишь первый смысл дионисического мировоззрения. В «Жизни Арсеньева» мы можем почувствовать неукротимое жадное стремление к жизни природы и ее радость. Это может быть описание смерти, любовной трагедии, воспоминания или создание персонажей, таких как Алексей и Баскаков. И.А. Бунин хотел показать чувства шемящей сладости. Так называемая сладость любви и смерти - это радость осознания страдания и печали. Эту радость Ницше называл «метафизической радостью о трагическом» [10] и «метафизическим утешением» [10]. Поэтическое восприятие того, как чувствуется сладость в конце муки жизни, выраженное в романе «Жизнь Арсеньева», по существу соответствует трагическому мировоззрению Ницше, т. е. «Говорить жизни «да» даже в самых непостижимых и суровых ее проблемах; воля к жизни, ликующая, когда она приносит в жертву собственной неисчерпаемости свои высшие типажки, - вот что назвал я дионисическим <...> не для того чтобы освободиться от ужаса и сострадания <...> но для того, чтобы, наперекор ужасу и состраданию, самому быть весной радостью становления, - той радостью, которая включает в себе также и радость уничтожения...» [12]. Отсюда видно, что образ холодного оружия содержит в себе смысл радости уничтожения.

Есть образ, который всегда присутствует в произведении «Жизнь Арсеньева», - это краски, которые создают с образом оружия определенное противоположное и сосуществующее отношение. И. Бунин говорил, «Ничто не дает такого наслаждения, как краски. Я привык смотреть. Художники научили меня этому искусству...» [9]. Для него краски и бытие тесно связаны. Писатель Бунин нашел способ скрыть существенную истину мировой воли - цветные образы. Краски подобны прекрасной фантазии мира, украшающей болезненную жизнь. Художественное значение красок в романе Бунина по существу то же, что и объяснение Ницше аполлонического стремления. Стремление жизни к видениям и иллюзиям составляет суть аполлонического начала. Функция аполлонического стремления состоит в том, чтобы сдерживать разрушительную силу дионисического стремления в жизни, вырывать «нас из всеобщности дионисического и внушает нам восторженные чувства к индивидам; к ним приковывает оно наше чувство сострадания, ими удовлетворяет оно жаждущее великих и возвышенных форм чувство красоты; оно проводит мимо нас картины жизни и возбуждает нас к вдумчивому восприятию сокрытого в них жизненного зерна» [10].

В «Жизни Арсеньева» И. Бунин выразил свое понимание образа красок с аполлоновским началом через мечту главного героя Алексея стать художником. Алексей говорил: «Я весь дрожал при одном взгляде на ящик с красками <...> - и навсегда проникся глубочайшим чувством истинно-божественного смысла и значения земных и небесных красок <...> Эту лиловую синеву, сквозящую в ветвях и листьях, я и умная вспомню...» [11]. И. Бунин связывает краски с божественным даром, а затем ясно указывает, что краски имеют символическое значение спасения жизни для Алексея.

Как уже говорилось выше, в романе «Жизнь Арсеньева» Алексей на какое-то время был одержим легендарной саблей, и она стала его слепой фантазией. В эпизоде поисков сабли отчетливо чувствуется, что Алексей не до конца вошел в состояние самоотверженности дионисического стремления. Он и Баскаков «обходили кирпичный бор и шею трубы и при свете, падавшем из слухового окна, без конца шатались взад и вперед, заглядывали под балки, под косолежавшие над ними пыльные стропила, рыли золу, то серую, то фиолетовую, в зависимости от места, от освещения...» [11]. Когда Алексей с восторгом вспоминал волнение и самоотверженность при поисках сабли, он действительно улавливал незаметное изменение цветового тона. Это показывает, что Алексей все же сохранил некоторую степень «трезвости» в этом процессе. Он перешел от дионисического стремления к другому эстетическому измерению - аполлоническому стремлению. Символика цвета - самая тонкая



особенность образов в романе. Когда краски повсюду, они становятся образами. Таким образом, для Бунина восторг от воспоминания о поисках сабли само по себе принадлежит дионисическому началу, превращающему воспоминание в лирическое стихотворение. Однако, когда краски входят в сюжет, они имеют четкие очертания. Краски изолируют дионисическое стремление в поисках сабли. Они подобны невидимому перу, которое изображает каждый образ, превращая весь сюжет воспоминания в изобразительное искусство. Ницше считает, что настоящие аполлонические художники - пластик и эпик, погружены в чистое созерцание образов. В то время они с радостной отрадой живут среди этих образов, и только среди них, и не устают любовно созерцать их в мельчайших их подробностях. Действие произведений пластического искусства показывает «возбуждения чувства наслаждения прекрасными формами» [10]. Цель Аполлона - спасение жизни и оправдание мира индивидуации. Таким образом, два эпизода о кинжале и сабле имеют большое значение для всего романа, знаменуя официальное противостояние оружия и красок. Дионисическое стремление, представленное ножом, прибегает к уничтожению индивида, и его цель - возвращение к природе и Первоединому. В то время как аполлоническое стремление, представленное красками, использует «умеренную» мудрость, чтобы не дать дионисическому стремлению причинить непоправимую боль и катастрофу жизни.

**Заключение.** «Жизнь Арсеньева» - важнейший роман Ивана Алексеевича Бунина. Все произведение пронизано нежной печалью и поэтической атмосферой с шемящей сладостью. Все эти чувства писатель символически показал через волю к миру. Из чего мы можем сделать вывод, что эстетические и

философские мысли Бунина соответствуют трагическому мировоззрению Ницше. В своей книге И. Бунин показывает печаль и трагическое мировоззрение посредством поэтического восприятия мира героя Алексея Арсеньева. Образы оружия и красок в романе символизируют соответственно мировую волю и явления. Художественными центрами образов оружия и красок являются соответственно дионисические и аполлонические художественные стремления, выдвинутые Ницше. Через образ оружия Бунин раскрыл ничтожество и страдание воли мира, а затем через художественную эстетику открыл изобилие и вечность творения жизни. Он осознал, что индивидуальные страдания и уничтожения лишь необходимая часть воли мира к жизнотворению. Мы должны это подтвердить. На этой основе печаль и страдание, пронизанные образом оружия, приобрели позитивность в эстетическом смысле. Утверждение воли к жизни через утверждение страдания и печали составляет основную идею творчества Бунина, а также источник силы для победы над пессимизмом. И. Бунин утверждает явления мира через краски, поскольку на философском уровне они спасают Алексея от непосредственного слияния с оружием, то есть не дают дионисическому стремлению нанести внутреннему миру главного героя непоправимое разрушение жизни. Цветовые образы гармонизируют с образом холодного оружия и умиряют его разрушительную силу. Путем подобного «примирения» цвета и оружия мы видим возвышение аполлонического и дионисического искусств в их братском союзе. Через переплетение оружия и красок И. А. Бунин достигает символической интерпретации мира и выражает свое утверждение и восхваление воли к жизни.

#### ЛИТЕРАТУРА

1. Бунин И. А. Полное собрание сочинений в 13 томах. Т. 4. М.: Воскресенье, 2006, с. 50-63.
2. Бунин И. А. Полное собрание сочинений в 13 томах. Т. 1. М.: Воскресенье, 2006, с. 452.
3. Бунин И. А. Полное собрание сочинений в 13 томах. Т. 9. М.: Воскресенье, 2006, с. 423.
4. Мальцев. Ю. Иван Бунин. М.: Посев, 1994, с. 95.
5. Струве Г. Русская литература в изгнании. М.: Русский путь, 1996, с. 171.
6. Бунин И. А. Полное собрание сочинений в 13 томах. Т. 14. М.: Воскресенье, 2006, с. 439.
7. Устами Буниных в 3 томах. Т. 2, под редакцией Милицы Грин. Франкфурт: Посев, 1981, с. 55-56.
8. Ницше Ф. Воля к власти. М.: Культурная революция, 2016, с. 506.
9. Паустовский К. Г. Зототая роза. // Паустовский Константин. Собрание сочинений в 9 томах. Т. 3. Повести. М.: Худож. лит., 1982, с. 334-336.
10. Ницше Ф. Рождение трагедии из духа музыки. // Фридрих Ницше. Сочинения в 2 томах. Т. 1. М.: Мысль, 1990, с. 69-143.
11. Бунин И. А. Полное собрание сочинений в 13 томах. Т. 5. М.: Воскресенье, 2006, с. 29-180.
12. Ницше Ф. Сумерки идолов. // Полное собрание сочинений в 13 томах. Т. 6. М.: Культурная революция, 2009, с. 104-105.



*Ulug'bek YOQUBOV,*  
Toshkent davlat yuridik universiteti o'qituvchisi  
E-mail: u.yoqubov@tsul.uz

TDYU professori v.b., f.f.n S.Akobirova taqrizi asosida

## YURIDIK INGLIZ TILI TERMINOLOGIYASI TARJIMASIDA YUZAGA KELADIGAN ASOSIY MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

Annotatsiya

Taniqli rus tilshunosi V.N. Komissarovga ko'ra, quyidagi tarjima usullari tarjima jarayonida qo'llaniladigan leksik transformatsiya turlari sifatida talqin etiladi: 1) transkripsiya va transliteratsiya usuli; 2) kalkalash usuli; 3) leksik-semantik almashinuv (konkretlashtirish, umumlashtirish, modulyatsiya) usuli[1].

Rus tilshunosi, tarjimon va leksikograf Y.I. Retsker leksik transformatsiyani quyidagi turlarga bo'ladi: konkretlashtirish, umumlashtirish, modulyatsiya (semantik rivojlantirish), antonimik tarjima, yaxlit transformatsiya, kompensatsiya [2].

E. S. Aznaurova tarjima usullarini tarjima transformatsiyalari deb ataydi va "Translation theory and practice" asarida tarjimaning

Quyidagi jadvalda yuqorida nomlari qayd etilgan tilshunos olimlar tomonidan bildirilgan fikrlar asosida leksik transformatsiya turlari klassifikatsiyasi shakllantirildi:

Leksik transformatsiyalar klassifikatsiyasi	Transkripsiya usuli
---	---------------------

V.N. Komissarov	Transliteratsiya usuli
	Kalkalash usuli
Y.I. Retsker	Konkretlashtirish
L.S. Barxudarov	
V.N. Komissarov	
Z. Proshina	
E. S. Aznaurova	
L.S. Barxudarov	Umumlashtirish
Y.I. Retsker	
V.N. Komissarov	
Z. Proshina	
E. S. Aznaurova	
Y.I. Retsker	Modulyatsiya
V.N. Komissarov	
E. S. Aznaurova	
Z. Proshina	
Y.I. Retsker	Kompensatsiya
Z. Proshina	
E. S. Aznaurova	

Jadvaldagi ma'lumotlarni umumlashtiradigan bo'lsak, transkripsiya va transliteratsiya usuli hamda kalkalash usuli faqat V.N. Komissarov tomonidan leksik transformatsiya turlari sifatida talqin etiladi. Konkretlashtirish va umumlashtirish esa tilshunos olimlar Y.I. Retsker, L.S. Barxudarov, V.N. Komissarov, Z. Proshina, E. S. Aznaurovalar tomonidan leksik transformatsiya turi deb ko'rsatiladi. Modulyatsiyani Y.I. Retsker, V.N. Komissarov, Z. Proshina, E. S. Aznaurovalar leksik transformatsiya turiga kiritadi. Kompensatsiya borasida faqat Y.I. Retsker, Z. Proshina, E. S. Aznaurovalar fikr bildirishgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Leksik transformatsiya turlari tasnifi haqida fikr yuritir ekanmiz, avvalo ularning xususiyatlari, tarjimada qanday vaziyatlarda qo'llanishlari bilan tanishib chiqsak.

Aslyatda:	СИВТНИК
Transliteratsiyada:	SPUTNIK

Matni haqiqiy transliteratsiya qilish jarayonida transliterator shartli ravishda belgilangan qoidalar asosida har bir aslyat tili harfi yoki boshqa grafologik birlikni tarjima tili harfi yoki boshqa birlik bilan almashtiradi [6].

Qudrat Musayevning ta'biriga ko'ra "Hech bir til frazeologik birliklari hayotdagi barcha jihatlarini qamrab olmasliklari tufayli bir tilda muayyan tushunchani ifoda etadigan muayyan frazeologizm o'zga tilda o'z ekvivalentiga yoki muqobil variantiga ega bo'lmashligi mumkin. Bunday holda ko'proq tarjima amaliyotining kalka, ya'ni so'zma-so'z tarjima usuliga murojaat qilinadi. Bu yo'l vositasida tarjima tilida hosil qilingan birikma iboraviy shakl kasb etib, tabiiy jaranglasa, nazarda tutilgan ma'no va uslubiy vazifani aks ettira oladi. Bunday paytda nafaqat adekvatlik ta'minlanadi, balki tarjima tili lug'at tarkibining boyishi uchun ham imkoniyat vujudga keladi [7].

L.S. Barxudarov "Til va tarjima" nomli kitobida konkretlashtirish leksik transformatsiyasiga quyidagi ta'rif beradi: "Konkretlashtirish – bu aslyat tilidagi keng ma'noli yoki ma'nosini aniqlash qiyin bo'lgan so'zlarni tarjima tilida tor ma'noli so'z yoki ibora bilan almashtirishdir." Shuningdek, u ingliz tilidagi "to be" fe'lini rus tiliga tarjima qilganda konkretlashtirish leksik transformatsiyasi talab qilinishini aytgan [4].

Leksik transformatsiyaning keyingi turi umumlashtirish nomi bilan ataladi. Tarjimada aksariyat hollarda aslyatda tarjima tili normalarida ortiqcha hisoblangani bois ba'zi aniqliklar umumlashtiriladi [8].

Misol uchun: "She bought the Oolong tea on her way home." – "По дороге домой она купила китайского чая." Oolong – xitoy choyining bir turi bo'lib, bu ma'lumot tarjima tilidagi o'quvchi uchun noma'lum bo'lishi mumkin, shuning uchun, tarjima jarayonida tarjimon "Oolong" so'zini "xitoy" so'zi bilan almashtirib, gapda umumlashtirish leksik transformatsiyasini qo'llashiga to'g'ri keladi [5].

Leksik transformatsiyaning navbatdagi turi modulyatsiya deb atalib, ba'zi adabiyotlarda semantik rivojlanish deb nomlanadi. U ikki hodisa o'rtasidagi mantiqiy aloqaga asoslanadi. Ulardan bittasi aslyat matnini atasa, ikkinchisi uning tarjima varianti deb hisoblanadi. Bu transformatsiya matnda tasvirlangan vaziyatning semantik hamda mantiqiy tahlilini talab etadi. Agar vaziyat semantik jihatdan to'g'ri rivojlantirilsa, ya'ni aslyat matni va tarjima matnidagi fikrlar birbirini semantik jihatdan sabab va natija sifatida bog'lasa, transformatsiya tarjima tili normalariga rioya qilgan holda matndagi mazmuni berishga xizmat qiladi. Tarjimada sabab natija bilan

Tarjima nazariyasida mavjud adabiyotlarga ko'ra, tarjima jarayonida muqobil topish masalasi muammoli holat hisoblanadi. Chunki, tarjimada har doim ham so'zning ekvivalenti mavjud bo'lmashligi mumkin. Bu esa asosan madaniy tushunchalar tarjimasida yaqqol namoyon bo'ladi. Quyidagi so'z guruhlarining ekvivalenti yo'q deb hisoblash mumkin: 1) kundalik hayot realiyalari – biror xalqqa xos bo'lgan narsa, hodisalar va hokazolarni bildiruvchi so'zlar; 2) xos nomlar va geografik nomlar; 3) jurnal va gazeta nomlari [3].

J. S. Katford transliteratsiya qilishning qoidalari borasida rus tilidan ingliz tiliga tarjima qilish jarayoni misolida quyidagicha tushuntirgan: transliteratsiyada aslyat tili grafologik birliklari tarjima tili grafologik birliklari bilan almashtiriladi; lekin ular tarjima ekvivalentlari bo'la olmaydi, bu holat ular bir xil grafik asosga ega emasligi bilan izohlanadi:

almashtiriladi. Bunda eng asosiysi tarjimada til normasiga putur yetmasligi hisoblanadi [8].

Leksik transformatsiyaning yana bir turi kompensatsiya yoki gapning tushirib qoldirilgan qismini to'ldirish deb ataladi. Bu transformatsiya odatda aslyatdagi stilistik usullarni tarjima tilida muqobili yoki ekvivalenti yo'q bo'lgan hollarda, tarjimada qahramon nutq xususiyatlarini, so'z o'yini hamda qofiyadosh so'zlarni berishda keng qo'llaniladi. Shuningdek, matnda muallif tomonidan maxsus qo'llangan fonetik, grammatik, stilistik vosita va usullar aksariyat hollarda tushirib qoldiriladi va uning o'rnini qoplash va mazmun muvozanatini saqlash, stilistik yo'qotishni to'ldirish uchun kompensatsiyadan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi [8].

**Tahlil va natijalar.** Shunday qilib, yuqorida keltirilgan fikr va mulohazalarni umumlashtiradigan bo'lsak, tarjimada ekvivalenti mavjud bo'lmagan so'zlarni tarjima qilishning eng oson yo'li bu – so'zlarni transliteratsiya qilish usuli hisoblanib, unda aslyatda ishlatilgan so'zning talaffuz shakli tarjima tiliga grafik jihatdan moslab beriladi.

Bir tilda muayyan tushunchani ifoda etadigan muayyan frazeologik birlik o'zga tilda o'z ekvivalentiga yoki muqobil variantiga ega bo'lmashligi mumkin. Bunday holda ko'proq tarjima amaliyotining kalkalash usuliga, ya'ni so'zma-so'z tarjima usuliga murojaat qilinadi.

Shuningdek, tarjimada konkretlashtirish leksik transformatsiyasidan quyidagi vaziyatlarda qo'llanilishi ma'lum bo'ldi: aslyat tilidagi keng ma'noli so'zlarni tarjima tilida tor ma'noli so'zlar bilan almashtirganda; aslyat tili fe'l xususiyatlarining tarjima tili fe'l tizimiga muvofiq kelmasligi natijasida tarjimada ularga aniqliklar kiritilganda; aslyat tili so'zlarining ma'nolari tarjima tilidagi muqobil ekvivalentlarining ma'nolariga qaraganda kattaroq ma'no doirasiga ega bo'lganda, ularning o'ziga xos semantikasi kontekstdan kelib chiqqan holda konkretlashtirish orqali tanlab olinganda; aslyat tili ba'zi so'zlarini tarjima qilishda ushbu so'zning kimga nisbatan ishlatilayotganini, uning yoshi, jinsi, jamiyatdagi tutgan o'rnini, so'zlovchi bilan bo'lgan munosabati va so'zning qo'llangan vaziyatini hisobga olgan holda tarjima tiliga aniqlik kiritilganda; aslyat tili ba'zi so'zlarining keng semantik doirasi bo'yicha turli xil vaziyatlarda qo'llanishi tufayli tarjima tilida ularga aniqlik kiritishga sabab bo'ladi va natijada tarjimon tarjima jarayonida konkretlashtirish leksik transformatsiyasiga murojaat qilishiga to'g'ri keladi.

Umumlashtirish leksik transformatsiyasi tillararo, madaniyatlararo nomuvofiqliklar mavjud bo'lganda, tarjima tilini aniq, tushunarli bo'lishligini ta'minlash maqsadida qo'llaniladi. Bunda tarjimon tarjima matniga tegishli o'zgartirishlar kiritishga, ayni bir so'zni, uning ma'nosini tarjimada umumlashtirishga majbur bo'ladi. Ya'ni, tarjima qilinyotgan matnning axborot qabul qiluvchiga tushunarli tilda qayta yaratish zarurati tarjimonni asliyatdagi tushunilishi qiyin bo'lgan elementlarni tarjimada umumlashtirishiga sabab bo'ladi. Chunki, bunday elementlar asliyat tili kitobxonlari uchun bemaol tushunarli bo'lsada, tarjima tili kitobxonlari uchun hech qanday ma'no anglatmasligi mumkin. Shu sababdan, ko'p hollarda bunday matnlar umumlashtirish leksik transformatsiyasi yordamida o'giriladi.

Tarjimada quyidagi vaziyatlar modulyatsiya leksik transformatsiyasi qo'llanishiga imkon yaratadi: sababning natija bilan berilishi; inkor gapni ma'nosini saqlagan holda bo'lishli gap shaklida tarjima qilish; qismni butun bilan ifodalash; obrazlarni har bir xalq madaniyatidagi obrazga moslab o'girish; metaforalar tarjimasi; metonimiyalar tarjimasi; aniq nisbatdagi jumlaning majhul nisbatda berilishi.

Tarjima jarayonida kompensatsiya leksik transformatsiyasi quyidagi vaziyatlarda amalga oshirilishi mumkin: asliyatdagi stilistik usullarni tarjima tilida muqobili yoki ekvivalenti yo'q bo'lgan hollarda; asar qahramoni nutq xususiyatlarini, og'zaki nutqi, ularning nutqlaridagi kamchiliklar, savodsizligi tufayli noto'g'ri so'zlarni qo'llashlari kabi holatlarni tarjima qilishda, shuningdek, tarjimada so'z o'yini hamda qofiyadosh so'zlarni berishda; matnda muallif tomonidan maxsus qo'llangan fonetik, grammatik, stilistik vosita va usullarning tarjima tilida muqobil varianti mavjud bo'lmaganda ularning o'rini qoplash va mazmun muvozanatini saqlash, stilistik

yo'qotishni to'ldirishda; asliyat matni tarkibida kelgan gapning bir qismidagi ma'no, tovush effekti, metafora yoki pragmatik ta'sirning tarjima tilida uchramasligi natijasida tarjima matnida ularning o'rini qoplash maqsadida o'xshash variantlaridan foydalanganda; asliyat matni til birligining tarjima tilida muqobili mavjud bo'lmaganda, tarjimada ushbu til birligining yo'qolib ketishini oldini olish maqsadida uning o'rini o'xshash element bilan qoplash uchun qo'shimcha elementni ataylab kiritganda; asliyat tili birliklarining muqobili tarjima tili lug'atida mavjud bo'lmaganda; asliyat til birligining tarjima tilida ekvivalenti mavjud bo'lmaganligi natijasida yuzaga keladigan semantik yo'qotishning o'rini qoplash, ya'ni kompensatsiya qilish, to'ldirish uchun ularni tarjima tilida boshqa vositalar yordamida o'girganda; asliyat matni pragmatik ma'nolarini yetkazishda bo'lgani kabi, tarjima tili tizimida u yoki bu asliyat til birligiga to'g'ridan-to'g'ri va bevosita muqobil bo'luvchi til birliklarini topish mumkin bo'lmagan vaziyatlarda; tarjimada kompensatsiya qo'llanilganda tarjima tili ekvivalentligi matnning alohida elementlari, xususan, so'zlar darajasida emas, balki butun bir matn ko'rinishida bo'lishi mumkin.

**Xulosa.** Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, ba'zi tilshunoslar konkretlashtirish, umumlashtirish va modulyatsiyani leksik transformatsiyaning leksik almashinuv turiga kirishini ta'kidlashgan. Lekin biz mazkur maqolada leksik transformatsiyaning mazkur uch turini leksik almashinuv emas, balki to'g'ridan-to'g'ri leksik transformatsiya turi deb nomladik. Natijada, tarjima jarayonida qo'llaniladigan leksik transformatsiyalarning asosiy turlariga quyidagi tarjima usullari kiritildi: 1. Transliteratsiya usuli. 2. Kalkalash usuli. 3. Konkretlashtirish. 4. Umumlashtirish. 5. Modulyatsiya. 6. Kompensatsiya.

#### ADABIYOTLAR

1. Комиссаров В.Н. Теория перевода (лингвистические аспекты). Учеб. - М., 1990. 172 стр.
2. Рецкер Я.И. Теория перевода и переводческая практика. Москва. Р.Валент 2007. 48-54 стр.
3. Aznaurova E.S., Abdurakhmanova Kh.I., Demidova I.M., Iriskulov M.T., Phomenko N.V., Sabirova M.A., Takhirjanova S.T., Khudaiberganova M. K. "Translation theory and practice". O'qituvchi 1989. - 9, 10 p.
4. Бархударов Л.С. Язык и перевод. М., изд. Международные отношения, 1975. 189-190, 209 стр.
5. Zoya Proshina. Theory of Translation. (English and Russian). Vladivostok Far Eastern University Press. 2008. 44, 42 p.
6. Catford, J. C. A linguistic theory of Translation. Oxford University Press. 1965. 68 p.
7. Musayev Q. Tarjima nazariyasi asoslari. Darslik. T.: O'zbekiston Respublikasi FA. "Fan" nashriyoti, 2005. - B. 198.
8. G'ofurov I., Mo'minov O., Qambarov N. Tarjima nazariyasi. O'quv qo'llanma. Toshkent 2012. - B. 111, 112.



UDK: 81-2.81-25

**Kamola MIRZABABAYEVA,**  
PhD doctorant of NUU  
E-mail: kamolka1089@gmail.com

*Under the review of Dj.Djumabayeva professor of NUU*

### GENERATIONAL THEORY AS A KEY TO UNDERSTANDING COMMUNICATION PROCESSES IN SOCIETY

Annotation

The article analyzes the characteristics of communicative acts across different generations. It outlines the fundamental components of a communicative act and examines the concept of "generation," providing criteria for identifying distinct generational groups. Furthermore, the article delves into the historical and psychological differences between Generation X and Generation Y, highlighting their distinctive features in communication contexts.

**Key words:** Communication, communicative act, generation, theory of generations, features of generations.

### ТЕОРИЯ ПОКОЛЕНИЙ КАК КЛЮЧ К ПОНИМАНИЮ КОММУНИКАЦИОННЫХ ПРОЦЕССОВ В ОБЩЕСТВЕ

Аннотация

В статье анализируются характеристики коммуникативных актов разных поколений. В ней описываются основные компоненты коммуникативного акта и рассматривается понятие "поколение", даются критерии для определения различных поколенческих групп. Кроме того, в статье рассматриваются исторические и психологические различия между поколениями X и Y, выделяются их отличительные черты в контексте коммуникации.

**Ключевые слова:** Коммуникация, коммуникативный акт, поколение, теория поколений, особенности поколений.

### AVLODLAR NAZARIYASI JAMIYATDAGI ALOQA JARAYONLARINI TUSHUNISHNING KALITI SIFATIDA

Annotatsiya

Maqolada turli avlodlardagi kommunikativ aktlarning xususiyatlari tahlil qilinadi. U kommunikativ AKTning asosiy tarkibiy qismlarini bayon qiladi va "avlod" tushunchasini o'rganadi va alohida avlod guruhlari aniqlash mezonlarini taqdim etadi. Bundan tashqari, maqolada X avlod va Y avlod o'rtasidagi tarixiy va psixologik farqlarni o'rganilgan, ularning aloqa kontekstidagi o'ziga xos xususiyatlarini farqlanadi.

**Kalit so'zlar:** Aloqa, kommunikativ harakat, avlod, avlodlar nazariyasi, avlodlar xususiyatlari.

**Introduction.** Generational theory offers a unique lens through which to understand communication processes in society. It suggests that individuals born in distinct generational cohorts develop unique worldviews, values, and communication styles influenced by the historical, social, and cultural contexts in which they were raised. This literature review explores the key contributions to generational theory and its relevance to understanding communication dynamics in various societal contexts, including the workplace, family, and media.

Society is a complex communicative system, which is far from being only a static sum of social institutions: in fact, it is being revived day after day or creatively recreated with the help of certain acts of a communicative nature that take place between its members.

**Literature review.** Generational theory, as defined by sociologists and social psychologists, posits that individuals within a specific generational group share common experiences and values that shape their communication behaviors. One of the earliest and most prominent theorists, Karl Mannheim (1952), introduced the concept of the "generational consciousness," arguing that a generation's collective experiences—such as wars, economic crises, or technological advancements—shape its collective identity and modes of interaction. Mannheim's theory of generations suggests that these generational characteristics can significantly influence communication styles, social behavior, and societal values [1].

The communication gap between generations has become an important area of study in understanding the challenges that arise in personal and professional interactions. According to Zemke, Raines, and Filipczak (2000), generational differences in communication can lead to misunderstandings, especially in workplaces where multiple generations collaborate [2].

Generational theory also plays a crucial role in understanding broader societal communication patterns, particularly in media consumption. As highlighted by Twenge (2006), the advent of the internet and social media has changed the way each generation communicates and interacts with information. While Baby Boomers may rely on traditional media like newspapers and television, Millennials and Gen Z are more likely to engage with digital content, often consuming news and entertainment through social media platforms like Twitter, Instagram, and TikTok. This difference in media consumption is a reflection of broader shifts in how each

generation approaches communication, information, and social interaction [3].

Moreover, generational theory offers insight into intergenerational communication in the family and community contexts. According to Bengtson (2001), family communication is influenced by generational attitudes and values, which can create both tension and cohesion. As older generations may hold more traditional views, younger generations often embrace more progressive perspectives, leading to differences in how they communicate and negotiate family roles and responsibilities [4].

In organizational settings, the effective integration of multiple generations can lead to both challenges and opportunities. A study by Kopperschmidt (2000) highlights that understanding generational differences is critical for improving workplace communication, especially in teams composed of individuals from different generational cohorts. Organizations that recognize and embrace generational diversity can create a more inclusive environment where communication flows more smoothly and effectively [5].

Research by Chaudhuri and Ghosh (2012) also emphasizes that organizations need to adapt their communication strategies to accommodate the preferences of different generational groups. For instance, while Baby Boomers may prefer formal, written memos, Millennials may favor more collaborative tools such as instant messaging and collaborative platforms like Slack or Microsoft Teams [6].

**Research methodology.** Communicative acts involve the smallest units of verbal interaction between speakers, shaped by their intentions (the focus of consciousness and thought on a specific subject) and strategies for achieving communication goals. Each dialogue exchange influences the interlocutor's response, making the stimulus-replica and reaction-replica together constitute the minimum structural unit of a communicative act [7].

Over time, the core structural components of communicative acts have evolved considerably, shaped by a range of social, economic, geographical, and other influences. This article examines generational change as one key factor driving significant transformations in the units of speech interaction.

The foundational element of communication is information—data about objects and phenomena in the environment, including their parameters, properties, and states, as perceived by information systems during the processes of life and activity [8].

Communication is the process of exchanging information between two or more participants. The model of the communicative act discussed in this article is based on an activity-based polysubject approach, which includes the following elements:

Subjects of communication – active participants in the communicative process, who, within a single communicative unit, function both as communicators and recipients.

Encoding – the process of transforming and presenting the transmitted message in a form compatible with a specific information transmission channel.

Message – the smallest unit of language that conveys an idea or meaning suitable for communication. It serves as a form of presenting information, consisting of a set of signs or primary signals that carry information.

Communication channel – the medium through which a message is transmitted between the subjects of communication.

Decoding – the process of reconstructing the original form of the presented information, during which the recipient interprets the message's meaning.

Feedback – a stage where the roles of sender and recipient reverse. The original recipient becomes the sender and undergoes the same stages of information exchange to deliver a response, while the initial sender assumes the role of the recipient.

Situational framework – external circumstances that influence the nature and specifics of communication.

Purpose of the subject of communication – an intrinsic factor for each participant that shapes the content of the transmitted information, impacts interpersonal relationships, and affects the duration of the interaction.

Barriers – obstacles that hinder the effective and accurate transfer of information between communication partners [9].

A generation is less a group of individual communicators and more a collective representation of the defining traits of an era. A generation typically consists of individuals born around the same period, sharing a similar age range and often common or related experiences, activities, and memories [10].

Generational gap developed by William Strauss and Neil Howe, describes recurring generational cycles. According to Strauss and Howe, a generation is identified based on three key criteria:

Members of the same generation share a historical context, encountering pivotal historical events and social trends during the same life stages.

They exhibit common beliefs and behaviors.

A shared awareness of these commonalities fosters a sense of belonging among members of the generation [11].

**Analysis and result.** The generational theory by Strauss and Howe was originally designed to analyze Anglo-American history but has since gained widespread recognition in many countries, including Russia. The authors of this concept argue that generational values across countries are often similar due to shared global events and phenomena, such as the advent of the Internet and the proliferation of mobile communication technologies.

While Strauss and Howe suggested that generational shifts occur in a relatively uniform manner worldwide, it is crucial to interpret this theory through the lens of local historical and cultural contexts. For instance, psycholinguist Evgenia Shamis and psychologist Alexey Antipov have adapted the generational theory to align with key milestones in Russian history, providing a framework that reflects the unique characteristics of Russian generations [12]:

1. Generation X, born in 1963–1984.
2. Generation Y or "millennium", born in 1985-2000.
3. Generation Z, MeMeMe, born in 2000-2020.

At the moment, generation Z is on the way to becoming an active subject of public life, for this reason, generations X and Y will be taken as the basis for considering the characteristics of generations in the process of a communicative act

The defining events of the Generation X era include the continuation of the Cold War, perestroika, the stagnation and collapse of socialist regimes, the opening of borders with increased freedom of movement, globalization, as well as periods of economic decline followed by growth. This generation grew up witnessing radical changes in the global system and adapted to the challenges that accompanied these transformations.

Generation X individuals are characterized by resilience and self-reliance. They are pragmatic, resourceful, and proactive, often described as "go-getters." Accustomed to instability, they rely on themselves, always have a backup plan, and handle difficulties with composure and preparedness. Their approach to challenges is marked by persistence and diligence, making them highly efficient and productive.

For Generation X, career, education, and material success are of significant importance. They strive for achievement but often prefer established methods over exploring untested paths.

Key qualities of people born between 1964 and 1984 include:

Self-reliance and pragmatism

Individualism and adaptability

Willingness to change and work on self-improvement

Professional self-development and receptivity to constructive criticism

Ambition for career growth and a high standard of living

High efficiency, productivity, and a responsible attitude

Tolerance and openness to diversity

Their ability to adapt, coupled with a focus on personal and professional success, defines this generation as a cornerstone in navigating transitional periods in history [13].

The text outlines the differences in communication practices and challenges between two generations: Generation X (born 1963-1984) and Generation Y (born 1985-2000). It explores how these differences are shaped by factors such as the educational process, geographic location, personality traits, and the specific communication channels used by each generation. Here's a summary of the main points:

Generational Differences:

Generation X (1963-1984) grew up with fewer technological innovations, leading them to rely more on verbal and non-verbal communication channels (e.g., face-to-face interactions).

Generation Y (1985-2000), on the other hand, became more accustomed to technological advancements, such as the internet and social media, and therefore prefers artificial communication channels (e.g., digital platforms).

Encoding and Decoding of Messages:

The process of encoding and decoding messages is universal, but it varies based on the code (language or symbols) used. If the sender and receiver share the same understanding of the code, communication is clearer and more effective.

The communication channel (e.g., face-to-face conversation, social media) significantly influences how the message is received.

Communication Channels:

Natural channels (verbal and non-verbal) are more frequently used by Generation X due to lower technological access and less frequent use of digital tools in their formative years.

Artificial channels (e.g., the internet, social networks) are more common for Generation Y, whose environment and social interactions have been heavily influenced by technology.

Content of the Message:

The content and style of communication vary based on the generation. Generation Y, having grown up during times of economic instability and social unrest, often uses more informal language and slang, including criminal jargon, compared to the more conservative communication style of Generation X.

Feedback:

Feedback is a critical element of communication, helping both the sender and receiver assess understanding and agreement with the message.

Communication within the same generation is generally more productive because individuals share common values and experiences.

Cross-generational communication may face challenges due to different life experiences, which can affect how messages are perceived and understood.

Situational Context:

The situational frame of communication—whether formal or informal—also affects how messages are interpreted. Generation Y, particularly those who frequently engage in online communication, is often in a more informal situational frame, while Generation X may lean towards more formal or traditional communication styles.

In essence, the generational divide influences both the method and content of communication. Generation X is more likely to rely on face-to-face interactions and conservative language, while Generation Y embraces digital communication and informal styles. The effectiveness of communication also depends on the shared

context, feedback, and common understanding between the sender and receiver.

The text examines how the goals of communication subjects—Generation X (1963-1984) and Generation Y (1985-2000)—influence the nature and effectiveness of intersubjective communication, particularly the balance between communication goals (information exchange) and pragmatic goals (personal needs and objectives).

Here's a breakdown of the key points:

**Communication Goals vs. Pragmatic Goals:**

Communication goals refer to the basic need for exchanging information for the sake of communication itself. This goal is inherent in all people, regardless of generation, because humans are biosocial beings.

Pragmatic goals refer to the personal, inner motives that drive someone to communicate in order to fulfill specific needs or desires. These goals are shaped by the individual's personal characteristics, which are in turn influenced by their generational context.

**Generation X (1963-1984):**

Members of Generation X are described as self-reliant and independent, often preferring to solve problems on their own rather than seeking help from others.

Their communication tends to be passive when it comes to achieving their goals. Instead of relying on communication with others to achieve objectives, they focus on demonstrating individual productivity and efficiency.

This approach means that Generation X's intersubjective communication is often less about collaboration and more about individual effort and self-sufficiency.

**Generation Y (1985-2000):**

Generation Y is characterized by their pragmatic goal orientation, where they seek immediate results and are more aware of the resources available from others to meet their needs.

They are more likely to engage in synergistic communication, where collective effort and the integration of individual resources and skills contribute to achieving a shared goal.

The result is that members of Generation Y are more likely to use intersubjective communication—communication between people—to achieve their goals. They recognize the value of cooperation and collaboration in achieving greater efficiency.

The text highlights various barriers to effective communication, which can distort or block the transmission of information. These barriers can arise from several sources, including

generational differences, individual characteristics, and the overload of information in modern society. Here is a summary of the key points:

**Key Barriers in Communication:**

**Imagination Limitations:** A person's ability to imagine or conceive certain concepts can be a barrier, depending on their experiences or education.

**Vocabulary Barriers:** Differences in the vocabulary of the sender and the recipient can impede understanding, depending on each person's linguistic capacity and familiarity with certain terms.

**Understanding Ability:** The recipient's ability to grasp the meaning of words can vary, especially if their cognitive or educational background differs from that of the sender.

**Memory Capacity:** The amount of information a person can remember also affects how effectively they can communicate or absorb information.

**General Barriers:** Barriers can also arise due to logical, phonetic, semantic, or stylistic differences, further complicating communication.

**Generational Differences in Barriers:**

While many of these barriers are influenced by individual education and characteristics, generational differences also play a role:

Generation Y (born 1985-2000) has experienced significant information overload, leading to clip thinking, which means they tend to filter and process information in small, superficial chunks. This coping mechanism, while effective in managing the overwhelming amount of information in the digital age, can sometimes reduce the depth of understanding.

Generation X (born 1963-1984) encountered information overload later in life, meaning their adaptive strategies are not as finely tuned, making it harder for them to process large amounts of information efficiently.

**Conclusion.** While communication barriers exist across all generations, the way they are experienced and managed can vary. Generation Y has developed mechanisms to handle the information overload typical of the digital age, but this can lead to a more superficial understanding. On the other hand, Generation X faces challenges in adapting to these new communication dynamics. Additionally, the authority barrier is more prominent for Generation X, while Generation Y tends to be less affected by traditional sources of authority, allowing for a potentially more flexible communication process.

## LITERATURE

1. Mannheim, K. (1952). *The Problem of Generations*. *Essays on the Sociology of Knowledge*.
2. Zemke, R., Raines, C., & Filipczak, B. (2000). *Generations at Work: Managing the Clash of Veterans, Boomers, Xers, and Nexters in Your Workplace*. AMACOM.
3. Twenge, J. M. (2006). *Generation Me: Why Today's Young Americans Are More Confident, Assertive, Entitled—and More Miserable Than Ever Before*. Free Press.
4. Bengtson, V. L. (2001). Beyond the Nuclear Family: The Increasing Importance of Intergenerational Relations. *Marriage & Family Review*, 33(3-4), pp-123-140.
5. Kopperschmidt, B. R. (2000). Multigenerational Employees in the Workplace. *Health Care Manager*, 19(1), pp-65-76.
6. Chaudhuri, S., & Ghosh, A. (2012). Managing Workplace Diversity: Understanding the Role of Generational Differences in Organizational Communication. *International Journal of Human Resource Management*, 23(6), 1401-1416.
7. Azimov E.G., Shchukin A.N. *A new dictionary of methodological terms and concepts (theory and practice of language teaching)*. – M.: Publishing House IKAR, 2009.
8. *Small Academic Dictionary*. – M.: Institute of the Russian Language of the USSR Academy of Sciences Evgenieva A. P. 1957-1984.
9. *The Great Encyclopedic Dictionary* / ed. A.M. Prokhorov. – M.: St. Petersburg: Norint; 2nd edition, reprint. and additional, 2002. p – 516.
10. Kont-Sponville, A. *Philosophical Dictionary*. – M.: Eterna, 2012. – p-752.
11. Isaeva M. Generations of crisis and rise in the theory of V. Strauss and N. Howe // *Knowledge. Understanding. Ability*.- 2011.– No. 3. – pp. 290-295.
12. Antipov A., Shamis E. *Moskovskaya Pravda* newspaper dated 19.10.2004 No.195.
13. Antipov A., Shamis E. *The theory of generations. An unusual Mix*. – M.: Synergy, 2016. – 140 p.



UDK:811.512.133'1

**Kamola MUSULMONOVA,**  
*Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti doktoranti, PhD*  
*E-mail:musulmonova66@gmail.com*

*Toshkent davlat pedagogika universiteti dotsent v.b S.Yoqubova taqrizi asosida*

## HISTORY OF FORMATION AND DEVELOPMENT OF LINGUISTIC EXPERTOLOGY

Annotation

Since the beginning of writing, mankind has been trying to examine, analyze and understand various manuscripts. At the core of almost all of the created research is the study of the relationship between the universe and man. Research aimed at studying the human psyche, writing, rights and freedoms led to the formation of a new field - linguistic expertology. The article deals with the history of formation of linguistic expertise, development trends, scientific theories and issues of their description.

**Key words:** Graphology, handwriting, analytical expertise, linguistic expertise, psychology, court, investigation, evidence.

## ИСТОРИЯ СТАНОВЛЕНИЯ И РАЗВИТИЯ ЛИНГВИСТИЧЕСКОЙ ЭКСПЕРТОЛОГИИ

Аннотация

С самого начала письменности человечество пыталось изучать, анализировать и понимать различные рукописи. В основе почти всех созданных исследований лежит изучение взаимоотношений Вселенной и человека. Исследования, направленные на изучение человеческой психики, письма, прав и свобод, привели к формированию новой области - лингвистической экспертологии. В статье рассматривается история становления лингвистической экспертуры, тенденции развития, научные теории и вопросы их описания.

**Ключевые слова:** Графология, почерк, аналитическая экспертиза, лингвистическая экспертиза, психология, суд, следствие, доказательства.

## LINGVISTIK EKSPERTOLOGIYANING SHAKLLANISH VA RIVOJLANISH TARIXI

Аннотация

Yozuv paydo bo'lgan davrdan boshlab insoniyat turli qo'lyozmalarni tekshirish, tahlil qilish va ularning mohiyatini tushunishga harakat qilib kelgan. Yaratilgan tadqiqotlarning deyarli barchasining zamirida olam va odam munosabatini o'rganish yotadi. Inson ruhiyati, yozuvi, huquq va erkinliklarini o'rganishga qaratilgan izlanishlar yangi soha- lingvistik ekspertologiyaning shakllanishiga sabab bo'ldi. Maqolada lingvistik ekspertizaning shakllanish tarixi, rivojlanish tendensiyalari, ilmiy nazariyalar va ularning tavsifi masalalari xususida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Grafologiya, qo'l yozuvi, tahlil, ekspertiza, lingvistik ekspertiza, psixologiya, sud, tergov, dalil.

**Kirish.** Ilm-fan taraqqiyoti inson ongining naqadar cheksiz imkoniyatlarga ega ekanligini ko'rsatib bermoqda. Qachonlardir amalga oshishi mumkin emas deb hisoblangan hodisalar bugungi kunda ilmiy kashfiyot sifatida hayotimizdan chuqur o'rin egallab ulgurdi. Ming yillar davomida inson atrof-muhit, koinot, g'allaktikalar, hayovonot va nabotot olamini o'rganish, tushunishga harakat qilib keldi. Bu esa ko'plab kashfiyotlarning yaratilishiga asos bo'ldi. Aytish joizki, xoh ijobiy, xoh salbiy xatti harakatlar bo'lsin insoniyat tomonidan amalga oshirilgan har qanday ish uning o'z hayotini qaysidir ma'noda to'ldirishga urinish natijasidir. Qirg'inbarot urushlar, tinchlik bitimlari, turli tarixiy voqealar, olamshumul kashfiyotlarning barchasi negizida inson faoliyati yotadi. Olimlar azaldan insonni murakkab tuzilma sifatida tadqiq etib ong va nutq rivojlanishining o'ziga xos jarayonlarini o'rganishga harakat qilib kelishadi. Yangi-yangi bilimlar, yangiliklar topilishiga qaramay, bu bilimlar chegarasiz bo'lganligi o'z isbotini topib bermoqda. Asosiy xulosa shuki, inson ongi va nutqi olam va odam munosabatida har qanday murakkab masalalarni yechishga qodir. Asosiysi esa, uni to'g'ri baholay olish va aniq yo'nalishlarga o'rinli tatbiq etishdir.

Tilshunoslikning turli sohalarha tatbiqi yangi fanlarning shakllanishiga va umumiy zamonaviy tilshunoslik yo'nalishining yuzaga kelishiga zamin hozirladi. Shunday sohalaridan biri sud-lingvistik ekspertizasi. Sud lingvistik ekspertizasi aynan qachon paydo bo'lganligi xususida aniq bir fakti keltirib bo'lmaydi. Zamonaviy tilshunoslikda antroposentrizm yondashuvi inson, uning ongi, kommunikativ faoliyatini yangi aspektida tadqiq etish, shuningdek, mavjud amaliy muammolarga yechim topish ehtiyoji fanda keng ko'lamli tadqiqotlarni amalga oshirish imkoniyatini yuzaga keltirdi. Endilikda muayyan fanlar orasiga katta to'siq qo'yib bo'lmayligi isbotlandi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Lingvistik ekspertizaning shakllanishiga doir yirik tadqiqotlar Malkolm Kultxard, Jon Olsson, Alison Jonson, Nadrea Nini tomonidan yaratildi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Lingvistik ekspertizaning yuzaga kelishi va shakllanish tarixini turli fanlar tarkibida sinkretik ravishda mavjud bo'lgan deb belgilash mumkin. Inson va uning ruhiyatini o'rganish asosida psixologiya, inson va uning qo'l

yozuvini o'rganish – grafologiya, inson va uning haq-huquqlari – yurisprudensiya, hamda inson va uning nutqi – lingvistik sohalari besvosita lingvistik ekspertizaga poydevor vazifasini bajaradi.

**Tahlil va natijalar.** Mavjud adabiyotlarda sud-lingvistik ekspertizaning yuzaga kelishi shved tilshunos Yan Svartvik nomi bilan bog'lanadi va 1968-yilda ushbu fan sohasiga asos solinganligi ta'kidlanadi. Biroq har qanday kashfiyot, har qanday yangilik aniqlangunga qadar unga urinishlar, harakatlar bo'lishi sir emas. Nazariy g'oyalarning shakllanishi uzoq tarixga borib taqaladi. Aynan amaliyotga tatbiq etilishi bilan uning yangiligi belgilanadi. Lingvistik ekspertizaning bugungi kunda tatbiqiy masalalari shaxsni obro'sizlantirish, muallifni aniqlash, plagiatlikni baholash va boshqa turli ziddiyatli matnlarda lingvistik bilimlar orqali konfliktlarga yechim topishga qaratilgan. Lingvistik ekspertiza yuzaga kelgunga qadar ham shu singari muammolar jamiyatda mavjud bo'lgan. Xususan, dastlabki yozma qonunlar to'plami sifatida baholanuvchi Hamurappi qonunlarida haqorat va tuhmat qilish bilan bog'liq vaziyatlarga bag'ishlangan alohida bandlar mavjud[1]. Shuningdek, Amir Temurning "Temur tuzuklari" asarida to'g'ri savdo-sotiq, muomala, muloqot masalalari xususida ham to'xtab o'tiladi.

Bundan tashqari muallifni aniqlash masalasi azaldan mavjud bo'lgan. Xususan, xattotlar asarlarni muayyan individual uslub asosida ko'chirgan. Kim tomonidan ko'chirilgani noma'lum bo'lgan asar ham uslubi, yozish texnikasi tekshirilgan holda hattot aniqlangan. Lutfiy qlamiga mansub deya taxmin qilingan Mashhur "Yusuf va Zulayho" dostoni Durbek qalamiga mansub ekanligi ilmiy dalillar, tekshirishlar orqali aniqlangan[2]. Juda qadimda turli ishoralar orqali kodlangan matnlarni yuborish an'anasi mavjud bo'lgan. Kalit so'zlarga yashiringan kodlarni topish va muallifning maqsadini aniqlash ham ekspertizaga yaqin jarayon. Xususan, qadimda sirli xazinalarni topish uchun matndagi jumboqni yechish talab qilingan. Xususan qadimgi Xitoyda faylasuf Kuo Jo Xsu inson qo'l yozuvi orqali uning xarakterini aniqlash mumkinligi haqida aytib o'tgan[3]. Konfutsiy insonlar ruhiyati xususidagi qarashlaridan birida "Yozuvi qamishdek tekis va ingichka insonlardan ehtiyoq bo'ling" degan fikrni aytib o'tadi. Ushbu fikr ham yozuv va inson nutqi, psixologiyasi bog'liqligini ko'rsatadi.


Yunon faylusi Aristotel ham inson nutqi, qo'l yozuvi orqali muallif haqidagi ko'plab ma'lumotlarni olish mumkinligini asoslab quyidagi mulohazalarini bildiradi: "Og'zaki nutqdagi so'zlar aqliy tajribaning mahsuli. Yozma matndagi so'zlar esa og'zaki nutq mahsuli. Hamma odamlarning og'zaki nutqi bir xil bo'lmaganidek, yozuvlari ham turlicha bo'ladi"[4]. Ko'rinadiki, ushbu mulohaza ham matn orqali muallifning atributlarini aniqlash mumkinligini dalillaydi.

Qadimgi Rim tarixchisi Suetonius Tranquillus imperator Avgustin tomonidan yozilgan matn tahlil qilish jarayonida shunday xulosalarini bayon etadi: "U so'zni ajratmaydi, ortiqcha harflarni keying qatorga o'tkazmaydi, har bir so'zni bosim bilan yozadi. Bu uning o'ta xasligi va o'zgalarni hurmat qilmasligini bildiradi" [5] Ushbu mulohazalar muallif yozuvi orqali u haqidagi muayyan xulosalarni chiqarish mumkinligini ko'rsatadi.

Shuningdek jahonga mashhur dramaturg Shekspir asarlarini aynan boshqa shaxs qalamiga mansub deb baholash, yoki Shekspir asarlarini o'zlashtirishga urinishlar ham matnlarni tekshirish zaruratini paydo qiladi. Tadqiqotchilar Shekspir uslubini tahlil qilgan holda muallifni belgilashgan.

Yuridik kontekstda lingvistik bilimlarning tatbiq etilishi tarixi bevosita qo'lyozuvi materiallarini tahlil qilishga borib taqaladi. Qo'lyozma matnlarda muallifning individual uslubi bo'lishi haqidagi nazariy fikrlar ommaga 17-asrda Italiyalik olim, Boloniya universiteti professori Kamillo Balfi tomonidan e'lon qilindi. Kamillo Balding nazariy g'oyalardan ilhomlangan doctor Lyudvig Klages o'zining "Handwriting and personality" asarini yaratdi. Ushbu asarda qo'l yozuvda insonning psixologik, fiziologik, genderologik psix-emotsional belgilari namoyon bo'lishi sinchiklab tekshirilganda yozuv muallifning identifikatsion portretini yaratish mumkinligini asoslaydi[6]. Biroq qo'l yozuvi va uni amaliyotga tatbiq etish borasidagi yirik qadam Buyuk Britaniyalik talabalardan biri Frensis Xillkiger tomonidan amalga oshiriladi. U dastlabki qo'lyozuvlarini tekshirish, hamda ushbu tahlil natijalaridan guvohlik uchun foydalanishga qaratilgan laboratoriyani ishga tushiradi.

1894-1899 yillarda Fransiyada grafologiya huquqiy masalalarda qo'l yozuvi tahlilining potentsial foydaliligiga jamoatchilik e'tiborini qaratganda munozarali mavzuga aylandi. Alfons Bertillon "Dreyfus ishi" bo'yicha aybloving guvohi sifatida ishtirok etdi. U qo'l yozuvi bo'yicha ekspert sifatida guvohlik berib, ayblovchi hujjatni Alfred Dreyfus yozganini da'vo qildi. Biroq, Bertillon qo'lyozma yoki qalbakilashtirish bo'yicha mutaxassis emas edi va uning chalkash va noto'g'ri dalillari eng dahshatli adolatsizliklardan biriga muhim hissa qo'shdi: begunoh Dreyfusning Iblis orolida umrbod qamoq jazosiga hukm qilindi.



Lingvistik ekspertiza odatda birinchi bosqich bilan chegaralanadi, bunda birinchi bo'lib turli qo'lyozma va bosma matnlar, ko'rsatmalar, maxsus tahdid, haqorat xatlari, anonim matnlar, mobil (uyali) telefon matnli xabarlar, o'z joniga qasd qilish to'g'risidagi eslatmalar, jabrlanuvchilar va gumonlanuvchilarning nutq uslubi va xatti-harakatlari qayd etiladi va tekshiriladi. Tilshunoslar kamdan kam hollarda sudda fakt va tegishli qonunlar tekshiriladigan sud bosqichiga chaqiriladi [8], lekin ko'p tilshunoslardan biri chaqirilganda, ular mualliflik, tahdid, talqin va

Taxminan o'sha paytda Angliyada yana bir taniqli shaxs, barmoq izini tekshirishning kashshofi ser Uilyam Gerschel grafologiyaga qiziqqa boshladi. U barmoq izini identifikatsiyalash kriminologiyada bo'lishini bashorat qilganidek, shaxsni baholashda grafologiya ham muhim ekanligiga ishonishini aytdi[7].

Artur Konan Doyl jamoatchilik e'tiborini ushbu mavzuga jalb qilishda muhim rol o'ynadi, chunki u qo'l yozuvi tahliliga qiziqqan va unga qattiq ishongan. Darhaqiqat, uning to'qqizta hikoyasini o'z ichiga olgan qo'lyozma hujjatlarini qo'l yozuvini tahlil qilishda g'ayrioddiy va ko'pincha bo'rttirib ko'rsatish qobiliyatiga ega bo'lgan Sherlok Xolms qahramoni muvaffaqiyatli tahlil qiladi; Xolms odamning yozuvidan nafaqat xarakterni, balki jinsini ham aniqlay olishi kerak edi va qo'shimcha ravishda u odamlarning qarindoshligini aniqlash uchun ikkita yozuv namunasi solishtirishi mumkin edi. Ushbu misollar lingvistik ekspertizaning grafologiya va psixologiya negizida yuzaga kelganligini ko'rsatadi. Keyinchalik lingvistik tahlillar orqali muallif identifikatsiyasini amalga oshirish mumkinligi borasidagi izlanishlar yuzaga keldi.

Lingvistik ekspertizaning yuzaga kelishi ikki yo'nalish bilan belgilash mumkin. Birinchisi 1966-yilda Ernesto Arturning "Miranda huquqlari" deb nomlangan bayonoti jabrlanuvchi Mirandaning aybsizligini asoslashga qaratilgan edi. Ikkinchi yo'nalish shved tilshunosi Buyuk Britaniyada aybsiz o'lim jazosiga mahkum etilgan Yan Svartvik ko'rsatmalarini tahlil qilish orqali lingvistik bilimlar sud jarayonida muhim dalil bo'lishini isbotlashi bilan bog'liq. Dastavval AQSH va Buyuk Britaniyada gumonlanuvchilarni tergov qilish jarayonida maxsus amaliyot mavjud bo'lib, unga ko'ra gumondorlar politsiyaga ko'rsatma beradi, bu jarayonda politsiya ortiqcha savol berishi, uni to'xtatishi mumkin emas. Gumonlanuvchilar tomonidan berilgan ko'rsatma politsiya tomonidan tahlil qilinadi va xulosa chiqariladi. Bu jarayonda gumonlanuvchining psix-emotsional holati, ko'pgina detallarni esdan chiqarib qo'yishi mumkinligi inobatga olinmaydi. Ayni shu masalalarni nazarda tutgan holda mashhur yurist Jon Olsson ushbu amaliyot samarali emasligini ta'kidlaydi. Buning uchun gumonlanuvchilarning so'zlari alohida tekshirilishi lozimligini bayon etadi.[8] Ushbu xatti-harakatlar natijasi o'laroq, 1988-yilda ilk marotaba Germaniya Federal jinoiy politsiya idorasida lingvistika va huquqshunoslik bog'liqligi borasida ikki kunlik konferensiya tashkil qilinadi. Birmingem universiteti olimi, professor Malkolm Kulthard ham lingvistik ekspertizaning amaliyotga tatbiqi masalasida yirik tadqiqotlarni amalga oshirdi [8]. Lingvistik bilimlar zarur bo'lishi mumkin bo'lgan sud protsessida uch bosqich mavjud: tergov, sud va appelyatsiya, Ushbu bosqichlarda lingvist-ekspertlarning roli va ishtirokini quyidagicha belgilash mumkin:

matn qurilishini tahlil qilish uchun so'raladi [9]. Ammo apellyatsiya keng tarqalgan bo'lib, sudlanuvchi sudlangandan keyin darhol boshlanadi va tilshunoslar odatda bayonot yoki e'tirofning matni, talqini yoki muallifligi haqidagi nizoni hal qilishda yordam berish uchun kerak bo'ladi [55].

**Xulosa va takliflar.** Lingvistik ekspertizaga bag'ishlangan amaliy ishlar va tadqiqotlar o'tgan asrning 60-yillarida olib borilganligiga qaramay, uning ildizlarini juda uzoq davrlarga borib taqaladi deyish mumkin. Inson nutqi va yozuvi yuzaga kelgan



davrlardan boshlab uni o'rganish, tahlil qilishga urinishlar mavjud bo'lgan. Lingvistik ekspertizaga doir nazariy fikrlar, qarashlar va g'oyalar sinkretik ravishda shakllangan. Uning yuzaga kelishiga

boshqa fanlar, xususan, psixologiya, yurisprudensiya, grafologiya, hamda lingvistika asos vazifasini bajargan.

#### ADABIYOTLAR

1. Hamidjon Xomidiy; Mahmud Hasaniy. Mashriqzamin hikmat bo'stoni. Toshkent: „Sharq“ nashriyotmatbaa konserni, 1997-yil — 251-bet.
2. Kuo Jo-Hsü's Experiences in Painting (T'u-hua Chien-wên Chih), An Eleventh Century History of Chinese Painting Together with the Chinese Text in Facsimile. Translated and annotated by Alexander Coburn Soper, American Council of Learned Societies, Washington, D. C., 1951. XII, 216, 66.
3. Schlicht, Laurens (2020). "Graphology in Germany in the 1920s and 1930s". *NTM Zeitschrift für Geschichte der Wissenschaften, Technik und Medizin*. 28 (2): 149–179. doi:10.1007/s00048-020-00246-8. PMID 32333033
4. Аристотель. Сочинения. В 4 т. (Серия «Философское наследие»). М.: Мысль, 1975—1983.
5. / Ред. и вступ Т. ст. В. Ф. Асмуса. 1975. 552 стр
6. Suetonius (1997). *Lives of the Caesars*. Vol. 1. Cambridge: Harvard University Press. p. 4.
7. Neter & Ben-Shakhar (1989). The predictive validity of graphological inferences: A meta-analytic approach. *Personality and Individual Differences*, 10, 737-745.
В статье рассматриваются лингвистические трансформации, возникающие в процессе синхронного перевода. Трансформации применяются для точной и понятной передачи информации, а также для адаптации к лингвистическим и культурным особенностям целевого языка. В статье приводятся примеры видов лингвистических трансформаций и их применения.

**Ключевые слова:** Синхронный перевод, лингвистические трансформации, переводоведение, методы перевода.

### LINGUISTIC TRANSFORMATIONS IN SIMULTANEOUS INTERPRETATION

Annotation

This article examines the linguistic transformations that occur during simultaneous interpretation. These transformations are employed to convey information accurately and clearly, as well as to adapt to the linguistic and cultural characteristics of the target language. The article provides examples of different types of linguistic transformations and their application.

**Key words:** Simultaneous interpretation, linguistic transformations, translation studies, translation methods.

**Kirish.** Sinxron tarjima – bu bir tildagi nutqni boshqa tilga bir vaqtning o'zida tarjima qilish jarayonidir. Ushbu jarayon yetarlicha murakkab bo'lib, tarjimondan nafaqat til ko'nikmalari, balki tezkor fikrlash, madaniy farqlarni tushunish va kommunikativ ko'nikmalarni talab qiladi. Tarjima jarayonida lingvistik, madaniy va kontekstual tafovutlarni hisobga olish muhimdir. Shu sababli sinxron tarjimada lingvistik transformatsiyalarni qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi.

Lingvistik transformatsiyalar – bu tarjima jarayonida nutqning yoki matnning grammatik, leksik va pragmatik jihatlariga moslashish uchun qo'llaniladigan usullardir. Ular tilga mos ekvivalentlar yaratish, ma'noni aniqroq va osonroq yetkazish imkonini beradi. Masalan, metaforalar, idiomatik ifodalar yoki madaniy kontekstga xos tushunchalar boshqa tildagi ekvivalentlariga o'zgartiriladi.

Sinxron tarjimaning asosiy vazifasi – axborotni to'liq, aniq va samarali yetkazishdir. Shu bilan birga, tinglovchilar tarjima qilingan nutqni asliyati tildagi nutq kabi qabul qilishlari kerak. Bunga erishish uchun tarjimonlar lingvistik transformatsiyalardan foydalanadi. Masalan, inglizcha so'z birikmasi “break the ice” o'zbek tilida “muloqotni iliqlashtirish” shaklida transformatsiya qilinishi mumkin. Bu tarjimaning semantik va pragmatik jihatlarini saqlab qolishga yordam beradi.

Mazkur mavzusining dolzarbligi tarjimashunoslikda transformatsiyalarni o'rganish muhimligini belgilaydi. Sinxron tarjimonlar uchun bu tarjima jarayonining sifatini oshirish va tarjimashunoslik hamda tilshunoslik sohalarida yangi usullarni joriy qilish imkonini beradi. Mazkur maqola ushbu jarayonlarning tahliliga bag'ishlangan bo'lib, sinxron tarjimada lingvistik transformatsiyalarning turlari, ularning qo'llanilishi va amaliy ahamiyatini yoritib beradi.

**Adabiyotlar tahlili.** Lingvistik transformatsiyalar tarjimashunoslik sohasining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, u tarjima jarayonida yuzaga keladigan tilshunoslik muammolarini hal qilishga yordam beradi. Ushbu mavzu bo'yicha ko'plab olimlar tadqiqot olib borgan. Jumladan, G. Minyar-Beloruhev [15], V. Komissarov [18] va P. Nevmark [12] kabi mutaxassislar lingvistik transformatsiyalarni chuqur o'rganagan. Ular transformatsiyalarni leksik-semantik, sintaktik va pragmatik jihatlariga ajratgan holda tahlil qilganlar.

P. Nevmark [12] o'zining “A textbook of translation” asarida lingvistik transformatsiyalarni tarjimaning muhim qismi sifatida ta'riflaydi. U transformatsiyalarni “kommunikativ” va “semantik” turlarga ajratadi. Nevmarkning fikricha, kommunikativ transformatsiyalar auditoriya ehtiyojlariga moslashish uchun qo'llaniladi. Masalan, madaniy kontekstlar yoki metaforalarning tarjimasi jarayonida kommunikativ yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi.

E. Nida [25] “The theory and practice of translation” asarida “dinamik ekvivalentlik” tamoyilini ilgari suradi. U tarjimonning vazifasi nafaqat matnning grammatik va semantik mazmunini, balki uning kommunikativ funksiyasini ham saqlashdan iborat deb hisoblaydi. Nidaning tadqiqotlari sinxron tarjimada pragmatik transformatsiyalar muhim ekanligini ko'rsatadi.

V. Komissarov [18] lingvistik transformatsiyalarni pragmatik va stilistik moslashuv vositasi sifatida o'rganadi. U o'zining “Lingvistik va tarjima nazariyasi asoslari” kitobida transformatsiyalarning amaliy ahamiyatini ta'kidlaydi. Komissarovning fikricha, tarjimon madaniy va lingvistik tafovutlarni bartaraf etish uchun transformatsiyalardan foydalanishi lozim. G. Minyar-Beloruhev [15] esa sinxron tarjima jarayonida tezkor qaror qabul qilish va transformatsiyalarni qo'llash bo'yicha muhim tavsiyalar beradi. U transformatsiyalarning turli tildagi grammatik va sintaktik xususiyatlarini moslashtirishda muhim rol o'ynashini ko'rsatadi.

O'zbek tarjimashunosligida Sh. Sattorov [3] va H. Mirzaev [7] kabi olimlar lingvistik transformatsiyalar mavzusida tadqiqot olib borgan. Sh. Sattorov o'zining tadqiqotida o'zbek tilining o'ziga xos leksik va sintaktik xususiyatlarini boshqa tillarga tarjima qilishda transformatsiyalarning ahamiyatini ta'kidlaydi. U madaniy moslashuv va idiomatik ifodalarning ekvivalentlarini topish jarayonini chuqur tahlil qilgan. H. Mirzaev [7] esa tarjima jarayonida transformatsiyalarning samaradorligini oshirish uchun yangi yondashuvlarni taklif qiladi. U lingvistik transformatsiyalarni milliy madaniyat va til o'ziga xosliklari bilan bog'liq holda o'rganishni tavsiya qiladi. Mirzaevning fikricha, transformatsiyalar tarjima matni sifatini oshirish bilan birga, o'quvchilarning ma'lumotni to'g'ri tushunishini ta'minlaydi.

**Tahlil.** Sinxron tarjimada lingvistik transformatsiyalar ma'lumotni to'g'ri va tushunarli yetkazish uchun qo'llaniladigan muhim vositalardan biri hisoblanadi. Quyida lingvistik

transformatsiyalarning asosiy turlari, ularning sinxron tarjima jarayonida qo'llanilishi hamda aniq misollar yordamida tahlil qilinadi. Transformatsiyalar leksik-semantik, sintaktik va pragmatik turlarga ajratiladi.

1. Leksik-semantik transformatsiyalar. Bu turdagi transformatsiyalar ma'noni boshqa tilda to'g'ri yetkazish uchun qo'llaniladi. Sinxron tarjimada tarjimon ko'pincha sinonimlar yoki ekvivalentlarni tanlash muammosiga duch keladi.

Masalan, ingliz tilidagi "to break the ice" iborasi o'zbek tilida "muloqotni iliqshirish" yoki "suhbatni boshlash" deb tarjima qilinadi. Bu ibora to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilinsa, o'zbek auditoriyasiga tushunarsiz bo'lib qoladi. Fransuz tilidagi "il pleut des cordes" (so'zma-so'z tarjimasi: yomg'ir arqon kabi yog'moqda) iborasi o'zbek tiliga "juda kuchli yomg'ir yog'moqda" deb transformatsiya qilinadi.

2. Sintaktik transformatsiyalar. Sintaktik transformatsiyalar gap tuzilmasini moslashtirishni o'z ichiga oladi. Har bir til o'ziga xos sintaktik qoidalarga ega bo'lgani uchun tarjimon bu transformatsiyalardan foydalanadi.

Misol uchun ingliz tilidagi "He was given a book" jumlasini o'zbek tilida faol tuzilma orqali "Unga kitob berildi" shaklida tarjima qilinadi. Fransuzcha "Quand il est arrivé, la réunion a commencé" jumlasini o'zbekchada "U kelishi bilan yig'ilish boshlandi" tarzida transformatsiya qilinadi.

3. Pragmatik transformatsiyalar. Pragmatik transformatsiyalar tilning madaniy va kontekstual xususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Sinxron tarjimonlar pragmatik transformatsiyalardan foydalangan holda ma'lumotni tinglovchilar uchun tushunarli va mantiqan mos shaklda yetkazishadi.

Ingliz tilidagi "Thanksgiving" bayrami o'zbek madaniyatida to'g'ridan-to'g'ri ekvivalentga ega emas, shu sababli u "minnatdorlik bayrami" sifatida tushuntiriladi. Fransuz tilidagi "Baccalauréat" atamasi o'zbek tilida "maktabni tamomlash imtihoni" deb tarjima qilinadi, chunki bu atama o'zbek tizimida bakalavriat deb tarjima qilinsa, oliy ta'limning bir bosqichi tushunilib, chalkashlikka sabab bo'lishi mumkin.

4. Idiomatik transformatsiyalar. Idiomalarning tarjimasi ko'pincha transformatsiyalardan foydalanishni talab qiladi, chunki har bir tilda ular o'ziga xos ma'noga ega.

Masalan, ingliz tilidagi "It's not my cup of tea" iborasi o'zbek tiliga "Bu men uchun emas" tarzida tarjima qilinadi. To'g'ridan-to'g'ri tarjima (Bu mening choyim emas) o'zbek tinglovchisi uchun ma'nosiz bo'lib qoladi. Fransuz tilidagi "avoir le cœur sur la main" (so'zma-so'z tarjimasi: qo'lida yurak bor) iborasi o'zbek tilida "ochiqko'ngil bo'lish" deb transformatsiya qilinadi.

5. Metaforik transformatsiyalar. Metaforalar tarjimada ko'pincha transformatsiyaga muhtoj bo'ladi, chunki ularning ma'nosi til va madaniy kontekstga bog'liq. Ingliz tilidagi "Time is money" iborasi o'zbek tilida "Vaqt – boylik" yoki "Vaqt – oltin" tarzida tarjima qilinadi. Bu ibora madaniy jihatdan hamohang ekvivalent topishni talab qiladi. Fransuz tilidagi "Les murs ont des oreilles" (Devorlarda quloqlar bor) iborasi o'zbek tilida "Devorda ham quloq bor" deb to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilinadi, bunda leksik muvofqlik kuzatilib, transformatsiyaga o'rin qolmaydi.

Natija. Sinxron tarjimada lingvistik transformatsiyalar tilga moslashtirilgan nutqni yaratish uchun muhim vosita bo'lib, tarjimonlar transformatsiyalar yordamida turli tillar va madaniy kontekstlar o'rtasida bog'lanishni ta'minlaydilar. Yuqorida aniqlanganidek, transformatsiyalar semantik, sintaktik, pragmatik va stilistik darajalarda amalga oshiriladi. Ushbu jarayonning muvaffaqiyati tarjimonning bilim va tajribasiga bog'liq.

G'. Salomov o'zining "O'zbek tarjimashunosligi asoslari" asarida lingvistik transformatsiyalarni tarjima jarayonida o'zbek tilining leksik va sintaktik o'ziga xosliklarini saqlash uchun qo'llash zaruratini ta'kidlaydi. Salomovning fikricha, tarjima davomida

original matnning mantiqiy va emotsional tarkibiy qismlari transformatsiyalar yordamida qayta ifodalinishi lozim [2].

Q. Musayev esa lingvistik transformatsiyalarni pragmatik adaptatsiya vositasi sifatida o'rganadi. U o'zining ilmiy ishlarida sinxron tarjima jarayonida tinglovchilarning madaniy va lingvistik xususiyatlarini hisobga olish muhimligini ta'kidlaydi. Musayev transformatsiyalarni madaniy muloqotni yengillashiruvchi vosita deb ataydi va tarjimonning bunday transformatsiyalarni qachon va qanday qo'llashi kerakligini ko'rsatadi [7].

V. Komissarov [6] lingvistik transformatsiyalarni kontekstual ekvivalentlikni saqlash vositasi sifatida ko'radi. U tarjima jarayonida ma'lumotni madaniy jihatdan moslashtirish orqali auditoriyaning tushunishini ta'minlash muhimligini ta'kidlaydi. Komissarovning fikricha, ayniqsa sinxron tarjima jarayonida transformatsiyalar matnning kommunikativ funksiyasini to'liq saqlab qolishga yordam beradi.

E. Nida [25] transformatsiyalarni "dinamik ekvivalentlik" nazariyasi doirasida o'rganib, tarjimonning vazifasi faqatgina lingvistik jihatdan to'g'ri bo'lish emas, balki maqsadli auditoriyaga matn to'g'ri etkazish ekanligini ta'kidlaydi.

P. Nevmark [12] transformatsiyalarni ikki asosiy turga ajratadi: "kommunikativ" va "semantik" tarjimalar. U o'z tadqiqotlarida, ayniqsa sinxron tarjimada, kommunikativ transformatsiyalarning ahamiyati haqida so'z yuritadi, chunki ular auditoriyaning ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, lingvistik transformatsiyalarni o'rganish va qo'llash tarjima jarayonining ajralmas qismidir. Transformatsiyalar yordamida nafaqat lingvistik moslashuv, balki madaniy farqlarni bartaraf etish ham amalga oshiriladi.

Sinxron tarjimonlar lingvistik transformatsiyalar yordamida: nutqning semantik mazmunini aniq yetkazadilar; pragmatik moslashuvni ta'minlaydilar; stilistik xususiyatlarini saqlaydilar.

Yuqoridagi olimlarning tadqiqotlari lingvistik transformatsiyalar tarjima nazariyasining muhim qismi ekanligini tasdiqlaydi. Sinxron tarjimada transformatsiyalardan samarali foydalanish tarjimonning malakasini oshirish va tarjimonning sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

**Xulosa.** Sinxron tarjimada lingvistik transformatsiyalarning o'rni juda muhimdir. Ushbu maqolada transformatsiyalarning turlari va ularning sinxron tarjima jarayonidagi ahamiyati tahlil qilindi. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, lingvistik transformatsiyalar tarjima jarayonida ma'noni to'g'ri va mazmunli yetkazish, shuningdek, turli madaniy va tilshunoslik to'siqlarini bartaraf etish uchun zarurdir.

Transformatsiyalar matn semantik, sintaktik va pragmatik jihatdan moslashtirishga imkon beradi. Leksik-semantik transformatsiyalar so'zlarning ma'nolarini tilga moslashtirishga yordam bersa, sintaktik transformatsiyalar gap tuzilmasini moslashtirish imkonini beradi. Pragmatik transformatsiyalar esa madaniy kontekstni hisobga olish orqali matnning kommunikativ funksiyasini saqlab qolishga xizmat qiladi.

O'tgan asrlarda ushbu sohada olib borilgan tadqiqotlar, jumladan, G'. Salomov, Q. Musayev, V. Komissarov, E. Nida va P. Nevmarkning asarlari lingvistik transformatsiyalarni amaliy va nazariy jihatdan yoritib bergan. Ularning fikricha, transformatsiyalar sinxron tarjimonlarga original matnni maksimal darajada aniq va tinglovchilarga tushunarli qilib yetkazish imkonini beradi.

Umuman olganda, lingvistik transformatsiyalar tarjimonlarga o'zlarining asosiy vazifalarini – original matnning mazmunini, uslubini va funksional xususiyatlarini to'liq yetkazishni samarali amalga oshirish imkonini beradi. Shu sababli, sinxron tarjima amaliyotida ushbu transformatsiyalardan foydalanish har doim dolzarb bo'lib qoladi.

#### ADABIYOTLAR

1. Salomov, G'. (2010). O'zbek tarjimashunosligi asoslari. Toshkent: Universitet nashriyoti.
2. Musayev, Q. (2015). Tarjima nazariyasi va amaliyoti. Toshkent: Fan.
3. Sattorov, Sh. (2012). Tilshunoslik va tarjimashunoslikda lingvistik transformatsiyalar. Toshkent: O'zbekiston.
4. Komissarov, V. N. (1980). Lingvistik va tarjima nazariyasi asoslari. Moskva: Vysshaya Shkola.
5. Minyar-Beloruhev, R. K. (1996). Teoriya i praktika perevoda. Moskva: Mejdunarodnye otnosheniya.
6. Nida, E. A., & Taber, C. R. (1982). The Theory and Practice of Translation. Leiden: E. J. Brill.
7. Newmark, P. (1988). A Textbook of Translation. London: Prentice Hall.
8. Baker, M. (1992). In Other Words: A Coursebook on Translation. London: Routledge.
9. Vinay, J.-P., & Darbelnet, J. (1958). Stylistique comparée du français et de l'anglais. Paris: Didier.
10. Catford, J. C. (1965). A Linguistic Theory of Translation. Oxford: Oxford University Press.



**Gulshoda RASHIDOVA,**  
*Teacher Uzbekistan world languages of foreign languages,  
Theoretical Aspects of English languages Department №3  
E-mail: rashidovagulshoda@gmail.com*

*Based on the review of Professor S. Olimov of Tashkent University of Applied Sciences*

### COLLOCATION LIMITATION AMONG L1 AND L2 LEARNERS

Annotation

The effects of L1-L2 congruency, collocation type, and limitation on L2 collocational processing were examined in this study. Uzbek English language learners and native English speakers conducted an online acceptability assessment to find out how well L2 learners process congruent processing (having the same structure and meaning in L1) collocations and English-only (which are not interchangeable in L1 construction) collocations with a different collocate and the same word. Among the experimental materials were adjective-nouns (AN) and verb-nouns (VN) collocations, as well as limited (more fixed) and free (less fixed) collocations. Among the findings were (i) the non-native speakers' sensitivity to the native speakers, however, were not in L1-L2 congruency. The native speakers (ii) were susceptible to restrictions on collocation, while non-native speakers were not at all. The mapping theory and the open-choice principle of L2 collocational processing for Uzbek English learners are first supported by these findings.

**Key words:** collocation, congruent process, limitation, interchangeable construction, multiword sequence.

### ОГРАНИЧЕНИЕ СЛОВОКАЦИИ СРЕДИ УЧАЩИХСЯ L1 И L2

Аннотация

В этом исследовании были изучены эффекты конгруэнтности L1-L2, типа коллокации и ограничения на коллокационную обработку L2. Изучающие узбекский английский язык и носители английского языка провели онлайн-оценку приемлемости, чтобы выяснить, насколько хорошо учащиеся L2. Конгруэнтная обработка (имеющих одинаковую структуру и значение в L1) словосочетаний и только английских (которые не взаимозаменяемы в конструкции L1) словосочетаний с другим сопоставить и одно и то же слово. Среди экспериментальных материалов были прилагательные-существительные (АН) и глагол-существительные (ВН) словосочетания, а также ограниченные (более фиксированные) и свободные (менее фиксированные) словосочетания. Среди результатов были: (i) чувствительность носителей языка, однако носители языка не находились в конгруэнтности L1-L2. Носители языка (ii) были подвержены ограничениям на коллокацию, тогда как носители языка вообще не подвергались ограничениям. Эти результаты в первую очередь подтверждают теорию отображения и принцип открытого выбора коллокационной обработки L2 для изучающих узбекский английский.

**Ключевые слова:** словосочетание, конгруэнтный процесс, ограничение, взаимозаменяемая конструкция, многословная последовательность.

### L1 VA L2 O'RGANUVLAR ORASIDA SO'Z BIRIKMALARIDAGI CHEKLOVLAR

Аннотация

Ushbu maqolada L1-L2 (birinchi va ikkinchi til) muvofiqligi, so'z birikma turlari va L2 so'z birikmalari qayta ishlashdagi qiyinchiliklar ta'siri ko'rib chiqildi. O'zbek ingliz tilini o'rganuvchilar va mahalliy ingliz tilida so'zlashuvchilar L2 o'rganuvchilarning moslashuvchanlik tarzida ishlov berish (L1da bir xil tuzilish va ma'noga ega) va faqat ingliz tilidagi (L1 qurilishida bir-birini almashtirib bo'lmaydigan) so'z birikmalarining qanchalik yaxshi bajarilganligini aniqlash uchun onlayn maqbullik baholash amalga oshirildi, turli so'z birikmalari va yakka holatda ishlatiladigan so'z o'rtasida. Tajriba materiallari orasida sifat-ot so'z turkumlari (AN) va fe'l-otso'z turkumlari (VN) bor edi. So'z birikmalari, shuningdek, cheklangan (ko'proq qat'iy) va erkin (kamroq aniqlangan) birikmalar. Kuzatuv natijalari orasida (i) ona tilini ingliz bo'lmagan so'zlashuvchilarning ta'sirchanligi sezilarli darajada edi, ammo ingliz tilini mahalliy til sifatida so'zlashuvchilar L1-L2 orasidagi muvofiqlik o'zida namoyon etmadilar. Mahalliy so'zlashuvchilar (ii) birikmalarni qo'llashda qiyinchilikka moyil edilar, ona tili bo'lmaganlarumuman bu holat kuzatilmadi. O'zbek ingliz tilini o'rganuvchilar uchun xaritalash nazariyasi va ochiq tanlovli L2 so'z birikmalariga ishlov berish tamoyili birinchi navbatda ushbu topilmalar bilan tasdiqlanadi.

**Kalit so'zlar:** so'z birikma, moslashuvchanlik jarayoni, limitatsiya, o'zgarmas birikma, ko'p so'z ketma-ketligi.

**Introduction.** According to earlier research (De Cock et al., 1998), the language produced by native speakers (NSs) is proportionately formulaic (up to 50%) in both spoken and written forms. This phenomenon may be seen in other languages (Conklin and Schmitt, 2012). One characteristic of language fluency that sets second language (L2) learners apart from first language (L1) learners is formulaic competence, which is also one of the skills with which they struggle (Pawley and Syder, 1983; De Cock et al., 1998) (Wray, 2002). Learning word combinations in a native-like manner is one of the biggest challenges for L2 learners (Wray, 1999, 2000, 2004). Even more proficient L2 learners produce less formulaic expressions than NSs in both written and spoken modes.

L2 learners typically overuse or underuse a small set of formulaic sequences because they use them in a non-native (NN) manner (De Cock et al., 1998; Durrant and Schmitt, 2009; Arnon and Christiansen, 2017). According to some scholars (Palmer, 1933; Brown, 1974; Richards, 1976; Marton, 1977; Pawley and Syder, 1983; Sinclair, 1991; Granger, 1998; Lewis, 2000; Wray, 2002; Schmitt, 2004, 2012), collocations are a subtype of formulaic language that are crucial for language acquisition and usage. For instance, research has demonstrated the significance of collocations for language

competence, accuracy, fluency, and competitiveness [1]. Collocations accounted for as much as 31–40% of the 238,000 words in the corpus of academic writing texts examined by Howarth.

Thus, there is justification for thinking that collocations should get extra consideration, particularly when L2 learners are involved. Despite being widely used and ubiquitous in English, collocations are notoriously hard to describe [2]. There have been two different historical explanations about the varying definitions of collocations. One is the phraseological explanation [3]. Because of this explanation, scholars have developed phraseological frameworks for collocations and other word combinations.

Because perform cannot collocate in this sense with all nouns that are syntactically and semantically possible, like survey, and because this type of collocation internally presents arbitrary restrictions on substitutability, Nesselhauf views a phrase like "sing a song" as a restricted collocation. Nonetheless, the phrase "will a toy" would be regarded as a free combination as it may collocate with a wide variety of nouns and verbs and has no arbitrary restrictions on its substitutability. The frequency-based explanation is the other. Values of corpus-driven collocational frequency are significant under this. Some measure of connection strength is also commonly used to

distinguish between random and statistically significant co-occurrence [4].

**Method.** We needed to separate (a) items that were acceptable in both the L1 and the L2 (congruent items, like "lock the door," "full pay"), (b) items that were acceptable in English but not Uzbek (English-only items, like "run the shop," "hard luck") 2, and (c) noncollocational items used for baseline reaction time (RT) and accuracy rate (ACC) in order to measure the relative RT and ACC for congruent and English-only items. This was necessary because we were specifically interested in how L1 collocational patterns affected learners' acceptability judgments regarding collocations in an L2. In addition, we must take into account the constraint and the type of collocation. Thus, the problem of AN and VN goods arises.

Congruent collocations and English-only collocations were the main topics of this study. The British National Corpus (BNC) was used to choose English-only and congruent content. We only accepted items with a BNC MI score of at least 3.0 since we wanted to make sure that congruent and English-only collocations really reflect corpus-verifiable things. The meaning of the collocations' constituents adopted the following criteria because the L1-L2 congruency involves translation and the constituents are polysemic: verbs' meanings complied with the first two definitions, while nouns' and adjectives' meanings followed word's first definition [5].

The EPrime 2.0 software was used to administer the data collection of NNSs. The online experiment platform Gorilla (Anwyl-Irvine et al., 2020) hosted the data collection of NSs and used the same experimental protocol as the NNSs. After registering for the experiment, participants received a URL. They were instructed to finish the experiment in a single session, by themselves, and in a peaceful setting. On a display screen, each stimulus was shown in a randomly chosen order. We employed the acceptability judgment task, which asked participants to determine whether the English-language stimuli were often used. Additionally, the task raises the likelihood that participants would focus on the not just collocation forms, but also collocation meanings.


If participants believed the words were often used in English, they were instructed to press the J key; if they believed the phrases were not commonly used in English, they were instructed to press the F key (Wolter and Yamashita, 2017). First, a series of asterisks (Font 48) was shown in the middle of the screen. Following that, there was a blank screen for around 66 ms until a stimulus appeared. Until it was

either reacted to or timed out at 4,000 ms, the stimulus remained visible on the screen. On average, participants took less than 12 minutes to do the activity. All participants provided informed consent, guaranteeing the anonymity of all data, and the experiment was conducted in accordance with local ethical standards.

**Results.** The NS and NNS data were analyzed separately. Thirty-seven NNSs and twenty NSs participants remained after two NNS subjects and one NSs with significant error rates (ER) were eliminated for the data analysis. Refer to Figures 1 and 2 for the task's NSs and NNSs RT and ACC. Moreover, the model selection process illustrated below included quadratic terms for every categorical independent variable in order to look for any residual nonlinearity in RT or accuracy rate (ACC) data. The R statistical platform was used to analyze the data using linear mixed-effects modeling using certain collocation rate in discourse [6]. Both random and fixed effects might be added thanks to mixed-effects modeling. Items and individuals had random effects in this study, whereas independent variables had fixed effects.

The maximum model comprising (1) RT and ACC as dependent variables, (2) all potential main effects of independent variables, (3) all potential interaction effects of them, and (4) all accessible quadratic terms was the starting point for the model-fitting model approach. Collocation type (VN, AN), limitation (free, restricted), and congruency (congruent collocations, English-only collocations) were the independent variables. Values for the variance information factor (VIF) were calculated in R using VIF to ensure that multicollinearity among independent variables was not an issue.

It was discovered that L1-L2 congruency had no discernible major influence on NSs' ACC or RT, meaning that there was no difference between congruent and English-only collocations in terms of ACC and RT. Collocation type had no discernible major influence on RT or ACC, suggesting that AN and VN collocations did not vary in response. Collocation limitation had a substantial main effect on ACC and RT, suggesting that NSs performed quicker and more accurately on limited collocations than on unconstrained collocations. On either RT or ACC, the L1-L2 congruency by collocation type interaction was not significant. Neither RT nor ACC showed any significant effects from the L1-L2 congruency by collocation limitation interaction. Neither ACC nor RT showed a significant interaction between collocation type and collocation constraint.



In contrast to English-only collocations, NNSs were more accurate on congruent collocations, as evidenced by the strong main impact of L1-L2 congruency on ACC but not RT. VN and AN collocations did not differ in response, as evidenced by the lack of a significant main impact of collocation type on ACC or RT. Collocation limitation had no discernible major effect on either ACC or RT, suggesting that limited and free collocations did not vary in response. For both RT and ACC, the L1-L2 congruency by collocation type interaction was not significant. For ACC but not RT, the interaction between collocation type and collocation constraint was not significant. Neither ACC nor RT showed a significant interaction between L1-L2 congruency by collocation type and collocation limitation.

#### Discussion. L1-L2 congruency effect

As expected, the NNSs group processed congruent collocations far more accurately than English-only collocations, while the NSs processed them almost as precisely. This implies that for L2 learners, congruent collocations are easier to process than incongruent collocations. Prior research using various tasks and L2 learners has found similar results. Using an acceptability assessment task (2013) and an LDT (2011), Wolter and Gyllstad found that L1 Swedish learners had a congruency advantage. Additionally, in both tests, Wolter and Gyllstad (2011, 2013) discovered that incongruent collocations had much higher error rates for NNSs than congruent collocations. Furthermore, using Yamashita and Jiang's (2010) acceptable judgment test, the two groups of L1 Japanese speakers had varying levels of L2 proficiency.

#### Effect of collocation limitation

A number of intriguing results were found about the sensitivity of NSs and NNSs to the collocation constraint. The findings imply that while NNSs were not affected by the collocation constraint, NSs were. In general, native speakers handle constrained collocations better than free collocations, whereas NNSs do not. For instance, the processing advantage for NSs was much higher for the limited collocation-"heavy heart"-than for the free combination-"mean age," whereas NNSs did not vary. Ellis et al. (2008) investigated how multiword sequences from academic contexts are processed using a range of comprehension and production tasks.

It was discovered that the corpus-based association measure known as MI scores changed how L1 speakers processed multiword sequences (Gablasova et al., 2017). Although the results were fascinating, they were constrained by the small sample size and the absence of control over confounding factors, such as collocation frequency, which were well managed in our current investigation. Furthermore, recent empirical research has also examined how MI affects collocational processing. Yi (2018) looked at how responsive advanced L2 and L1 learners were to MI values of AN collocations and discovered that both L1 and L2 speakers were affected by MI scores simultaneously. The L2 speakers also showed a greater sensitivity to MI levels than the L1speakers.

**Conclusion.** The goal of the current study was to find out if L1 and L2 speakers are sensitive to the kind, restriction, and congruency of collocations between L1 and L2. The results of this study provide evidence that Uzbek L2 speakers are attentive to L1-L2

congruency underlying collocations, but native English speakers are not. Additionally, Uzbek L2 speakers are not sensitive to the collocational constraint, but native English speakers are. Additionally, for both L1 and L2 speakers, there is no interaction impact between L1-L2 congruency, collocation type, and collocation constraint. Collocations are likely to be processed by native English speakers based on their limitation, disregarding the L1-L2 congruency of collocations.

According to MI scores, the results indicated that L1 and L2 speakers are sensitive to collocational flexibility differently. Native speakers see constrained collocations as more plausible than free combinations, but L2 speakers have trouble identifying collocational constraint. Additionally, it appears that L2 English speakers interpret collocations more overtly by referring to the L1-L2 congruency rather than taking collocation restrictions into account. These results provide valuable insight into the impact of limitation, collocation type, and L1-L2 congruency on collocation processing.

#### REFERENCE

1. Akhtar, N., and Tomasello, M. (1997). Young children's productivity with word order and verb morphology. *Dev. Psychol.* 33, 952–965. doi: 10.1037/0012-1649.33.6.952
2. Baker, C. L. (1979). Syntactic theory and the projection problem. *Ling. Inquiry* 10, 533–581.
3. Barfield, A., and Gyllstad, H. (2009). *Researching Collocations in Another Language: Multiple Interpretations*. Basingstoke: PalgraveMacmillan.
4. Clark, E. V. (1996). *Early Verbs, Event Types and Inflections*. Vol. 9. Mahwah, NJ: Lawrence Erlbaum Associates.
5. Conklin, K., and Carrol, G. (2018). "First language influence on the processing of formulaic language in a second language," in *Understanding Formulaic Language* (Routledge), 62–77.
6. Kuznetsova, A., Brockhoff, P. B., and Christensen, R. H. B. (2015). *lmerTest: Tests in Linear Mixed Effects Models*. R Package Version 2.0-29. Available online at: <https://CRAN.Rproject.org/package=lmerTest>
7. Millar, N. (2011). The processing of malformed formulaic language. *Appl. Linguist.* 32, 129–148. doi: 10.1093/applin/amq035
8. Palmer, H. E. (1933). "Second interim report on English collocations," in *The Tenth Annual Conference of English Teachers Under the Auspices of the Institute for Research in English Teaching*, Tokyo
9. RashidovaGulshodallhomiddinqizi. (2022). Teaching Collocations Using Modern Technologies. *Eurasian Scientific Herald*, 4, 88–91. Retrieved from <https://geniusjournals.org/index.php/esh/article/view/470>
10. Richards, J. C. (1976). The role of vocabulary teaching. *TESOL Q.* 10, 77–89. doi: 10.2307/3585941
11. Simpson-Vlach, R., and Ellis, N. C. (2010). An academic formulas list: New methods in phraseology research. *Appl. Linguist.* 31, 487–512. doi: 10.1093/applin/amp058
12. Simpson-Vlach, R., and Ellis, N. C. (2010). An academic formulas list: New methods in phraseology research. *Appl. Linguist.* 31, 487–512. doi: 10.1093/applin/amp058



**Nigoraxon RO'ZIBAYEVA,**  
Toshkent davlat yuridik universiteti katta o'qituvchisi  
E-mail: nigora004@gmail.com

TDYU professori, f.f.n G.Gulyamova taqrizi asosida

### XALQ OG'ZAKI IJODI NAMUNALARINI TARJIMA QILISHDA MUQOBILSIZ BIRLIKLAR MASALASI

Annotatsiya

Mazkur maqolada xalq og'zaki ijodi namunalarini tarjima qilish jarayonida uchraydigan muqobilsiz birliklar masalasi yoritiladi. Xalq og'zaki ijodiga xos bo'lgan lingvistik va madaniy birliklar, odatda, boshqa tillarda to'g'ridan-to'g'ri ekvivalentga ega bo'lmaydi. Ushbu birliklarning tarjimasida semantik mazmunni saqlash va til o'quvchilariga tushunarli shaklda yetkazish uchun turli strategiyalardan foydalaniladi. Tadqiqotda muqobilsiz birliklar bilan ishlashning samarali usullari va ular tarjimaning badiiy-estetik qiymatini saqlashdagi ahamiyati tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** Xalq og'zaki ijodi, muqobilsiz birliklar, tarjima nazariyasi, madaniy tafovutlar, tarjima strategiyalari.

### ПРОБЛЕМА БЕЭКВИВАЛЕНТНЫХ ЕДИНИЦ ПРИ ПЕРЕВОДЕ ОБРАЗЦОВ НАРОДНОГО УСТНОГО ТВОРЧЕСТВА

Аннотация

В статье рассматривается проблема безэквивалентных единиц, возникающая при переводе образцов народного устного творчества. Лингвистические и культурные элементы, характерные для фольклора, часто не имеют прямых эквивалентов в других языках. Для передачи их семантического содержания и обеспечения понятности для целевой аудитории используются различные переводческие стратегии. В исследовании анализируются эффективные методы работы с безэквивалентными единицами и их роль в сохранении художественно-эстетической ценности перевода.

**Ключевые слова:** Народное устное творчество, безэквивалентные единицы, теория перевода, культурные различия, переводческие стратегии.

### THE ISSUE OF NON-EQUIVALENT UNITS IN TRANSLATING FOLK ORAL LITERATURE

Annotation

This article examines the issue of non-equivalent units in the process of translating samples of folk oral literature. Linguistic and cultural elements characteristic of folklore often lack direct equivalents in other languages. Various translation strategies are employed to preserve their semantic content and convey them in a comprehensible form for the target audience. The study analyzes effective methods for handling non-equivalent units and their role in maintaining the artistic and aesthetic value of the translation.

**Key words:** Folk oral literature, non-equivalent units, translation theory, cultural differences, translation strategies.

**Kirish.** Xalq og'zaki ijodi insoniyatning madaniy va ma'naviy merosi sifatida xalqlarning hayot tarzi, qadriyatlarini, urf-odatlarini va dunyoqarashini o'zida aks ettiradi. O'zining badiiy-estetik xususiyatlari bilan ajralib turadigan bu asarlar ko'p asrlar davomida og'zaki shaklda avloddan-avlodga o'tib kelgan. Ular har bir millatning o'ziga xos madaniy-milliy o'zligini ifodalaydi. Ammo xalq og'zaki ijodining tarjimasida jarayonida lingvistik va madaniy tafovutlar ko'pincha qiyinchiliklarga olib keladi. Xususan, muqobilsiz birliklar muammosi tarjimonlardan ijodiy va lingvistik jihatdan yuksak mahorat talab qiladi.

Muqobilsiz birliklar — bir tildagi so'z, ibora yoki tushuncha boshqa tillarda to'g'ridan-to'g'ri ekvivalentga ega bo'lmagan leksik birliklardir. Ular ko'pincha xalqning o'ziga xos hayot tarzi, urf-odatlarini, diniy e'tiqodlarini, ijtimoiy tuzumi yoki tabiatiga bog'liq bo'ladi. Misol uchun, o'zbek xalqining og'zaki ijodidagi "qiz o'g'irlash" yoki "yuzi shivit bo'lmoq" kabi birliklar boshqa tillarga tarjima qilinayotganda muayyan lingvistik va madaniy muammolarni keltirib chiqaradi. Tarjimonning vazifasi ushbu birliklarning semantik va pragmatik mazmunini maqsadli tilga moslashtirishdan iborat.

Tarjima nazariyasida muqobilsiz birliklarni tarjima qilish bo'yicha turli strategiyalar ishlab chiqilgan. Ularga izohli tarjima, modulyatsiya, ekvivalent yaratish, madaniy moslashuv va boshqa usullar kiradi. Ushbu maqola xalq og'zaki ijodida uchraydigan muqobilsiz birliklarni tarjima qilishda yuzaga keladigan qiyinchiliklarni tahlil qiladi va bu muammolarni hal etish bo'yicha samarali strategiyalarni ko'rsatadi.

**Metodologiya.** Ushbu tadqiqot xalq og'zaki ijodidagi muqobilsiz birliklarni tarjima qilish masalasini chuqur tahlil qilish va bu muammolarni hal etish uchun samarali strategiyalarni aniqlashga qaratilgan. Tadqiqot metodologiyasi quyidagi asosiy bosqichlarni o'z ichiga oladi:

Empirik ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish. Xalq og'zaki ijodiga oid asarlar, jumladan, o'zbek xalq ertaklari, maqollar, matallar va dostonlarning ingliz tiliga qilingan tarjimalari tahlil qilindi. Ushbu matnlardagi muqobilsiz birliklarning tarjimasida alohida o'rganilib,

ularning semantik va stilistik jihatdan qay darajada moslashtirilgani aniqlandi.

Muqobilsiz birliklarni tasniflash. Tadqiqot davomida muqobilsiz birliklar turkumlarga ajratildi:

Madaniy birliklar (urf-odatlar, an'analar, milliy liboslar, taomlar).

Tabiiy birliklar (o'ziga xos geografik nomlar, o'simliklar va hayvonlar).

Ijtimoiy birliklar (ijtimoiy lavozimlar, oila va jamiyatga oid tushunchalar). Bu tasniflash har bir turkumdagi birliklarni tarjima qilishda qo'llanilgan usullarni aniqlashga imkon berdi.

Sifatli tahlil. Olingan misollar lingvistik, stilistik va pragmatik jihatdan tahlil qilindi. Tarjimonlar tomonidan qo'llangan strategiyalar, masalan, izohli tarjima, ekvivalent yaratish, moslashtirish kabi usullarni qaysi hollarda samarali bo'lganligi o'rganildi.

Amaliy tavsiyalar ishlab chiqish. Natijalarga asoslanib, muqobilsiz birliklarni tarjima qilish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. Ushbu tavsiyalar tarjimonlarga xalq og'zaki ijodi namunalarini til o'quvchilariga badiiy-estetik va madaniy jihatdan to'g'ri yetkazishga yordam berishga qaratilgan.

Mazkur metodologiya muqobilsiz birliklarni tarjima qilish masalasini tizimli o'rganish va ularni bartaraf etish bo'yicha ilmiy asoslangan yechimlarni taklif etishga imkon berdi.

**Adabiyotlar tahlili.** Xalq og'zaki ijodi namunalarini tarjima qilish jarayonida muqobilsiz birliklar bilan bog'liq muammolar ko'plab olimlar tomonidan o'rganilgan. Ushbu bo'limda mazkur masala bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar va nazariy yondashuvlar tahlil qilinadi.

Omon Mo'minov o'zining "Madaniyatlararo kommunikatsiyada stilistik vositalarning tarjimadagi roli" asarida xalq og'zaki ijodiga xos bo'lgan muqobilsiz birliklarning madaniy va lingvistik ahamiyatini chuqur tahlil qiladi. Uning fikricha, bunday birliklarni tarjima qilish jarayonida izohli tarjima va madaniy

moslashuv strategiyalaridan foydalanish zarur, chunki bu usullar asarning badiiy-estetik qiymatini saqlab qolishga yordam beradi [1].

G'. Salomov "Tarjima nazariyasiga kirish" asarida xalqa og'zaki ijodida uchraydigan madaniy birliklarni tarjima qilishda yuzaga keladigan qiyinchiliklar haqida to'xtalib o'tgan. U muqobilsiz birliklarni tarjima qilishda semantik moslik va madaniy kontekstni hisobga olish muhimligini ta'kidlaydi. Salomovning fikricha, milliy koloritni yo'qotmaslik tarjimaning badiiy sifatini oshiradi [2].

B. Qambarov o'zining "Adabiy tarjimada stilistik muammolar" asarida xalqa og'zaki ijodi namunalari uchraydigan lingvistik birliklarni boshqa tillarga tarjima qilish jarayonida yuzaga keladigan muammolarni tarjima qilish tahlil qiladi. Qambarov muqobilsiz birliklarni tarjima qilishda ekvivalent yaratish va kontekstual izoh berish usullarining ahamiyatini ta'kidlaydi [3].

V. Komissarov stilistik vositalarni tarjima qilish bo'yicha fundamental tadqiqotlarida xalqa og'zaki ijodida uchraydigan madaniy birliklarni tarjima qilish jarayonida qo'llaniladigan usullarni tahlil qiladi. U "Lingvistik va tarjima nazariyasi asoslari" asarida muqobilsiz birliklarni qayta yaratish orqali asarning o'ziga xosligini saqlash muhimligini qayd etadi [4].

L. S. Barxudarov o'zining "Язык и перевод" asarida muqobilsiz birliklarni tarjima qilishda lingvistik va pragmatik transformatsiyalardan foydalanishni taklif qiladi. U tarjimon ushbu birliklarning badiiy va semantik mazmunini saqlab qolish uchun madaniy ekvivalentlar yaratishga intilishi kerakligini ta'kidlaydi [5].

X. Mirzaev xalqa og'zaki ijodining madaniy va badiiy xususiyatlarini o'rganib, muqobilsiz birliklarni tarjima qilish jarayonida milliy koloritni saqlash muhimligini ta'kidlaydi. Mirzaevning fikricha, tarjimon xalqning tarixiy va madaniy xususiyatlarini tushunishi, bu ma'lumotlarni tarjimada to'g'ri aks ettirishi lozim [6].

Sh. Sattorov muqobilsiz birliklarni lingvistik va madaniy jihatdan tasniflab, ularni tarjima qilishda qo'llaniladigan turli strategiyalarni tahlil qiladi. U o'zining tadqiqotlarida kontekstual izoh va madaniy moslashuvning badiiy-estetik qiymatni saqlashdagi ahamiyatini ko'rsatadi [7].

**Tahlil.** Xalqa og'zaki ijodini tarjima qilish jarayonida muqobilsiz birliklar katta muammolarni keltirib chiqaradi. Ushbu birliklar boshqa tillarda to'g'ridan-to'g'ri ekvivalentga ega bo'lmagani sababli, tarjimon ularga mos keladigan ekvivalent yaratish yoki ma'noni izoh bilan tushuntirishga majbur bo'ladi. Quyida ushbu muqobilsiz birliklarning turli misollari va ularni tarjima qilishda qo'llanilgan strategiyalar tahlil qilinadi.

1. Madaniy birliklar. Madaniy birliklar xalqning urf-odatlarini, diniy e'tiqodlari va milliy qadriyatlarini bilan bog'liq bo'lib, ular boshqa madaniyatlar uchun tushunarsiz bo'lishi mumkin.

Misol: O'zbek xalq maqollarida uchraydigan "Qo'y bo'lsa, qo'ra to'ladi" iborasi hayvonchilikka oid madaniy kontekstga ega. Ingliz tilida bu ibora "If there are sheep, the pen will be full" tarzida so'zma-so'z tarjima qilinsa, uning mazmuni to'liq tushunilmasligi mumkin.

Yechim: Tarjimon madaniy izoh qo'shib, iborani quyidagicha tarjima qilishi mumkin: "If there are resources (like sheep), wealth (like a full pen) will follow." Bu izoh bilan asl ma'no o'quvchiga tushunarli bo'ladi.

2. Tabiiy birliklar. Tabiiy birliklar xalqning tabiiy muhitini aks ettiradi va ko'pincha o'ziga xos geografik yoki ekologik sharoitlar bilan bog'liq bo'ladi.

Misol: "Zarafshonning oltin qumlar" iborasi o'zbek madaniyatida daryo bo'yidagi qumlar ma'lum badiiy ramz sifatida ishlatiladi. Ingliz tiliga "The golden sands of Zarafshan" deb so'zma-so'z tarjima qilinganda, bu geografik joyning ramziy ma'nosi yo'qolishi mumkin.

Yechim: Tarjimon bu iborani tushuntirish orqali kengaytiradi: "The golden sands of Zarafshan, symbolizing the region's natural wealth and beauty." Bu orqali geografik va badiiy mazmun saqlanadi.

3. Ijtimoiy birliklar. Ijtimoiy birliklar xalqning ijtimoiy hayoti va jamiyatdagi o'zaro munosabatlarni aks ettiradi.

Misol: "Ot bilan toy o'ynabdi, qishloq kulibdi" iborasi kichik voqealarning jamiyatga bo'lgan ta'sirini ifodalaydi. Ingliz tiliga so'zma-so'z tarjima qilinsa: "A horse played with a foal, and the village laughed", bu iboraning ramziy va ijtimoiy ma'nosi yo'qolishi mumkin.

Yechim: Tarjimon qo'shimcha izoh bilan tarjima qiladi: "A small event, like a horse playing with a foal, can bring joy and unity to the entire village". Bu usul orqali iboraning chuqur ma'nosi tushuntiriladi.

4. Marosim va diniy birliklar. Xalqa og'zaki ijodida marosimlarga oid birliklar muhim o'rin tutadi.

Misol: "Sumalak" so'zi diniy va madaniy marosimni anglatib, o'ziga xos ma'no yuklaydi. Ingliz tiliga so'zma-so'z "Sumalak" deb tarjima qilish yetarli bo'lmaydi, chunki uning diniy va madaniy konnotatsiyasi yo'qoladi.

Yechim: Tarjimon quyidagicha izohli tarjima qiladi: "Sumalak, a traditional Uzbek dish prepared during spring celebrations, symbolizing renewal and prosperity". Bu usul orqali iboraning diniy va madaniy mazmuni o'quvchiga to'liq yetkaziladi.

5. Poetika va ritmik birliklar. Xalqa og'zaki ijodining poetik xususiyatlarini tarjima jarayonida saqlanib qolishi muhim.

Misol: "Alpomish" dostonidagi satr: Ko'kka qaragam, yulduz yong'og'im, Yerlarga qaragam, loy xumrog'im. Bu poetik ifoda ingliz tiliga "When I gaze at the sky, I see my star; when I look at the earth, I find my clay vessel" deb tarjima qilinishi mumkin.

Yechim: Poetikaning badiiy ta'sirini saqlash uchun ritmik moslashtirish talab etiladi: In the sky, my star shines bright; On the earth, my vessel sits light. Bu tarjimada asl ritm va badiiy ta'sir saqlanadi, shu bilan birga o'quvchiga tushunarli bo'ladi.

Tahlil shuni ko'rsatadiki, xalqa og'zaki ijodida uchraydigan muqobilsiz birliklarni tarjima qilish jarayonida asosiy e'tibor ularning lingvistik va madaniy mazmunini saqlashga qaratiladi.

**Xulosa.** Xalqa og'zaki ijodidagi muqobilsiz birliklarni tarjima qilish jarayoni til va madaniyatlararo aloqalarni mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega. Ushbu birliklar o'zbek xalqining boy madaniy merosi va ma'naviy qadriyatlarini aks ettiradi, biroq ularni boshqa tillarga tarjima qilish ko'pincha lingvistik va madaniy muammolarni keltirib chiqaradi. Tarjimonning asosiy vazifasi bu birliklarning semantik mazmuni va badiiy-estetik ta'sirini saqlab qolgan holda, ularni maqsadli til o'quvchilariga yetkazishdan iboratdir.

Ushbu yondashuvlar xalqa og'zaki ijodi namunalari tarjima qilish jarayonida nafaqat ma'no va mazmuni, balki asarning hissiy va estetik ta'sirini ham saqlash imkonini beradi. Kelgusidagi tadqiqotlar muqobilsiz birliklarning turli tillar va madaniy kontekstlarda yanada samarali tarjima qilinishini ta'minlash uchun yangi strategiyalarni ishlab chiqishga qaratilishi lozim. Bu xalqlarning madaniy merosini yanada kengroq auditoriyaga yetkazishga xizmat qiladi.

#### ADABIYOTLAR

1. Mo'minov, O. (2018). Madaniyatlararo kommunikatsiyada stilistik vositalarning tarjimadagi roli. Toshkent: Akademnashr.
2. Salomov, G'. (1983). Tarjima nazariyasiga kirish. Toshkent: O'zbekiston.
3. Qambarov, B. (2020). Adabiy tarjimada stilistik muammolar. Toshkent: Yangi asr avlodi.
4. Komissarov, V. N. (1990). Lingvistik va tarjima nazariyasi asoslari. Moskva: Vysshaya Shkola.
5. Barxudarov, L. S. (1975). Yazyk i perevod: Voprosy obshchey i chastnoy teorii perevoda. Moskva: Mejdunarodnye otnosheniya.
6. Mirzaev, X. (2015). Xalqa og'zaki ijodi va tarjima san'ati. Toshkent: Fan.
7. Sattorov, Sh. (2012). Lingvistik transformatsiyalar nazariyasi. Toshkent: Universitet nashriyoti.
8. Vinogradov, V. S. (2001). Perevod: Obshchaya teoriya i praktika. Moskva: Vysshaya Shkola.
9. Holbek, B. (1987). Interpretation of Fairy Tales: Danish Folklore in a European Perspective. Helsinki: Academia Scientiarum Fennica.
10. Nida, E. A. (1964). Toward a Science of Translating: With Special Reference to Principles and Procedures Involved in Bible Translating. Leiden: Brill.





UDK: 808.3

**Mirjalol RUSTAMOV,**  
*SamDU Kattaqo'rg'on filiali o'qituvchisi*  
E-mail: mirjalolrustamov9696@gmail.uz

*NamDU dotsenti D.Sarimsakova taqrizi asosida*

### O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA MURAKKABLASHGAN SODDA GAPLARNING TADQIQI XUSUSIDA

Annotatsiya

Ushbu maqolada o'zbek tilshunosligida murakkablashgan sodda gaplarning o'rganilishi haqida to'xtalib o'tilgan. Bizga ma'lumki, tilimizda eng ko'p foydalaniladigan gap turlaridan biri bu sodda gaplardir. Sodda gaplar so'z va so'z birikmalaridan tashqari ular bilan grammatik aloqaga kirishmaydigan, ammo sintaktik munosabatga kirishib sodda gaplarni murakkablashtiruvchi birliklar ham mavjud bo'ladi, bunday birliklar introduktiv munosabat ifodalovchi birliklardir.

**Kalit so'zlar:** uyushiq bo'laklar, undalmalar, kirish va kiritma qurilmalar, ajratilgan bo'laklar, sifatdosh va ravishdosh o'ramlar, harakat nomli tizimlar.

### ОБ ИССЛЕДОВАНИИ СЛОЖНЫХ ПРОСТЫХ ПРЕДЛОЖЕНИЙ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКОЗНАНИИ

Аннотация

В данной статье рассматривается изучение простых высказываний, которые являются сложными в узбекском языкознании. Мы знаем, что одним из наиболее распространенных типов речи в нашем языке являются простые высказывания. Простые слова состоят из сочетаний слов и словосочетаний. Однако, кроме сочетаний слов и словосочетаний, простые слова содержат единицы, не имеющие с ними грамматических связей, а являются синтетическими, усложняющими простые слова, такие единицы являются единицами, представляющими вводное отношение.

**Ключевые слова:** унифицированные фигуры, стимулы, устройства ввода и вывода, разделенные фигуры, качественные и сопутствующие кадры, системы, называемые движением.

### THE STUDY OF SIMPLE SENTENCES COMPLICATED IN UZBEK LINGUISTICS

Annotation

This article discusses the study of simple statements that are complicated in Uzbek linguistics. We know that one of the most widely used types of speech in our language is simple statements. Simple words are made up of combinations of words and phrases. In addition to combinations of words and phrases, however, simple words contain units that do not have grammatical connections with them but are synthetic, complicating simple words, such units are units that represent an introduced relationship.

**Key words:** unified pieces, incentives, input and input devices, separated pieces, quality and companion frames, systems called movement.

**Kirish.** Til – millatning millat bo'lib shakllanishida xizmat qiluvchi, milliy o'zlikni anglatuvchi eng qudratli vosita. Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan so'ng esa tilga e'tibor ayniqsa kuchaydi. Yurtboshimizning sa'y-harakatlari bilan tilga oid qonun va qarorlar qabul qilindi. Jumladan Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev aytib o'tganlaridek "Dunyodagi boy va qadimiylar tillardan biri bo'lgan o'zbek tili xalqimiz uchun milliy davlatchiligimiz timsoli, bebaho ma'naviy boylik, buyuk qadriyatdir. Kimda-kim o'zbek tilining bor latofatini, jozibasini va ta'sir kuchini, cheksiz imkoniyatlarini his qilmoqchi bo'lsa, munis onalarimizning allalarini, ming yillik dostonlarimizni, o'lmas maqolalarimizni eshitisin, baxshi va hofizlarimizning sehrli qo'shiqlariga quloq tutsin" [1]. Zero, til - millatning sha'ni, g'ururi sanalishi bilan ham qimmatli sanaladi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Faqat til mustaqilligi va yurt mustaqilligi o'z tilimizning ichki qonuniyatlarida asosida o'rganishga katta imkoniyatlar eshigini ochib berdi. Hozirda fanning barcha sohalarini bo'yicha mavjud muammolarni o'rtaga tashlash, ularga nisbatan o'z fikr-mulohazalarimizni bildirishga hech qanday ta'qiq yo'q. Ushbu maqolada o'zbek tilshunosligida mustaqillikkacha va mustaqillikdan so'ng sintaksis tizimida, asosan, sodda gaplarning murakkablashuvi hodisasi ya'ni murakkablashgan sodda gaplar yuzasidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar, bu sintaktik birlikning o'ziga xos xususiyatlari, murakkablashgan sodda gaplarni shakllantiruvchi grammatik vositalar sirasiga kiruvchi introduktiv munosabat ifodalovchi birliklarning gaplarni sintaktik, semantik jihatdan murakkablashtirishi, murakkab fikrning yuzaga chiqishidagi o'rni yuzasidan o'z fikr-mulohazalarimizni bildirib o'tmoqchimiz.

Bizga ma'lumki inson, eng avvalo, muloqat qilish uchun, so'ngra o'z bilimlarini boyitish uni boshqalarga yetkazishda tildan foydalanadi. Tilning eng kichik ma'no ifodalovchi birligi esa gapdir. Voqelikni va unga bo'lgan munosabatni ifoda qilish uchun grammatik jihatdan shakllangan ohang va mazmun jihatidan nisbiy tugallikka ega bo'lgan so'z va so'zlar bog'lanmasiga gap deyiladi. Gap asosan so'zlarning ma'lum grammatik qoidalari asosida birikuvidan hosil

bo'ladi. Nutqimizda eng ko'p foydalaniladigan gap turlaridan biri sodda gaplardir.

Sodda gaplar kommunikativ vazifani bajaruvchi eng kichik lekin muhim sintaktik birlikdir. Sodda gaplar fikr bildirishning, o'zaro so'zlashuv nutqining asosiy xususiyatlaridan biridir. Gaplarning qurilishiga ko'ra boshqa turlari, ya'ni murakkablashgan sodda gaplar, qo'shma gaplar, murakkab qo'shma gaplarning shakllanishida ham sodda gaplar asos sifatida muhim o'rin tutadi. Ma'lum bir fikr so'z yoki predikativ munosabatdagi birikma orqali yuzaga chiqadi. So'z yoki birikma orqali ifodalangan gap sharoitga, suhbatdoshning fikriga va umuman fikrning rivojiga qarab kengaya boradi. Natijada sodda gaplarning murakkablashgan turi yuzaga keladi.

Eng avvalo, ushbu sintaktik birlikning nomlanishi haqida bir to'xtalib o'tish o'rindir. Chunki adabiyotlarda ularni turlicha nomlash holatlari ko'zga tashlanadi. Ilk bor ushbu sintaktik kategoriya haqida "O'zbek tili grammatikasi" nomli kitobda gap yuritilgan. Bu kitobda murakkablashish xususiyatiga ega bo'lgan sodda gaplar turini murakkab gap konstruksiyasi [2] deb nomlangan.

A. G'ulomov, M. Asqarovalar tomonidan yaratilgan "Hozirgi o'zbek adabiy tili" darsligida shunday yozilgan: "Sodda gapni murakkablashtiruvchi elementlar xilma-xil: uyushiq bo'laklar, ajratilgan bo'laklar, kirish konstruksiyalar, kiritma konstruksiyalar va undalmalar. Bunday murakkablashtirish gapni sodda gap doirasidan chiqarib yubormaydi, balki murakkablashgan sodda gap hosil qiladi" [3].

Atoqli olim G'. Abdurahmonov bu turdagi sintaktik birliklar haqida shunday deydi: "Murakkab gap sintaksisining tarkibiy qismini ajratilgan bo'laklar, undalmalar, kirish yoki izoh bo'lak va birikmalar tashkil etadi. Bu sintaktik kategoriyalar oddiy gap bo'laklaridan ham, qo'shma gapni hosil qiluvchi qurilmalardan ham farqlanib, murakkab gap qurilmalari deb yuritiladi" [4].

N. Mahmudov va A. Nurmonovlar esa murakkab gap atamasi ko'proq qo'shma gap turiga nisbatan qo'llanishini e'tiborga olib, sodda gap doirasidagi bunday qurilmalarga nisbatan murakkablashgan gaplar atamasini qo'llash maqsadga muvofiq deb hisoblashadilar [5].

B. O'rinboyev ushbu sintaktik kategoriyaga quyidagicha ta'rif beradi. "Sodda gapning tarkibida uyushiq bo'laklar, undalmalar, kirish va kiritma qurilmalar, ajratilgan bo'laklar, sifatdosh va ravishdosh o'ramlar, harakat nomli tizimlar qatnashib sodda gapni ham shakliy, ham mazmuniy jihatdan murakkablashtiradi. Bunday gaplar murakkablashgan sodda gaplar deb ataladi" [6].

Yuqoridagilardan ham ko'rinib turibdiki, ko'rsatilgan adabiyotlarda murakkab ko'rinishga ega bo'lgan sodda gaplarning nomlanishi borasida ham olimlarimiz bir atamani tanlashmaganlar. "O'zbek tili grammatikasi" kitobida "murakkab gap konstruksiyasi", A.G'ulomov, M. Asqarovalar "murakkablashgan sodda gap", G'. Abdurahmonov "murakkab gap qurilmalari", N. Mahmudov, A. Nurmonovlar "murakkablashgan gaplar", B. O'rinboyev "murakkablashgan sodda gaplar" deb nomlaganlar. Vaholanki, tilshunoslikdagi ma'lum bir til kategoriyasi olimlar o'rtasida bir xil nomlanishi maqsadga muvofiq bo'lib, bu ba'zi bir chalkashliklarning kelib chiqishining oldini olar edi. Chunki til fani ham aniqlikni talab qiladigan fanlardan hisoblanib, aniq va tog'ri javobni talab qiladi. Albatta, yuqoridagi ta'rif va nomlanishlar ham biz o'rganayotgan sintaktik birliklar xarakterini u yoki bu darajada ochib bergan. Lekin yuqorida ta'kidlaganimizdek, atashda bir xillik bo'lishi juda ko'p anglashuvmovchiliklarning oldini olgan bo'lar edi.

Bizningcha, yuqoridagi fikrlarni tahlil qilgan holda ushbu sintaktik birliklarni "murakkablashgan sodda gaplar" deb atash o'rinlidir. Chunki, ushbu gap turi sodda gapning turli til birliklari vositasida murakkablashishi natijasida hosil bo'ladi. Ya'ni u qo'shma gap darajasiga yetmaydi, sodda gapdan esa tarkibi va fikr to'liqligi bilan farqlanadi. Faqat sodda gap murakkablashish xususiyatini kasb etadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Bundan tashqari tilda ma'lum sistema mavjudki, u hamisha soddadan murakkabga, quyidan yuqoriga harakatlanadi va bir xillikni ta'minlashga harakat qiladi. E'tibor qilsak, so'z birikmasi sodda va murakkab gap bo'laklari ham sodda va murakkab ko'rinishlarga ega. Shuningdek, qo'shma gap ham murakkab turiga ega. Shularni inobatga olgan holda, sodda gapning bu ko'rinishini "murakkablashgan sodda gaplar" deb atash maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Ushbu ta'rif A. G'ulomov, M. Asqarova va B. O'rinboyevlarning fikrlari bu sintaktik birliklar xarakteriga mos keladi va shunday deb atash maqsadga muvofiq bo'lar edi. Ushbu maqolada yuqoridagi fikrlarni har tomonlama tahlil qilgan holda, o'rganayotgan obyektimizni "murakkablashgan sodda gaplar" deb nomlash to'g'ri bo'ladi deb hisoblaymiz.

**Tahlil va natijalar.** Sodda gap tarkibini murakkablashtiruvchi uyushiq bo'laklar o'ziga xos xususiyatga ega. "Gapning uyushiq bo'laklari", "uyushiq bo'lakli gaplar", "murakkab gaplar", "uyushiq qurilmalar" kabi atamalar sifatida nomlanib kelinayotgan bu sintaktik birliklarning qo'llanilishini qadim davrlar yozma manbalarida ham uchratishimiz mumkin. Xususan, XI asr yozma yodgorligi bo'lgan "Devonu lug'atit turk"da uyushiq bo'laklar fikrni ta'sirchan ifodalash vositasi sifatida qo'llanilgan:

Qush, qurt qamug' tirildi,

Erlik tishi terildi.

O'kur olib tarildi

Yinqa yana kirgusuz (M. Qoshg'ariy. "Devonu lug'atit turk").

Asarda qo'llanilgan qush, qurt, erlik, tishi so'zlari uyushiq ega sifatida to'rtlikning poetik ta'sirchanligini aks ettirish uchun xizmat qilmoqda. Ma'lumki, Fitratning "O'zbek tili qoidalari to'g'risida bir tajriba. Nahv" kitobi o'zbek tilshunosligi tarixidagi muhim manba hisoblanadi. Hali o'zbek tili sintaksisi deyarli rivojlanmagan, ayrim sintaktik atamalar tizimi izga solinmagan davrda Fitratning ushbu darsligi o'zbek tilshunosligi tarixida katta yangilik

bo'ldi. Bu darslik 1925-1930- yillar davomida uch marta nashr etildi. Uning 1930-yilda nashr etilgan varianti nisbatan mukammal bo'lib, "gapning uyushg'on bo'laklari yoki qisqacha uyushmalar" atamali bilan nomlangan uyushiq bo'laklar dastlab Fitratning shu asarida keltiriladi. Shuningdek, aniqlik va sifat uyushmalarida qaratqich va sifatning birdan ortiq kelishi ta'kidlanadi [7].

"Til saboqligi" va "Nahv" asarlaridagi uyushiq bo'laklarga oid fikrlar hozirgi davrga nisbatan ancha sodda bo'lsa ham, lekin tilshunoslik uchun muhim ilmiy qarashlardan hisoblanadi. O'zbek tilshunosi A. G'ulomov qayta tahrirdan chiqqan "Sodda gap" ilmiy asarida gapda qo'llaniladigan uyushiq bo'laklar, ularning turlari va ifoda etish yo'llari haqida ma'lumot beradi [8].

D. Ashurova, F. Ubayeva, H. Boltaboevalarning "Gapning uyushgan va ajratilgan bo'laklari" ilmiy asari 2 qismdan tashkil topgan bo'lib, birinchi qismda uyushgan bo'laklarning semantik-logik xususiyatlari, morfologik hamda sintaktik belgilari, ularning o'zaro bog'lanish usullari yoritilgan [9].

Sodda gap tarkibini murakkablashtiruvchi uyushiq bo'laklar o'ziga xos uslubiy xususiyatga ega. Uning bu xususiyati, asosan, badiiy uslubda namoyon bo'ladi. Murakkablashgan sodda gapni yuzaga keltiruvchi ushbu sintaktik birlik badiiy asar ta'sirchanligini ta'minlovchi uslubiy vosita sifatida peyzaj detallari, harakat dinamikasini ifodalash uchun ishlatiladi. Shunga asosan tilshunos H. Xoliqov yozuvchi Abdulla Qahhor asarlari misolida murakkablashgan sodda gaplar uslubiyatini tadqiq etish jarayonida uyushiq bo'laklarning uslubiy xususiyatlarini maxsus tadqiq etgan [10].

Badiiy uslub faqat zamonaviy yoki tarixiy asarlarga oid bo'lmasdan, xalq og'zaki ijodi namunalari ham shu uslubda yaratiladi. Ertaklarga ma'lum xalqning og'zaki ijodi namunasi sifatida ta'rif berilar ekan, ularning mazmunini yoritish til birliklari vositasida amalga oshiriladi. Yuqorida uyushiq bo'laklarda harakat dinamikligini amalga oshiruvchi xususiyat borligini ta'kidlagan edik. Ertaklarda voqea-hodisalar, albatta, xatti-harakat orqali ifodalangan. Shu jihatdan o'zbek xalq ertaklaridagi aniqlikchilarni maxsus tadqiq etgan N. Dosanov bu bo'laklarning uyushiq holda qo'llanilishiga ham e'tiborni qaratadi. Uning fikricha, uyushiq bo'laklar fikrni aniq, to'liq, obrazli ifodalab, nutqqa ifodalilik, emotsionallik va ko'tarinkilik berish uchun xizmat qiladi. Bular, ayniqsa, ertak tili uchun juda zarur xususiyat ekanligini ta'kidlaydi.

An'anaviy tilshunoslikning sintaksis bo'limida o'rganilayotgan ega tarkibi va kesim tarkibi, rema va tema kabi ilmiy atamalar har qanday gap uchun aloqador. Bu aloqadorlikka binoan so'z va gaplar mazmunan hamda shaklan kengayadi. Tilshunos YO. Tojiev mana shu jarayonga e'tiborini qaratgan holda sodda gapdagi tema va rema qismlarining kengayishidan murakkablashgan sodda gapning hosil bo'lishini ta'kidlaydi.

Olimning fikricha, sodda gapning murakkablashgan sodda gapga aylanishini belgilovchi aniq bir o'lchov, me'yor yoki qandaydir aniq chegara, tamoyil yo'q. Barcha murakkablashishlar tema va remaning kengayishi va izohlanishi natijasida yuzaga kelishini aytadi. Murakkablashgan sodda gaplarning barcha asosiy andozalarini belgilab chiqish esa gap tema va rema qismlarini belgilovchi ega va kesimning kengayishi imkoniyatlari va qonuniyatlarini belgilashdan boshlanadi [11].

**Xulosa va takliflar.** Xulosa o'rinda aytish mumkinki, uyushiq bo'laklar tilshunoslikda ma'lum darajada o'rganilgan va o'rganilmoqda. Tilshunos olimlarni qiziqtirayotgan mavzu bo'lgani uchun ushbu sintaktik birlik to'g'risida bahsli fikr-mulohazalar ham bo'lmoqda. Muayyan mavzu atrofidagi bahsli fikrlar esa har doim qiziqarli va salmoqli ilmiy yangiliklar yaratilishiga sabab bo'ladi.

## ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz.-T.:O'zbekiston NMIU,2017. -B.57.
2. Ўзбек тили грамматикаси. 2 том. Синтаксис. Т.: Фан, 1976. -Б.208.
3. Ғулумов А, Асқарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. -Т.: Ўқитувчи, 1987. -Б.140.
4. Абдурахмонов. Ўзбек тили грамматикаси. -Т.: Ўқитувчи, 1996. -Б.47.
5. Махмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. -Т.: 1995. -Б.97.
6. Ўринбоев Б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. -Самарқанд, 2006, -Б.120.
7. Фитрат А. Танланган асарлар. Наҳв. (IV жилд) –Тошкент: Маънавият, 2006. –Б. 197-200.
8. Ғулумов А. Содда гап. –Тошкент: ЎзФА, 1955. –Б. 92-97.
9. Ашурова Д., Убаева Ф., Болтабоева Х. Гапнинг уюшган ва ажратилган бўлаклари. –Тошкент: Ўзфанакадашр, 1962. – Б. 179.
10. Холиқов Х. Ҳозирги ўзбек адабий тилидамураккаблашгансодда гаплар услубияти (А. Қаҳҳор асарлари материаллари асосида). Филол. фанлари номзоди. . . дис. автореф. – Тошкент, 1993. –Б. 8-10.
11. Тожиёв Ё. Туркий тилларда гап бош бўлақларининг кенгайиш имкониятлари ва қонуниятлари // Тил илмига садоқат. (Тўплам) – Тошкент: Мумтоз сўз, 2010. – Б. 3-9.



UDK: 82:311.1:821.512.133

Mukhayyo SADULLAEVA,

Uzbekistan National University Department: Foreign language and literature Sophomore student of Master's Degree  
E-mail: mukhayyosadullaeva@gmail.com

Based on PhD, associate professor Z.Pardaev's review

#### ESSENTIAL TOOLS OF PSYCHOLOGICAL ANALYSIS TO AID IN THE EXPLORATION OF SAIDI'S SPIRITUAL WORLD

Annotation

This article provides detailed information about one of the current issues in literary studies - the concept of artistic psychologism - and its skillful use in Abdullah Qahhor's novel "Sarob". At the same time, the two main psychological analysis tools that reflect the inner world of Saidi, the main character of the novel "Sarob", are analysed through examples.

**Key words:** Literary psychologism, psychological analysis, analytical principle, typological principle, dynamic principle, literary hallucination, dream, artistic image, character, inner world.

#### ОСНОВНЫЕ ИНСТРУМЕНТЫ ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО АНАЛИЗА, КОТОРЫЕ ПОМОГУТ В ИССЛЕДОВАНИИ ДУХОВНОГО МИРА САИДИ

Аннотация

В статье подробно излагается одна из актуальных тем литературоведения - понятие художественного психологизма - и его умелое использование в романе Абдуллы Каххора "Сароб". При этом на примерах анализируются два основных инструмента психологического анализа, отражающие внутренний мир Саиди, главного героя романа "Сароб".

**Ключевые слова:** Литературный психологизм, психологический анализ, аналитический принцип, типологический принцип, динамический принцип, литературная галлюцинация, сновидение, художественный образ, персонаж, внутренний мир.

#### SAIDIY MA'NAVIY OLAMINI TANISHDA YORDAM BERISH PSIXOLOGIK TAHLILINING ASOSIY VOSITALARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada adabiyotshunoslikning dolzarb masalalaridan biri – badiiy psixologizm tushunchasi va Abdulla Qahhorning "Sarob" romanida mohirona qo'llanishi haqida batafsil ma'lumot berilgan. Shu bilan birga, "Sarob" romanining bosh qahramoni Saidiying ichki dunyosini aks ettiruvchi ikkita asosiy psixologik tahlil vositasi misollar orqali tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** Adabiy psixologizm, psixologik tahlil, analitik tamoyil, tipologik tamoyil, dinamik tamoyil, adabiy gallyutsinatsiya, tush, badiiy obraz, xarakter, ichki dunyo.

**Introduction.** Psychological analysis, an integral part of art, is a legitimate, artistic phenomenon of "humanities." The perfection of literature, its greatness, is determined, first of all, by the extent to which this literary-aesthetic phenomenon has been discovered, by the extent to which the dialectics of the human soul has been revealed.

**Literature review.** Psychological analysis is "one of the most important qualities that give strength to creative talent" [1]. It is a criterion of skill for a true master of words, because – to know the human language, to reveal its secrets to us - these are the first words in the description given to each of the writers whose works we read with interest again and again, after all.

Not every writer is destined to be a "great painter of the human soul" (Belinsky). Only a talent who has his own unique creative and literary world, who is considered a "connoisseur of the human soul" (Chernyshevsky), who is able to penetrate the deepest depths of this soul, who is able to subtly feel and see the struggle of light and shadow, positive and negative poles in it, and who is able to discover this magical world in his own unique way, can be the owner of this sacred and great title

Three main principles of psychological analysis are prominent in Russian classical literature. In classifying these concepts, academician M. Khrapshenko highlights that they are universal to all periods of literature. These are: dynamic, typological, and analytical principles. These principles are the creative product of every great artist and form the basis of realistic verbal art. For instance, A.S. Pushkin followed the dynamic principle in describing the psychology and inner life of his characters, revealing the spiritual aspects of the characters through their actions and behaviors. This synthesis is also found in the prose of Abdullah Kahhor. The novel "Sarob" combines analytical and typological principles.

**Research Methodology.** "Sarob" is the first socio-psychological work in Uzbek literature. Abdulla Kahhor effectively used a number of tools of psychological analysis to reveal the essence of the ideological content and leading characters of this work. Hallucinations and dreams through psychological analysis in the work greatly helped the writer in researching Saidi's inner, psychic life and soul.

Hallucination is purely psychic phenomenon. According to F.M. Dostoevsky, this is brain related injury and the disease is rare, but this rare disease can be used for literary purposes. The works of Dostoevsky confirm this.

"Literary hallucination is the extreme drama of a literary character, the result of mental anguish and cruel experiences. Some people suffer from this mental illness due to certain social and moral reasons, difficult conditions and complex life. While people are naturally prone to this kind of illness, some of them get this serious illness out of desperation, feeling the inevitable tragedy and feeling that there is no other option"[2].

**Analysis and results.** In Saidi's psychology, these two cases are prominent. He is a narrow-minded. This quality of his gradually turns into a vice, and this vice develops due to certain conditions and reasons. As a result, he runs away not only from others, but also from himself, that is, he lives by self-deception and all kinds of lies. As the dramas in his heart reach their peak, Saidi begins to feel the truth of his tragedy. It is this flow of emotions, the dramatic waves of this flow, that make him suffer from mental illness.

That is why the writer reveals Saidi's hallucinatory and subsequent mental state through his actions and the expressive, tragic dynamics of his sick, fearful feelings and thoughts.

Saidi feels the tension of his situation more and more with all his being. As this feeling in him grows stronger, tragedy deepens in Saidi's inner life. He becomes convinced that he can no longer deceive himself, that his deception will not bring any benefit. Now he can't even manage to escape from himself, to give himself spiritual encouragement. Because of these, Saidi goes crazy. After the writer psychologically bases the birth of this sick feeling in his character, he shows it in action. The signs of insanity began to show in Saidi's actions when he took his book and tried to tell fortunes like his father. But Saidi himself did not feel it yet, he did not admit it, because he was still comforting himself with false feelings. However, these consolations make him very tired, and as a result, he is forced to raise his voice and admit his tragic situation and fate, saying "I'm tired of living".

Tragic feelings start fluttering over Saidi's head, he feels these winged ghosts all the time, so everything that touches his eyes starts to appear as death. In fact, in Saidi, the beginning of true hallucination is related to the same fear, panic, horror-death feeling in him. One day he had woken up, lied for a long time not opening his eyes, "when he opened his eyes, seeing his cap on the table, he became different (he died in his dream- author's statement). This feeling arises when one sees the clothes of a person who has just been buried" [3]. This feeling grew stronger in him day by day, and his whole mind was occupied with this alone. Already, the increase of the same feeling was a tragic dynamic in Saidi's inner world. As the dynamic escalated, "Saidiy... o'zining tirik ekaniga shubha qilar edi" [4]. (249-bet) "Saidi... doubted that he was alive" (p. 249). Because of this dynamic, this feeling has become a new, evil feeling. (Saidi wants to bite his sister's paralyzed, swollen legs).

Saidi was talking himself, but he was not listening. He was completely numb. His actions were the outcome of such a severe, diseased state. He was not affected by cold or snow, he did not remember what someone said, he did not know himself or his path. Due to the loss of his mind, he did not join people, he became a loner, and he suffered from a mental illness.

Through this hallucinatory state of his hero, A. Kahhor shows the logical tragedy of his inner and outer life-destiny and psychologically substantiates it.

Hallucinatory feelings, thoughts, actions and words - all individualized the image of Saidi. For this reason, the function of hallucination in the novel is unique, this is to help to reveal the psychological life of the main character in a dramatic, tragic and psychological basis.

The disease unites the two halves of Saidi's heart, which is divided into two, and creates a terrible storm of cruel fate (here the storm in nature and the storm in Saidi's inner world are psychologically parallelized). This crazy, insane feeling shows a stone mirror to his eyes as a symbol of new life, and this feeling itself makes the mirror crackle (its power only reaches this mirror), and makes Saidi wild. Due to the illness of the soul, things seem to be there that are not there.

Conclusion/Recommendations. To conclude, the hallucination is a legitimate and logical state of Saidi's mental life, through which the protagonist's fate is psychologically believable. This tool served to reveal the main idea of the novel.

"According to psychoanalysis, subconscious desires can emerge and be realized in other forms. Accordingly, it is believed in psychoanalysis that dreams, illusions, wrongly spoken words or wrong actions, mental illness, etc. are not random, incomprehensible events, but these are the realization of wishes that fell into the subconscious in childhood. A different form of subconscious desires are called sublimation by Sigmund Freud. Creativity, according to Sigmund Freud, is one of the forms of sublimation"[5].

Showing the hero's soul through his dream is not inferior to other poetic means of psychoanalysis in terms of its essence. A dream in a work of art is mainly related to the bright reflection of the characters' inner world, mental state, experiences and dramas, and aims. In other words, the dream depicted in a work of art, although it is different in terms of its function and content, is used at all times and in any case as an important tool for perfecting the image created by the writer, in order to deeply reveal the psychological state of the characters. That's why, when we come across the image of a dream in any artistic work, we can see that it carries a psychological burden. Also, a dream serves to individualize images.

The only dream image that helped to individualize the character of the main character has a certain significance in Saidi's psychological characterization. The author uses a dream to more perfectly show characteristics of Saidi's character and psychology, such as greed for wealth, and ambition, and to justify these characteristics psychologically and logically. Saidi strongly believed in being the heir of Murodkhuja domla, he dreamt too much about this, consequently he could imagine the scenery as a whole. Due to the

appearance of the valley and the castle in front of him in all their glory, he started to dream about them, even when he was awake.

"U olamshumul yozuvchi: amerikalik muharrir singari har kuni bir stunlik narsa yozib, yiliga o'n ikki ming oltin maosh oladi; turli mamlakatlardan frank, dollar, rupiyalar kelib turadi. Shundan so'ng bu serg'ovg'a, seraziyat shahardan ketib, Shimoliy Amerika-Toro singari tabiat quchog'iga kiradi; vodiyning eng bahavo, eng go'zal yeriga slogan qasrida o'tirib, xotini Ariadnaning royalda qilgan mashqiga quloq berar ekan, butun vodi va undagi o'tlab yurgan qo'y-qo'zilar, yilqilar, tog' yonbag'irlarida o'sgan pista, archa. Ko'm-ko'k o'lanlar va ularning orasidan ilon izi bo'lib oqqan, quyoshning nurida kumush tasmday yarqiragan ariqchalar ko'rinish turadi. Uning qasri orasida yer yuzidagi hamma mevalardan topiladigan katta bog' bo'ladi. Saidiy oltinning kuchi bilan bu bog'da lotos gullari, xurmo va apelsin daraxtlari o'stiradi..." [6].(139-bet)

"He is a prolific writer: like an American editor, he writes something every day and earns twelve thousand gold a year; francs, dollars, and rupees come from different countries. After that, leaving the troubled, suffering city, North America - like Thoreau - enters the embrace of nature; he sits in the castle built on the most precious and most beautiful land of the valley and listens to his wife Ariadne playing the piano. A unique view of nature can be seen from the window of this castle. Around his castle will be a large garden where all the fruits can be found. Saidi grew lotus flowers, date palms, orange orange trees in this garden with the power of the gold..." (p. 139)

This dream - unreal fantasy serves to enrich the image of Saidi's character, that is, to express more clearly the goal he strives for and dreams of. Through this, the writer clarified the character of his hero, revealed his psychology in more detail and more fully.

In summary, Abdulla Kahhor used dreams and hallucinations together with other means of psychological analysis in the novel "Sarob" and these two tools helped to reflect convincingly the inner life and psychic state of the main character of the work - Saidi.

Abdulla Kahhor appropriately uses psychological descriptive tools when analyzing the events and drawing the character of the hero. The reader believes that an event, a character is described by the only way, only tool found by the writer, that it cannot be otherwise.

When talking about Abdulla Kahhor's works and his unique manner of writing, it should be emphasized that he is a master psychologist. The writer knows all the secrets of his characters. Nothing escapes his attention. Abdulla Kahhor deeply feels the human heart, changing appearance and knows how to clearly show it. In the works of Abdulla Kahhor, the issue of speech is of great importance. He can skillfully convey the feelings and changes in the inner world of the heroes of his works to the readers in their speeches. Whether the author should speak or the character should speak - this is of principal importance depending on the writer's artistic goal. We witnessed this again in the second part of the dissertation. In one place, the content of the hero's speech prevails, in the second place, the tone of speech, and in the third place, the conditions of speaking prevail. For Abdulla Kahhor, there is nothing small or unnecessary in the work. Everything is focused on the main issue - the thought the author wants to convey, the idea he wants to convey, the service of the character being created.

In the novel "Sarob", the psychological states of the characters are very vividly reflected in their conversations, actions, gestures, and internal monologues. These are explained in this chapter with the example of dialogues and examples taken from the novel.

Moreover, two main tools of psychological analysis that played an important role in creating the psychological image of Saidi, the main character of the novel "Sarob", were also discussed. These two tools are hallucination and dream. In this novel dream is one of the mental imagery, and mainly serves to psychologically substantiate the inner world, mental state, experiences and dramas, dreams and fantasies of the protagonist. The writer also used the hallucination tool to exaggerate the fact that Saidi's life is becoming more difficult and by this means of psychological analysis the author made this more obvious to the reader.

## REFERENCES

1. Чернишевский Н.Г. ,Tanlangan adabiy-tanqidiy maqolalar, Ozdavnashr, 1956, 330-bet.
2. Shodiyev N. "Sarob" romanidagi ikki psixologik tahlil vositasi//O'zbek tili v a adabiyoti, 1973. 4-son, B.69.
3. Abdulla Qahhor. Tanlangan asarlar. II tom. 249-bet
4. Abdulla Qahhor. Sarob. 1934. 249-bet
5. Qobilova N.. Jek London va Abdulla Qahhor ijodida badiiy psixologizm. Filol. Fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD)diss. – Buxoro,2020
6. Abdulla Qahhor. "Sarob", 1934. B. 139



**Nargiza SALOYDINOVA,**  
Toshkent arxitektura-qurilish universiteti dotsenti, PhD  
E-mail: n\_saloydinova@gmail.com

TAQU professori, f.f.n M.Niyazova taqrizi asosida

### QURILISHGA OID MATNLARDA TARJIMA JARAYONIDA SINONIMLARNING QO'LLANISH USULLARI

Annotatsiya

Texnik matnlarni ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima qilishda o'ziga xoslik va muayyan qiyinchiliklar, ularni axborotni lingvistik uzatishning boshqa turlaridan ajratib turadigan jihatlari mavjud. Maqolada qurilish sohasidagi ingliz va o'zbek tillari atama tizimlarining ba'zi xususiyatlari, shuningdek texnik matnlarni tarjima qilishda o'ziga xos xususiyatlar va muayyan qiyinchiliklar yoritilgan. Xususan, qurilish sohasiga oid matnlarda tarjima jarayonida yuzaga keladigan ayrim dolzarb mavzulardan biri bo'lmish sinonimlarni aniq va to'g'ri qo'llash masalasi yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** qurilishga oid matnlar va terminlar, tarjima jarayoni, grammatik mazmun, sinonimiya, denotat, termin, antonom, frazeologik birliklar, terminologiya, leksema.

### СПОСОБЫ УПОТРЕБЛЕНИЯ СИНОНИМОВ В ПРОЦЕССЕ ПЕРЕВОДА В СТРОИТЕЛЬНЫХ ТЕКСТАХ

Аннотация

В переводе технических текстов с английского на узбекский язык есть свои особенности и определенные трудности, отличающие их от других видов лингвистической передачи информации. В статье освещаются некоторые особенности систем терминов английского и узбекского языков в области строительства, а также особенности и определенные трудности при переводе технических текстов. В частности, в текстах, относящихся к области строительства, освещается вопрос точного и правильного использования синонимов, что является одной из актуальных тем, возникающих в процессе перевода.

**Ключевые слова:** строительные тексты и термины, процесс перевода, грамматическое содержание, синонимия, обозначение, термин, антонимия, фразеологизмы, терминология, лексема.

### METHODS OF APPLICATION OF SYNONYMS IN THE PROCESS OF TRANSLATION IN TEXTS ON CONSTRUCTION

Annotation

There is originality and certain difficulties in translating technical texts from English to Uzbek, aspects that distinguish them from other types of linguistic transmission of information. The article covers some features of English and Uzbek language term systems in the field of construction, as well as specific features and certain difficulties in translating technical texts. In particular, texts on the field of construction highlight the issue of the clear and correct use of synonyms, one of the most relevant topics that arise in the translation process.

**Key words:** texts and terms related to construction, translation process, grammatical content, synonymy, denotation, term, antonime, phraseological units, terminology, lexeme.

**Kirish.** Har bir xalq madaniyati o'zining turlicha shakllariga ega bo'lgani kabi imorat qurishdagi odatlari-yu, xom ashyoni ishlab chiqarish va uni tayyorlab ommaga taqdim etish, tarqatish uslublarida ham o'ziga xos xususiyatlar paydo bo'ldi. Mana shu o'ziga xoslik milliy ustahilik, hunarmandchilik ajoyib arxitektura inshootlarini ijod etilishiga va arxitektura va qurilish leksikasini boyishiga ham muayyan sabablar mavjud. Demak, har bir xalqning milliy imorati nomlari, bino qurishi va qurilish jarayonida o'ziga xos miliy terminlardan foydalanishida o'sha xalqning milliy madaniyati bevosita aks etadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Terminlarni tarjima qilish jarayonida bir nechta usullar mavjud. Ammo, ularning ba'zilari faol, ayrimlari nafaol sanaladi. Shunga qaramasdan ularning barchasi paydo bo'lgan terminlarning yangiligi va ularning tarjimasiga ta'sir qiluvchi omillar tufayli umumiy xarakterga ega. Shuning uchun ham terminlarni to'g'ri tarjima qilish jarayonida tarjimonlarga termin uchun qo'yiladigan talablarga va ma'lum bir tarjima usulini tanlashga ta'sir qiluvchi omillarga alohida e'tibor berish kabi jiddiy vazifalar yuklatiladi. Shunga ko'ra, tarjimon tilning o'ziga xos ba'zi xususiyatlarini, an'analarini batafsil o'rganib chiqib, tarjimaning qaysi varianti eng muvaffaqiyatli bo'ladi va qaysi biri umuman ishlaymaydi degan taxminni yoxud farazni ilgari surishi mumkin.

Zamonaviy globalashuv jarayonida har qanday chet tilini o'zlashtirgan shaxs: o'quvchi, talaba, jurnalist yoki chet tili o'qituvchilari o'zlarini eng kamida bir bora tarjima sohasida sinab ko'rishadi. Biroq, ularning tarjima amaliyotidagi muvaffaqiyati ko'p hollarda omadsizlik bilan yakunlanadi. Buning asosiy sabablarini tarjimaning ilmiy-nazariy jihatlarni puxta o'zlashtirilmaganligi bilan izohlash eng to'g'ri xulosadir. Shunday noqulayliklardan biri denotatsiya jarayonidir.

Denotatsiya leksemasining o'zak shakli denotat bo'lib, lotincha – denotare – belgilamoq ma'nosini ifodalaydi. Til birligi

yordamida (masalan, so'z) nomlanuvchi (ataluvchi) voqelik yoki narsa buyum hisoblanadi.[1]

Denotativ ma'no (yoki denotativ komponent) anglashiladigan tushuncha bilan bevosita bog'liq bo'lib, to'g'ridan-to'g'ri mantiqiy ravishda yetkazish uchun xizmat qiladi.

Arxitektura va qurilish sohasi tarkibida mazkur jarayon antonimiya va sinonimiya bilan uzviy bog'liq hisoblanadi. Boisi hozirgi zamon tilshunoslik fanida terminlar antonimiyasi va sinonimiya masalasi eng dolzarb va yechimi murakkab bo'lgan muammolardan hisoblanadi[2]. Xususan, sinonim terminlar bilan umumadabiy tildagi sinonimiya tushunchalari o'rtasidagi tafovut masalalari haligacha to'laqonli tadqiq etilgan emas.

Sinonimlar (yun. synonymos - bir nomli) - denotativ ma'nosi bir xil, soddaroq bayoni bir umumiy ma'noga ega bo'lgan leksik birliklar.

Til birliklarining o'zaro ma'nodoshligi sinonimlar bo'lib, ular fikrni aniq va ravshan, takrorlardan holi bo'lish uchun rang-barang ifoda qilishga xizmat qiladi.

Terminologiya tarixi bilan maxsus shug'ullangan L.Kutina: "Terminologiya sohasida keng tarqalgan sinonimiya hodisasi terminologik tizimlarning shakllanishi uchun xarakterlidir"- deya qayd etgan[3].

**Tadqiqot metodologiyasi.** "Sinonimlar – semantik jihatdan bir-biriga yaqin yoki o'xshash tushunchani ifodalaydigan va ma'no belgilariga yoxud uslubiy bo'yog'iga ko'ra o'zaro farqlanadigan leksemalardir"[4]. Shunga muvofiq I.Siddiqova so'zlarning sinonim ekanligini aniqlovchi mezon sifatida ularning matnda leksik jihatdan o'zaro almashish imkoniyatini qayd etadi.

Masalan: lingvistika va tilshunoslik, opiy va opium, avtojir hamda gerikopter"[5] va b.

Demak, olimaning fikricha, leksemalarning o'zaro sinonim bo'lishi denotativ munosabat, semantik o'xshashlik va yaqinlikka ega bo'lishi bilan belgilanadi.

**Tablil va natijalar.** Ingliz tilida arxitektura va qurilish terminlari tarkibida sinonimlar barqaror hisoblanadi va denotativ xususiyatiga ko'ra o'zaro semantik jihatdan bog'lanadi va biri ikkinchisini to'ldirishga xizmat qiladi. Sinonimlar qatoridagi bir leksik birlik bosh birlik (asosiy birlik) hisoblanadi va qolgan sinonimlar shu birlik atrofida yig'iladi. Bosh leksik birlik tilshunoslik sohasida dominant sinonim deyiladi. Aynan dominant sinonim sinonimlarning denotati hisoblanadi.

Denotat terminning markaziy va asosiy ma'nosini anglatadi. Ushbu holat arxitektura va qurilish sohasi terminologiyasida ham kuzatiladi.

Sinonimlar erector (binokor); constructor (konstruktor); designer (bino dizayneri); bricklayer (g'isht teruvchi) builder (quruvchi); stonemason (tosh teruvchi); joiner (duradgor); master(usta) edifice (bino); building (imorat); construction (inshoot); structure (inshoot) woodworker (duradgor); carpenter (hunarmand); carver (o'yimakor usta); cutter (randakash,yog'och ustasi) roof (tom); house top (tom qismi); ceiling (shift) design (dizayn, ko'rinish); cadre(lavha); delineation (chizma); draft (chizma); layout (maket); project (loyiha); blueprint (loyiha); scheme (chizma); device (loyiha); plan (reja) tool (dastgoh); instrument (asbob); apparatus (asbob-uskuna); gear (asbob); weapon (qurol). Ushbu terminlarning denotati builder (quruvchi),building (bino),carpenter (usta -hunarmand),roof (tom) project (loyiha) instrument (asbob-uskuna).

Chog'ishtirilayotgan tillarda arxitektura va qurilish terminlarining tarjima amaliyotida ahamiyatli jihati shundaki, sinonimlarning har biridan ularga xos belgi va xususiyatlarni hisobga olgan holda tarjima qilish sohaga doir umumiy kontekstni to'liq ma'nosini aks ettiradi. Soha amaliyotida kuzatiluvchi yana bir jihat bu semantik jihatdan teng qiymatga ega terminlardir.

Masalan, wire - cable (sim); engineer - mechanic (muhandis); ruin - wreckage (xaroba va vayrona); ruins - remains (xarobalar va qoldiqlar); putridity - blight (chiriganlik); fragments - remnants (parchalar va qoldiqlar) kabi terminlar.

Ingliz tilidagi kabi o'zbek tilida ham arxitektura va qurilish terminlari bilan bog'liq sinonimiya jarayoni uchraydi va tarjima qilishda o'ziga xos o'ringa ega. Mazkur tilda soha terminlari tarkibida sinonimlar denotativ xususiyatiga ko'ra bir tushuncha atrofida shakllanishi mavjud va tarjima sohasida ularning xususiyatiga ko'ra taqdim etish samaraliroq hisoblanadi.

Masalan, quruvchi - usta, ip - arqon - kanat, chelak - paqir, qurol - asbob - dastgoh - anjom - uskuna.

Qayd etish lozimki, chog'ishtirilayotgan tillarda termin sinonimlari tarkibi bir yoki bir nechta tarkibiy qism (komponent)dan iborat bo'lishi ham mumkin. Biroq, tarjima jarayonida mazkur holat terminning shakli uning denotativ xususiyatidan biroz chalg'itadi. Shunga ko'ra, birinchi navbatda ularning semantik belgilari mohiyatini aniqlash ustuvor vazifa hisoblanadi.

Masalan, ingliz tili: fireplace ash pit cleanout door - tarj.: kamen pech kuldoni tozalash eshigi; ash door - kuldon eshigi.

Terminlar tarjimasida ikki tilning lisoniy strukturasi o'rganish tarjimonlar uchun o'ta muhim jihatdir. Ammo, ushbu jihadni o'rganish asliyat tildagi matn tarkibidagi terminni alohida ajratib olish bilan samarali tarjimani amalga oshirish uchun yetarli emas. Terminlarni adekvat tarjima qilishda eng dolzarb lingvistik muammolar sirasiga turli xil ma'noga ega leksik birliklarni yoki qo'shimcha ma'noga ega bo'lgan leksik birliklarni, bundan tashqari, asliyat va tarjima tilida turli xil grammatik tuzilmalarga hamda so'z tartibiga ega bo'lgan leksik birliklarni aniqlay olish bilan izohlanadi.

**Xulosa va takliflar.** Terminologiya sohasiga doir ayrim leksik birliklarni tarjima qilishning konnotativ xususiyatlariga asoslanib, tarjimon uning ma'nosini yetkazishi, uning obrazlilikini aks ettirishi, o'zbek tilida mavjud, o'xshash iborani topishi va ularning stilistik vazifasini e'tibordan qochirish lozim. Modomiki, o'zbek tilida bir xil muqobili mavjud bo'lmasa, tarjimon taxminiy mos birliklarni qidirishga majbur bo'ladi. Tarjima adekvatligini ta'minlash uchun esa tarjimondan o'ta mohirlik va katta tajriba talab qilinadi.

#### ADABIYOTLAR

1. Бархударов Л.С. Язык и перевод.-М.:1975.-262 с
2. Hojiyev A., Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. Davlat ilmiy nashriyoti. T.: 1995. 158 b.
3. Кутина Л. Формирование языка русской науки. - М., 1974. - 278 с.
4. Евгеньева А.П. Проект словаря синонимов. - М., 1974. - 247 с.
5. Сиддикова И.А. Синонимия языка и её кодификационные основы: Дисс. ...д-ра. филол. наук. - Ташкент, 2012. - 337 с
6. Новиков Л.А. Антонимия в русском языке. - М.:1973.-286 с.
7. Даниленко В.П. Лингвистические требования к стандартизированной терминологии// Терминология и норма.-М.: 1972.-128 с.
8. Апресян Ю. Д., Коннотации как часть прагматики слова // Избранные труды., Интегральное описание языка и системная лексикография. - М.: Школа «Языки русской культуры», 1995. - 766 с
9. Saloydinova N. S. Denotative and connotative features in the translation of architectural and construction terms //Modern Scientific Research International Scientific Journal. - 2023. - T. 1. - № 9. - C. 5-10.



*Mohira SA'DULLAYEVA,*  
Navoiy davlat universiteti tayanch doktoranti  
E-mail: mohirasobirovna2020@gmail.com

Qarshi davlat universiteti professori, filologiya fanlari doktori N.Yuldosheva taqrizi asosida

### ИЗМЕНЕНИЕ ЗНАЧЕНИЙ НЕКОТОРЫХ МНОГОЗНАЧНЫХ СЛОВ В УЗБЕКСКИХ ДИАЛЕКТАХ

Аннотация

В данной статье описывается встречаемость слов, перечисленных в “Девони луготит-турк”, в разных словарях и их значения. Значимые расширения и сокращения даются через словарные значения. Также подкреплены примеры того, как упомянутые лексемы встречаются в «Толковом словаре узбекского языка» и в нашей сегодняшней речи.

**Ключевые слова:** Диалект, полисемия, омоним, словарь, лексема, диалект, огузский диалект, “Девони луготит-турк”.

### CHANGING THE MEANINGS OF SOME POLYSEMANTIC WORDS IN UZBEK DIALECTS

Annotation

This article describes the occurrence of the words listed in "Devoni lugotit-turk" in different dictionaries and their meanings. Meaningful expansions and contractions are given through dictionary meanings. Also, examples of how the mentioned lexemes meet in the "Explanatory Dictionary of the Uzbek Language" and in our speech today are reinforced.

**Key words:** Dialect, polysemy, omonym, dictionary, lexeme, dialect, "Devoni lugotit-turk".

### O‘ZBEK SHEVALARIDAGI BA‘ZI KO‘P MA‘NOLI SO‘Z MA‘NOLARIDA O‘ZGARISHLAR

Аннотация

Ushbu maqolada “Devoni lug‘otit-turk”da keltirilgan so‘zlarning turli lug‘atlarda kelishi va qanday ma‘nolarda uchrashi yoritilgan. Ma‘noviy kengayish va torayishlar lug‘aviy ma‘nolar orqali berilgan. Shuningdek, keltirilgan leksemalarning “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da va nutqimizda bugungi kunda qanday shaklda uchrashi misollar bilan mustahkamlangan.

**Kalit so‘zlar:** Sheva, polisemiya, omonim, lug‘at, leksema, dialekt, o‘g‘uz shevasi, “Devoni lug‘otit-turk”.

**Kirish.** Mahmud Koshg‘ariyning 8000 dan ortiq turkiy so‘zlarni qamrab olgan asarida so‘zlarning yozilishi, talaffuzi, ta‘rifi izohlab o‘tilgan. Ular tilshunoslikning turli ilmiy mavzularida muhim manba bo‘lib xizmat qilmoqda. O‘zbek dialektologiyasida asarning o‘rni beqiyos. Xususan, shevalarning tahlilida, ma‘noviy o‘zgarishlarga uchraganini aniqlashda, yo‘qolib borgan, eskirgan, saqlangan va yangi ma‘no kasb etgan so‘zlarning o‘ziga xosligi uchun asosdir. Devon bilan birga shevaga xos asarlarda keltirilgan lug‘atlar tahlilida polisemiyalardagi ma‘noviy kengayishlar va torayishlarga duch kelish mumkin.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Mahmud Koshg‘ariyning “Devoni lug‘otit-turk” asari bilan bir qatorda F.Abdullayev “Xorazm shevalari”, A.Ishayev “Qoraqalpog‘istondagi o‘zbek shevalari”, O.Madrahimov “O‘zbek tilining o‘g‘uz lahjasi leksikasi”, O‘zbek xalq shevalari lug‘ati kabi asarlarda keltirilgan shevaga oid so‘zlar tahlil qilindi. So‘zlarning adabiy tilimizdagi ma‘nosini to‘g‘ri va aniq izohlash uchun “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”ga murojaat qilindi. Quyida bir necha leksemalar orqali ma‘nolar keltirildi.

**Tahlil va natijalar.** Av I - mensimaslik, qaysarlikni bildiruvchi yuklama; av II - ov (Devoni lug‘otit-turk 10-11-bet). Demak, aynan ushbu so‘zning bir necha kitoblarda kelgan ma‘nolarini tahlil qilamiz. F.Abdullayev “Xorazm shevalari” lug‘atida Av – 1. Ov; 2- ar (16-bet). O.Madrahimov “O‘zbek tili o‘g‘uz lahjasining Xiva shevasi”da esa Av 1-ov; av 2- hav (31-bet).

A.Ishayev “Qoraqalpog‘istondagi o‘zbek shevalari” kitobida “av” so‘zining omonim ma‘nolarini Av - I baliq tutadigan to‘r; av II ishton og‘i; av III ey, iye (hayrat, taajjub, murojaat) (64-bet), O.Madrahimov “O‘zbek tilining o‘g‘uz lahjasi leksikasi” da Av I - a:g; av II – 1. Ov; 2. Ov qilinadigan hayvon yoki qush; av III (hayrat, taajjub undovi) – hav (102-bet) shaklida ifodalagan.

Shuningdek, O‘zbek xalq shevalari lug‘atida Av // or – og‘ (ishton og‘i) ma‘nosida kelgan. (O‘zbek xalq shevalari lug‘ati 12-bet)

Bir necha lug‘atlar “ov” ma‘nosini ifodalaganligini ko‘rish mumkin. Aynan “Devoni lug‘otit - turk” da “ov” so‘zi quyidagicha kelgan: Av – ov (11-bet)

Demak, berilgan ma‘lumotga ko‘ra “av” so‘zini ko‘p ma‘noli va omonim shakllarda ham uchratish mumkin. Bugungi kunda hududlarda “ov” so‘zi o‘z ma‘nosini saqlab, “ov, ov qilmoq” ma‘nolarida uchraydi.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “ov” so‘zi 1. Yovvoyi hayvon, baliq, qush va shu kabilarni turli yo‘llar bilan tutish, ovlash yoki otish. 2. Ov qilinadigan, ovlanadigan jonivor; ilvasin. 3. (ko‘chma) Qo‘lga tushirilishi mo‘ljallangan kimsa yoki narsa. 4. Ovchining o‘ljasi ma‘nosida kelgan.

Afzlagadi so‘zining polisemantik ma‘nolari “Devoni lug‘otit-turk”da quyidagi ma‘nolarda kelgan: 1. Og‘izladi, (ariqqa) og‘iz ochdi; 2. Og‘ziga urdi (32-bet), O.Madrahimov “O‘zbek tilining o‘g‘uz lahjasi leksikasi” asarida Afzlagamaq – og‘izga olmoq; (o‘zga bir kishi haqida gapirmoq); 2. Unashmoq; 3. Sovchi qo‘ymoq (104-bet), O.Madrahimov “O‘zbek tili o‘g‘uz lahjasining Xiva shevasi” da Afzlagamaq – 1. Eslamoq; 2. Mo‘ljalga olmoq; mo‘ljallamoq. (33-bet) ma‘nolarini ifodalagan.

F.Abdullayev Xorazm shevalari va O‘zbek xalq shevalari lug‘atida esa ushbu so‘z quyidagi ma‘nolarda kelgan. Ular ko‘p ma‘noli yoki omonim shaklda emas, bir so‘z ma‘nosida kelgan. Ma‘nolari esa logik jihatdan yaqin.

Afzlagamaq – birovni og‘izga olmoq, o‘zi yo‘q kishi haqida so‘zlamog‘. (F.Abdullayev Xorazm shevalari 16-bet), Afzlagamaq// Avzlagamaq – og‘izga olmoq (suhbatga ishtirok etmagan kishi haqida gapirmoq) (O‘zbek xalq shevalari lug‘ati 13-bet)

Bugungi kunda “og‘izladi” shaklida uchraydigan so‘z ma‘noviy jihatdan “gapning og‘izlab ketishi ya‘ni og‘izdan og‘izga o‘tishi” shaklida uchratish mumkin.

Navbatdagi Barip so‘zi “Devoni lug‘otit – turk” da “jigar” ma‘nosida keladi. (Devoni lug‘otit-turk 61-bet). O‘zbek xalq shevalari lug‘atida (40-bet), O.Madrahimov “O‘zbek tili o‘g‘uz lahjasining Xiva shevasi” (49-bet), F.Abdullayev Xorazm shevalari (24-bet), O.Madrahimov “O‘zbek tilining o‘g‘uz lahjasi leksikasi” (116-bet)da ham aynan “jigar” ma‘nosida kelgan.

A.Ishayev “Qoraqalpog‘istondagi o‘zbek shevalari” da Bavyr ~ bagir shaklida kelib, 1. Jigar; 2. Ko‘chma ma‘noda jigarim, jigarband, (yaqin qarindosh, tug‘ishgan) ko‘p ma‘noli so‘z shaklida kelgan. (79-bet).

Bugungi kunda ham bag‘ir so‘zi keng ma‘noda qo‘llaniladi. Ayniqsa, shoir-yozuvchilarning asarlarida “bag‘ir”, “yurak bag‘irim”, “bag‘ritosh” shaklida uchratish mumkin. Xalq tilida esa “bag‘rimga bosmoq” ya‘ni “quchoqlamoq” ma‘nosi ham mavjud.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “Yurak-bag‘ir” - butun vujud, borliq, jism ma‘nosida keladi.

“Devoni lug'otit-turk” asarida Bilir so'zi omonim shaklda kelib, I – hikmat; II – ilm, bilim ma'nolarini ifodalab kelgan. (69-bet). Ushbu so'z boshqa lug'atlarda turli shaklda keladi, lekin ma'nolari bir-biriga yaqin. F.Abdullayev Xorazm shevalarida “Бъльий” shaklda kelib, “bilim, ilm” ma'nolarini ifodalagan. (28-bet). O.Madrahimov “O'zbek tili o'g'uz lahjasining Xiva shevasi” da “Биләк” so'zi omonim shaklda kelib, II ma'nosi “bilag'on” ma'nosini ifodalagan (53-bet). O.Madrahimov “O'zbek tilining o'g'uz lahjasi leksikasi” asarida “Биләк – bilag'on” shaklda ifodalangan (120-bet), A.Ishayev “Qoraqalpog'istondagi o'zbek shevalari” da Биләк omonim shaklda kelib, II ma'nosi tarkibida ko'p ma'noli shaklda kelgan va quyidagi ma'nolarni ifodalagan: “1. Bilarmon, bilag'on; 2. Mahmudona, o'zini bilimdon hisoblovchi kishi” (83-bet).

Hozirgi kunda “bilim” so'zi keng qo'llansa-da, ba'zi hududlarda “bilik” shaklda uchratish mumkin.

“O'zbek tilining izohli lug'ati” da bilim so'zi quyidagi ma'nolarda keladi: 1. Obyektiv borliq haqidagi yoki muayyan (ilmiy, madaniy, ma'rifiy, ma'naviy, harbiy va boshqalar) sohalarga oid ilmiy, amaliy ma'lumotlar, tushunchalar majmui; ilm. 2. O'qimishlilik darajasi, ma'lumot, qobiliyat (eruditsiya).

Dar so'zi “tamg'a”, Dar, zar – yo'q emas (apry) ma'nosida “Devoni lug'otit-turk”da kelgan (87-bet). O.Madrahimov “O'zbek tilining o'g'uz lahjasi leksikasi”da “Дар” shaklda kelib, “tog” degan ma'noni ifodalab kelgan (127-bet). O.Madrahimov “O'zbek tili o'g'uz lahjasining Xiva shevasi”da “Дар” so'zi omonim shaklda kelib, Dar I dog'-tog' (turkm. dar). Dar II dog' – dog' ma'nolarida kelgan (66-bet).

Bugungi kunda shevalarda har ikki ma'noda “dog” va “tog” shakllarida talaffuz qilinishi va qo'llanilishi mavjud.

“Devoni lug'otit-turk”da Zar ol – “yo'q”, “emas” (91-bet) shaklda uchraydi. O.Madrahimov “O'zbek tili o'g'uz lahjasining Xiva shevasi”da Zar – “momiq” (86-bet) shaklda, O.Madrahimov “O'zbek tilining o'g'uz lahjasi leksikasi” da Zar – “chigiti olingan paxta tola” (136-bet) ma'nosida uchraydi.

Hozirda paxta terimi mavsumida, ko'rpa qavuvchilar tilida bu so'z qo'llanilishi bilan bog'liq holatlar kuzatilindi.

Xususan, o'zbek hikoyanavisligini novatorlik asosida boyitishga harakat qilgan O'. Umarbekov asarlarida har bir personajning o'ziga xos nutqi, nutqiy vaziyatning real tarzda ochib berilishi kitobxonda qiziqish uyg'otadi va buni har bir nasriy asarida o'zgaracha ruhdan ifodalashga harakat qilgan. Ilmiy tafakkur taraqqiyoti har qanday fan sohasidagi nazariy qarashlar o'zgarishiga, tadqiqotning yangi metodlari yaratilishiga va ushbu metodlar tadbiqida yangi nazariy g'oyalarga tayanish asosida tamoman o'zga amaliy natijalarga erishilishiga sabab bo'ladi. Ilmiy jarayondagi bunday o'zgarishlarga bosqich tahlili, nazariy xulosalarning uzluksiz tadqiqot jarayonida shakllanishi va tizimli joriy qilinishi natijasida yuzaga keladi. Shaxsning nutqiy holati vaziyat, saviya, ijtimoiy mavqe, yosh va hayotiy tajriba kabi ko'rinishlardan iborat, ularning har biri lisoniy birlikning nutqiy voqelanishiga ta'sir ko'rsatadi. Badiiy nutqda ushbu lisoniy birliklar badiiy-tasviriy vositalar orqali obrazli tarzda yoritib beriladi. Asarda ishtirok etayotgan har bir personaj xarakter xususiyatlarini nutqiy muloqot jarayonida oydinlasha boradi va asarning hayotiylikni ta'minlashga yordam beradi. Yozuvchining mahorati ham ana shunda ko'rinadi. Til doimo inson hayoti, uning ijtimoiy faoliyati bilan bog'liqdir. Lisoniy belgining qanday ijtimoiy vazifa o'tashi, undan qanday foydalanishni bilishi uchun insonning qaysi ijtimoiy tuzumda yashashini ham e'tiborga olish bugungi kun tilshunosligining asosiy vazifalaridandir. Bugungi kunning yangi paradigmasi bo'lgan genderolingvistik o'zi bilan bir qator o'rganish obyektlarni olib kirdi. Badiiy asarni genderolingvistik jihatdan tahlil qilish, undagi obrazlarning gender xususiyatlarini o'ziga xos murakkablikni yuzaga chiqaradi.

Genderologiyaning umumlingvistik mohiyatini belgilash uchun, avvalo, uning boshqa turdosh, chegaradosh sohalar bilan munosabatini, uzviy aloqadorligini ta'minlovchi jihatlarini, shuningdek, individual o'ziga xosliklarni aks ettiruvchi belgi xususiyatlarini aniqlash lozim. Dastlabki genderolingvistik tadqiqotlarda til vositalaridan foydalanishning gender xususiyatlariga ko'proq e'tibor qaratilib, gender parametrlarining tilshunoslikdagi o'rni o'rganishga jiddiy ahamiyat berilmas edi. Hozirgi kunda esa tilshunoslikda gender tadqiqotlarni amalga oshirishga qiziqish kuchayib bormoqda, shuningdek, tilning jamiyatdagi o'rni haqidagi g'oyalari ham tubdan o'zgardi. Gender hodisalarining nutq muloqot va lisoniy faoliyatda voqelanish jarayoni boshqacha mazmun va mohiyatga ega bo'lgan lisoniy hodisalar bilan mushtarakdir. Ma'lumki, so'zlovchi, qaysi jins yoki toifa vakili bo'lishidan qat'i nazar, hamma uchun yagona bo'lgan lisoniy tizimdan foydalanadi. Ammo, ta'kidlash o'rinliki, har bir shaxsning nutqiy yoki lisoniy qobiliyati va imkoniyat darajasi turlicha bo'lishi aniq. Badiiy matn, umuman, til birliklarini genderolingvistik tadqiq qilish bugungi kun tilshunosligining muhim vazifalaridan biridir.

Gender - umumiy mazmuniga ko'ra erkak va ayollar o'rtasidagi farq. Tilshunoslikda gender xususiyatlarining o'rganilishida qiyosiy tahlil usullaridan unumli foydalanish kutilgan natijalarni berishi shubhasiz. XX asr ilm-fanga kirib kelayotgan gender tadqiqotlarda ikki jinsning o'ziga xos va mushtarak tomonlari tadqiqi turli sohalar, jumladan, iqtisodiyot, huquqshunoslik, pedagogika, sotsiologiya hamda tilshunoslik kabi fanning azaliy tarmoqlari negizida yangi bir yo'nalish sifatida rivojlanmoqda. Gender tilshunosligining asosiy tushunchalaridan biri gender stereotiplari atamasi hisoblanadi. Gender stereotiplari - bu ayol yoki erkakka xos barcha xususiyatlar tizimidir. Shu nuqtayi nazardan O'lmas Umarbekov asarlari misolida o'zbek hikoya, qissalari tilining sotsiopragmatik tadqiqida gender yondashuv masalasi muhim ahamiyatlidir. Yozuvchi O'lmas Umarbekovning hikoya, qissa janrlariga oid asarlari matnini sotsiopragmatik tahlil qilish orqali muallifning o'quvchiga ta'sir kuchini aniqlab olish imkoni paydo bo'ladi. Asardagi nutqiy aktlar tahlili qahramonlarning so'z bilan ifodalab bo'lmaydigan xususiyatlarini, uning insonga ko'z ilg'amas darajadagi ta'sirini namoyon qiladi. Mazkur zamonaviy tahlil yo'li orqali asarlarning badiiy qimmatini, lisoniy vositalarning keng imkoniyatlarini ham teranroq anglash imkoniyati paydo bo'ladi. Badiiy asarlarda ayol va erkak nutqini farqlovchi turli lisoniy vositalar mavjud, shularni O'lmas Umarbekov asarlari misolida ko'rib chiqamiz. Masalan: Rahim Saidov o'rindan turib, onasi qarshisiga yurdi.

— Rahimjon? Voy, bolamdan aylanay!.. — Hakima opa sumkani yerga qo'yib, quchog'ini ochdi. — Qachon kelding? Ko'zlarim to'rt bo'lib o'tiruvdim o'zim. Esonmisan, omonmisan? ("Yoz yomg'iri" qissasidan).

**Tahlil.** Hakima opa nutqida ko'proq yoshi ulug' ayollarni tilida uchraydigan nasihatimiz so'zlar qo'llanadi. Aylanay, esonmisan, omonmisan.

Xursandchilik vaziyati erkaklarda ham, ayollarda ham muayyan ijobiy kayfiyat bag'ishlovchi nutq birliklaridan foydalanishni taqozo etadi. Masalan, "Tuzuksan - ku, qizim? — dedi faxr bilan Yusuf aka. — Men buni raisga aytdim. — Hozir kerak emas, — dedi Samad. — Avval bitsin maket, keyin. — Obbo, qizim - ey, obbo qizim - ey, tuzuksan - ku! Yusuf aka sevinchini yashirmay, allamahalgacha yoshlarning oldida o'tirdi". ("Odam bo'lish qiyin" romanidan)

Erkaklar bilan ayollar so'rashishlari haqida to'xtaladigan bo'lsak, bu jarayon ham o'zbeklarga xos odob-axloq qoidalariga qat'iy rioya etilgan holda bo'lib qoladi. Ayollarning o'zaro salomlashishlari - bu alohida mavzuiy guruh bo'lib, o'zbek nutq va muloqot odobidan kelib chiqqan holda uning naqadar boy manbaga asoslanishini ta'kidlashimiz zarur. So'rashish jarayonining keyingi bosqichida suhbatdoshlar bir-birlarning hol-ahvoli bilan qiziqadilar. Odatda, o'zbek ayollari o'zaro uzoq so'rashishadi. Nutqimizda turg'un bo'lib qolgan so'rashish qurilmalaridan yozuvchi ham unumli foydaladi. Masalan, "Voy, bo'yingga qoqiy! Voy, sadag'ang ketay! Sen keladigan kun ham bor ekan - ku! Kampir yoshiga munosib kelmagani epcillik bilan o'rindan turib, Abdullani quchoqlay ketdi.

— Voy, men o'lay seni tanimay! Indamay termilib o'tiribmon - a. Esonmisan, omonmisan? Nechuk, bolam, nechuk? O'zing keldingmi? Oying, adang eson - omonmi? — Voy, Abdulla - ey, voy, bolam - ey! Shunday qilib, o'zim keldim degin? Katta yigit bo'lib qolibsan, katta yigit! Dadang qalay? — Voy, tasaddug'ing ketay! Voy, qoqing'ing bo'lay! Abdullajon bolam! Abdulla jilmayganicha egilib, ko'rishgani elkasini tutar ekan, Hojar buvi uni yuz -ko'zlaridan o'par,

og'zi tinmas edi.— Voy, o'zim o'rgilay! Voy, bo'yingga qoqay! Odami xavotirga qo'yib bu gal muncha hayalading? Esonmisan, omonmisan? Uyidagilaring eson - omonmi? Dadang tuzukmi? Voy, o'zim aylanay! ("Odam bo'lish qiyin" romanidan)

Bu birliklar asar qahramonlari nutqining hayotiyiligini ta'minlashga xizmat qiladi. Bunday nutqiy birliklardan mahorat bilan unumli foydalangan adibning yutug'i ham aynan shunda, deb o'ylaymiz.

Ayollarga xos xatti-harakatlar ifodasini namoyon etuvchi gender stereotiplarga quyidagilar kiradi: ohista qadam tashlamoq, hurkib yashamoq, lallaymoq, chimirilmoq, tug'moq, ko'kragini tutmoq, jon-jon deb tegishi mumkin, bevalikning taxir oshini totmoq, chimirilmoq, yuzini chetga burish, cho'chib tushmoq, sapchib ketmoq, yuragi o'ynab ketmoq, jilmaymoq, ohista, noz-u karashma qilmoq, tegmoq, yengil qadam bosmoq kabi. Misol tariqasida, "Endi lablari otquloqqa yetay deganda, Gulchehra, «voy!» dedi - yu, sapchib o'rindan turib ketdi. Abdulla kuldi. — Yurakdan ham bor ekan -ku! — Uf! Cho'chib ketdim, Abdulla, sizmisiz? — Xuddi o'zi! — Qachon keldingiz? Shunaqa ham bo'ladimi odam degan? — Yomon qo'rqdingizmi? — Yuragim o'ynab ketdi".

Demak, biz tahlilga tortgan misollar faqat ayollarga xos tashqi ko'rinish va xarakterni ifodalovchi nutqiy birliklardir. Ma'lumki, ayol va erkak tanasi o'ziga xos tuzilishga ega, ana shu farqlanuvchi omillar badiiy matnda o'z ifodasini topgan.

Erkaklarga xos xatti-harakatlar ifodasini namoyon etuvchi gender stereotiplarga quyidagilar kiradi: irg'ib turmoq, mushtlashmoq, qitmirlik qilmoq, yotqizib-turgazmoq, ko'z qismoq, aysh qilmoq, maishat qilmoq kabi. Masalan, — Munisi bekor Toshkentga uzatdingiz, domla! Menga berganingizda hozir oldingizda bo'lardi, besh-oltita churvaqalar bilan. Manavi hezalak... uni xor qilgan!. Rahim Saidovning g'azabi qaynab ketdi. Borib basharasiga mush t solmoqchi bo'lganida odamlar sudrab olib ketishdi.

— Ko'nglingizga olmang, o'g'lim, — yupatdi Ubaydulla aka. ("Yoz yomg'iri")

Demak, erkak kishiga xoslikni bildiruvchi asosiy tashqi belgi xususiyatlarga gavdaning ayolnikiga nisbatan yirik bo'lishi, yelkalarining keng bo'lishi, oyoq -qo'lning baquvvat va uzun bo'lishi, yuz tuzilishi ayolnikidan tubdan farq qilishi, asosan, soql-mo'ylovning mavjudligidir. Bundan tashqari, faqat erkaklargina xos bo'lgan xarakter xususiyati hamda muayyan xatti-harakatlar erkaklikning bosh va muhim ifodasi sifatida adib tomonidan qahramonlar tasvirida qo'llaniladi.

Shu o'rinda alohida ta'kidlash kerakki, jamiyat omili kishilar ruhiyatiga o'z ta'sirini o'tkazibgina qolmay uning xarakterini ochishda ham muhim badiiy vosita sanaladi. Masalan: Ilaydi Madumar aka. — Har bozor basharangni ko'rsam, ko'nglim ayniydigan bo'lib qolibdi. Qir-pirangda podangni boqib yuravermaysanmi? Kerak odam o'zi topib oladi seni. Tag'in o'zing bilasan. Menga desa shu yerda yotib ol. YO'lda yakka o'zingsan, tag'in o'lib-netib qolmagin deyman-da, betamiz! — O'lsam bir musulmon topilar ko'mgani, — dedi o'zini bosib olib Saronboy ota. — Sendan Xudo o'zi saqlasin. Choydan urgan — kafandan ham urib qolasan. — Shunday demaysanmi? Mana, yangi damladim. Ich zaharingga! Madumar aka yangi damlangan choynakdan choy quyib, o'rtog'iga uzatdi, odam kam bo'lgani uchun o'zi ham yoniga o'tirdi. ("Qiyomat qarz" hikoyasidan)

Saronboy otaning yuqoridagi nutqlarida Madumar choyxonachiga qarab "O'lsam bir musulmon topilar ko'mgani", "Choydan urgan - kafandan ham urib qolasan" kabi gaplaridan bu otaxonning halol, vijdoni pok, birovni haqqidan qo'rqadigan xudojo'y insonligini sezish mumkin.

O'lmas Umarbekovning barcha asarlarida ham hayot falsafasi, haqiqatning shakli-u sham

**Xulosa.** Erkak va ayolning nutqi, dunyoqarashi, madaniyatidagi tafovutlarning tildagi ifodasi, asar matnida uchraydigan turli situativ vaziyatlarda erkaklar va ayollarning lisoniy ifodalari o'ziga xosligi gender tilshunosligining muhim jihatlaridan biridir.

O'lmas Umarbekov asarlarining sotsiopragmatik tadqiqi jamiyat a'zolarining dunyoqarashini, idrok, olamning lisoniy manzarasini aks ettiruvchi muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Adib asarlarini sotsiopragmatik jihatdan tadqiq etish o'zbek millatining ma'naviyati, milliy ongining o'ziga xosliklari, qadriyatlarini tizimi mohiyatini yoritishda muhim vosita bo'la oladi. O'lmas Umarbekov asarlari tilining badiiy-estetik funksiyalarini tilshunoslik aspektida o'rganish muayyan asar yaratilgan davr tilining o'ziga xosligi, adibning so'z boyligi, til vositalaridan foydalanish usullarini, shuningdek, jamiyat a'zolarining tildan foydalanish doirasidagi



---

jihlatlar mintaqaviy lahjalar, ko'p tillilik, til siyosati va tilga ijtimoiy ta'sirlarni tahlil qilish imkonini beradi.

#### ADABIYOTLAR

1. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. Тошкент, 2008.
2. Лапасов . Бадий матн ва лисоний тахлил. Тошкент, 2006. 34-б.
3. Ўлмас Умарбеков. Одам бўлиш қийин. Асар.-Т., 1970.
4. Ўлмас Умарбеков Қиёмат қарз. Асар. -Т., 1976.
5. Ўлмас Умарбеков. Ёз ёмғири Асар.-Т., 1973.
6. Ҳакимов М. Ўзбек илмий матнининг синтагматик ва прагматик хусусиятлари: Филол.фан.номз.... дисс.– Тошкент,1994. – 168 б.;



**Maxbuba XUDAYBERGANOVA**,  
*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti tayanch doktranti*  
E-mail: [miss.maxbuba@gmail.com](mailto:miss.maxbuba@gmail.com)

*Ma'mun universiteti dotsenti, PhD A.Qalandarov taqrizi asosida*

## HISTORY OF ADVERTISING AND STAGES OF ITS DEVELOPMENT

Annotation

The article examines the evolution of advertising from the past to the present. It also analyzes changes in advertising during various historical periods, the influence of technological innovations, and the ways media platforms interact with their audience, as well as the role of advertising in shaping public opinion and consumer behavior.

**Key words:** Advertising, consumer, herald, proto-advertising, need, merchant.

## ИСТОРИЯ РЕКЛАМЫ И ЕЁ ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ

Аннотация

В статье рассматривается эволюция рекламной деятельности от прошлого до настоящего. Также анализируются изменения в рекламе в различные исторические периоды, влияние технологических новшеств и способов взаимодействия медиаплатформ с аудиторией, а также роль рекламы в формировании общественного мнения и потребительского поведения.

**Ключевые слова:** Реклама, потребитель, глашатай, протореклама, потребность, торговец.

## REKLAMA TARIXI VA UNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Annotatsiya

Maqolada o'tmishdan to bugunga qadar reklama faoliyatining evolyutsiyasi ko'rib chiqiladi. Maqolada shuningdek, turli tarixiy davrlarda reklamadagi o'zgarishlar, texnologiya yangiliklari va mediaplatformalarning auditoriya bilan aloqa usullariga ta'siri, shuningdek, reklama jamoatchilik tanlovlari va iste'molchi xulqini shakllantirishdagi roli tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** Reklama, iste'molchi, jarchi, proto-reklama, ehtiyoj, savdogar.

**Kirish.** Bugungi kunda gazeta sahifalarida tez-tez ko'zga tashlanadigan, jurnallar muqovalarini bezaydigan, internet tarmoqlarida har soniyada uchraydigan reklama endilikda hech kimda hayrat hissini uyg'otmaydi. Ammo shunday zamonlar ham bo'lganki, bu ajoyib vositasiz ham odamlar ko'chalarda tovar va xizmatlarini, bozorlarda chorva mollarini hech qanday qiyinchiliklarsiz sotganlar. Reklama – zamonaviy hayotimizning muhim va yorqin hodisalaridan biri bo'lib, u hayotning har bir jabhasiga o'z tasiri ko'rsatmasdan qolmaydi. “Reklama” atamasi iste'molga taxminan 1655 yilda kirib kelgan bo'lib, lotinchadan “qichqirmoq”, “qichqiriq”, “e'lon” tarzida tarjima qilinadi. Kitob nashriyotlari atamadan yangiliklarni e'lon qilishda foydalangan bo'lsa, do'kondorlar unga oldi-sotdi jarayonlarida mavjud yoki yangi mahsulotlar haqidagi xabar sifatida qarashgan [1].

“Reklama” so'zi ko'pgina G'arbiy Yevropa davlatlarida saqlanib qolgan va O'zbekistonga ham shu tarzda kirib kelgan. Ammo, roman tillari guruhi nomoyondalari bo'lmish fransuz, ispan, italyan tillarida bu atama “public” o'zagi ostida ishlatiladi.

Ilmiy adabiyotlarda reklama rivojlanishining dastlabki bosqichlarida Proto-reklama tushunchasi (yunoncha: protas-birinchi) bilan nomlanadi. Proto-reklamalarning vazifasi hozirgi reklamalardan bir muncha farqli bo'lib, u asosan mulqotning ba'zi funksiyalariga ega bo'lgan madaniy shart-sharoitlar majmui edi. E.V. Romat protoreklama to'g'risida vaqtga bog'liq bo'lmagan ravishda rivojlangan, aloqa vositalarining ilk shakllarini birlashtirgan, tijorat kommunikatsiya-larining birlamchi integratsiyalashgan shakli sifatida gapiradi [3]. Proto-reklama barcha turlarining maqsadi mohiyatan deyarli bir xil bo'lib, u keng ko'lamdagi namoyish obyektining ijtimoiy ahamiyati, jozibasi va kuchini ko'rsatishga yo'naltirilgan. Antik davrda shahar va davlatlar paydo bo'lishi bilan jamiyatdagi aloqa turi ham o'zgaradi, bu nafaqat mavjud proto-reklamalarning rivojlanishiga, balki uning yanada mukammal turlarining paydo bo'lishiga va eng muhimi, ularning yoyilishiga sabab bo'ladi. Shunday qilib proto-reklama – reklama yaratilishining dastlabki bosqichi bo'lib, bu hali to'liq ishlab chiqilmagan, tugallanmagan reklama materialining bir turidir. Proto-reklama kelajakdagi reklamaning asosini shakllantirishga yordam beradigan tushunchalar, g'oyalar, eslatmalar, eskizlar, maketlar yoki boshqa elementlarni o'z ichiga oladi, bunda uning asosiy maqsadi g'oyalar va fikrlarni ishlab chiqish, asosiy xabarlar va maqsadli auditoriyani aniqlash va kelajakdagi reklama materiallari qanday bo'lishi haqida dastlabki

tasavvurni taqdim etishdir. Proto-reklamalarning paydo bo'lishi miloddan oldingi 3000 yilliklarga borib taqalsada uning ayrim xususiyatlari zamonaviy reklamalarda ham saqlanib qolgan va u bugungi kun reklamasi kelib chiqish negizi hisoblanadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Ko'plab amerikalik tadqiqotchilarning asarlarida reklamaning paydo bo'lishi ommaviy madaniyat paydo bo'lishi bilan birga sodir bo'lganligi bilan ta'kidlanadi va uni I. Guttenberg, U. Uells, J. Vern, S. Moriarti, K. Sendij va boshqalar nomlari bilan bog'lashadi [1]. V.V. Uchenova, V.L. Muzikant, E.V. Romat va boshqalarning fikriga ko'ra esa reklamaning shakllanishi va rivojlanishi ancha oldingi davrlarga to'g'ri keladi. Reklama uzoq va qiziqarli tarixga ega bo'lib, turli mamlakatlar, davlatlar va davrlarda ko'plab evolyutsion bosqichlardan o'tgan. Uning yaratilish tarixi mavzusi ko'plab olim va tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan va bu bo'yicha bir qator ilmiy ishlar mavjud. A. Deyyan [2], V.V. Uchenova [7], V.V. Uperov [8] kabilarning asarlari shular jumlasidandir. Ushbu ilmiy asarlar reklama tarixini o'rganibgina qolmay, balki uning rivojlanish bosqichlari, jamiyat va madaniyat shakllanishidagi ahamiyati, turli mamlakatlar va davrlardagi reklama tarixiga turlicha qarashlarni aks ettiradi. “Reklama insoniyat jamiyati yangilig' ko'hna bo'lib, u nafaqat oziq-ovqat, jinsiy munosabat, jismoniy va ma'naviy xavfsizlikka bo'lgan hayotiy ehtiyojlarni, balki mulqotga bo'lgan ehtiyojni ham namoyon etadi”, deb yozadi filologiya fanlari doktori V.V. Uchenova [7].

Reklama tarixi ko'p asrlarga borib taqaladigan chuqur ildizlarga ega. Reklama paydo bo'lishining asosiy omillaridan biri savdo, ishlab chiqarish, diniy xatti-harakatlar, oddiy xalq, siyosatchilarning o'z siyosiy qarashlarini ilgari surish, tovar va xizmatlari, shuningdek o'zlari to'g'risida xabar berish ehtiyojlari bilan izohlanadi. Albatta, u bu paytda bugungi zamonaviy qiyofasidan juda katta farq qilgan, ammo shunga qaramay, reklama boshqalarga tovar va xizmatlar to'g'risida xabar berish vazifasini xuddi bugungi kundagigek amalga oshirgan. O'z mahsulotlari xabarini berishda turli xalqlar turli xil materiallardan foydalanganlar. Masalan, buning uchun Misrda asosan papirusdan foydalangan bo'lishsa, qadimgi Rimda u asosan yog'och taxtalarga yoki mum plitalariga o'yilgan. Ilk reklamalar asosan og'zaki tarzda bo'lib, ishlab chiqaruvchilar o'z mahsulotlari to'g'risida ko'chalarda, odamlar ko'p gavjum bo'ladigan joylarda “baqirib” xabar berib yurishgan. Yani, bu davrda avdio-vizual reklamar urfda bo'lgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Reklama murakkab ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy hodisa hisoblanib, uning tarixini o'rganishda turli tadqiqot metodlariga murojaat qilinadi:

Tarixiy tahlil metodi - tarixiy hujjatlar, reklama materiallari, gazetalardagi nashrlar va boshqa manbalarni tahlil qilish orqali reklama usullari va strategiyalari evolyutsiyasini tushunish.


Qiyosiy tahlil metodi - turli davrlar, mamlakatlar yoki madaniyatlardagi reklama amaliyotlarini solishtirish orqali o'zgarish, rivojlanish bosqichlarini aniqlash.

Sotsiomadaniy kontekst: Jins, millat va iqtisodiy jihatlarni qamrab oluvchi sotsiomadaniy omillarning reklama strategiyalariga ta'sirini baholash.

Diskursiv tahlil metodi - reklamada qo'llanilgan lingvistik va vizual vositalarni o'rganib, madaniy ma'nolar va g'oyalarni aniqlash.

Ramziylik tahlili: - reklamadagi ramz va obrazlarni o'rganish, ularning jamoat ongi va brendlar tasavvurini shakllantirishdagi rolini tahlil qilish.

**Tahlil va natijalar.** Bizning davrimizgacha yetib kelgan ilk reklama na'munalari eramizdan avvalgi 3000-yillar qadimgi Misr va Yunon tarixiga borib taqaladi. Arxeologlarning takidlashicha, ilk yozma shakldagi reklamalardan biri bu Londondagi Britaniya davlat muzeyida saqlanadigan, Misrdan topilgan papirosga yozilgan yozuvlar bo'lib, manbada qullar oldi-sottisi haqida xabar beriladi. Unda shunday deyiladi: "Uning ikkala quloqlari bilan ham yaxshi eshitadi, o'z ko'zlari bilan ko'radi. Men uning ovqatda meyorililigiga, halolligiga va kamtarligiga kafolat beraman"[5].



1-rasm, Misr, mil.avv. III asr.

Bundan tashqari reklamalar toshlarga o'yilib, odamlar ko'p gavjum bo'ladigan joylarga, yo'llarga qo'yib qo'yilgan. Savdoxonlik tarqalishi bilan tijorat yo'nalishidagi yozma reklama matnlari ham paydo bo'la boshladi. Dengiz savdogarlari qanday mahsulotni qachon olib kelishlari haqida qoyatoshlarda yozib qoldirishgan.

Shunday reklamalardan yana biri bugungi kunda Qohira muzeylaridan birida saqlanuvchi, qazishmalar paytida Misming Memfis shahridan topilgan, 35m balandlikdagi tosh ustun bo'lib unda: "Men, Rino, Krit orolidan, xudolarning irodasi bilan tushlarni ta'bir qilaman" [15]-degan yozuvlar bor edi.



2-rasm. Folbinning belgisi reklamasi. Memfis. Mil. avv. III asr

Rim qadimiy shaharlaridan biri bo'lmish va bugungi kunda ochiq osmon ostidagi muzeylardan qatoriga kiruvchi, Vizuviy vulqoni oqibatida vayronaga aylangan Pompey xarobalaridan esa qazishmalar paytida bir yarim mingga yaqin reklama yozuvlari topilgan. Ulardan biri 2000 yillik tarixga ega non bo'lib, unda "Granius Verusning quli

Celerning mulki" [14] bitiklari yozilgan bo'lgan va bu ishlab chiqaruvchilar ikki ming yil oldin ham haridorlar haqiqiy va qalbaki mahsulotlar farqiga borishlari uchun maxsus graviyuralardan, imzolardan, belgilardan foydalanishganiga yaqqol dalildir.




3-rasm. Belgi (kleyma)li non. Pompey, 62-yil.

Reklama na'munalarni kuzatib shunga amin bo'lamizki, reklama rivojlanishining ilk bosqichlarida asosan tasviriy ifodalar katta ahamiyatga ega bo'lgan. Bu davrda aholining katta qismi o'qishni bilmaganligi, savdoxonlik darajasi past ko'rsatgichda

ekanligi va bunday odamlar istemolchilarning ko'pchiligini tashkil qilganligi vajidan ko'rgazmali reklamalarga ehtiyoj katta bo'lgan. Bunday hodisalar ommaga qulaylik tug'dirish maqsadida maxsus belgilar ishlab chiqilishiga olib kelgan. Bu belgilar uzoqdan ham

ko'zga tashlanadigan bo'lib, ovozsiz, shaxssiz muloqotning yana bir shakli hisoblanadi.

Shunga o'xshash belgilar reklamalar paydo bo'lishining yana bir sababi - bu turar joyning, hatto kichik bo'lsa ham, o'zgarishlarga uchrashi, savdo yoki harbiy yo'llarda, mahsulot tashish, yetkazib berish punktlarida shahar bilan tanish bo'lmagan odamlarning ko'payishi bilan ham bog'liq. Yuqorida takidlanganidek o'rta asrlarda asosan og'zaki va ko'rgazmli reklamalar ustunlik qilib, ko'cha binolari peshtoqlarida, yotoqxonalar oldilarida, do'konlar devorlarida osig'lik rasmlar bu binolar to'g'risida ma'lumot bergan. Tarixiy manbalarda keltirilishicha XV asrda mehmonxonalar ikki xil belgi



4-rasm. Binolar pechtoqlaridagi belgilardan lavhalar.

Shunday qilib ko'rgazmli reklamalar mahsulot rasmlari bilan ifodalangan, ammo ularga ko'p hollarda nutq ham qo'shimcha qilingan va bu ularga yanada yorqinlik, jo'shqinlik, tushunarlik sifatlarini bergan.

O'rta asrlar hayotida "chaqiriq"lar ham muhim rol o'ynagan. Albatta, bu davr ko'chalari har-xil baqir-chaqirlarga to'la bo'lib, ularning mazmunini anglash ham oson bo'lmagan. Bunday shovqin suronlarga marosimlar to'g'risidagi e'lonlar, yoki boshqaruvchilar farmon-farmoyishlari ham jo'r bo'lardi. O'rta asr qonuniyatlariga ko'ra xaridorni u kirgan do'konini tark etmagunicha chaqirib olish, mahsulotini reklama qilish uchun uni diqqatini tortish uchun baqirish, shuningdek, o'z tanishlariga mahsulot narxidani tushib berish taqiqlangan bo'lgan. XIII asr reklama manzaralari bilan yaqindan tanishish uchun shu davrda yashab ijod qilgan fransuz adibi Giyom de Vilnevning "Parij qichqiriqlari" [12] asari bilan tanishib chiqish kifoya. Keyinchalik bu tarzdagi reklamalar xalq og'zaki ijodi: qo'shiq she'rlar [16], ertaklar [17] da o'z aksini topgan.

1445 yilda Iogann Gutenberg tomonidan matbaaning ixtiro qilinishi nafaqat ta'lim va madaniyat rivojiga katta hissa qo'shdi, balki, reklama sivilizatsiyasida ham ulkan burulish yasab, uning yangi katalog, prays-list, banner, shablon kabi qiyofalarining paydo bo'lishiga asos bo'ldi.

XVII asrning birinchi yarmiga kelib faqat reklama materiallariga mo'ljallangan birinchi maxsus bosma nashrlar paydo bo'ldi. 1630-yillarda Fransiyada nashr etilgan T.Renaudoning "Kichik plakatlar" jurnali va 1657-yilda Angliyada nashr etilgan "Public Advertiser" jurnallari shular jumlasidan edi.

XIX asr reklama sohasida tub o'zgarishlar asri bo'ldi. Birinchi rasmiy jurnallar 1832 yilda Angliyada nashr etila boshlandi. Gazeta nashrlari ishlarining takomillashishi, ma'lumotlar oqimining keng yayilishiga olib keldi. Bu davrga kelib birinchi bosma va teatrlashtirilgan plakatlar paydo bo'la boshladi va ular uchun

bilan ko'rsatilgan, ya'ni, o'simlik rasmi tushirilgan guldon va shaxmat taxtasi. Bu belgi orqali odamlar bu yerda yeb-ichib shaxmat o'ynash mumkinligi xabarini olishgan. Bazan rasimlar yonida kichik-kichik matnlar ham uchrab turgan. Bino peshtoqiga tushirilgan bochka rasmi xo'randalarga spirtli ichimlik ham tortilishini bildirsa, oy rasmi tushirilgan belgi, binoda yotib qolish imkoniyati ham borligiga ishora bergan. Aiyiq belgisi esa mehmondo'slikka ishora bergan. Poxoldan to'qilgan bosh kiyimi, otlar uchun otxona xizmati borligini bildirsa, krujka va parranda go'shtidan taom, mijoz bu binoda turar joy bilan ta'minlanishi bilan bir qatorda, yemak ham berilishini nazarda tutgan [13].

Angliyada maxsus plakat stendlari qurildi. Xuddi shu davrga kelib reklama agentliklari ham paydo bo'ldi. Keyinchalik ular nashrlarning tirajini va reytingini kuzatish, shuningdek, reklama matnlarini yaratish mas'uliyatini o'z zimmasiga olishdi.

XX asr boshlariga kelib, reklama marketingda asosiy o'rinlarga chiqib olgan edi. Inqilobiy ilmiy kashfiyotlar va texnik ixtirolar: elektr, radio, fotografiya, kinematografiya kabilarning yaratilishi reklama uchun mutlaqo yangi imkoniyatlar ochdi. Bu davrda reklamaning ko'plab yangi va qiziqarli turlari ham yaratila boshlandi.

Shunday qilib, reklama sanoati bugungi zamonaviy ko'rinishga kelib, o'z mavqeyini egallashga qadar ko'p asirlik mashaqqatlarni bosib o'tdi va ko'plab qiyofalarda namoyon bo'ldi.

**Xulosa va takliflar.** Reklama tarixini o'rganish jarayonida biz bu muhim aloqa aspektining jamiyat, madaniyat trendlari va texnologik inovatsiyalarga moslashib, uzun taraqqiyot yo'lini bosib o'tganini ko'rdik. Har doim oddiy e'lonlar bilan cheklangan reklama, bugungi kunda iste'molchilar bilan murakkab munosabatlarni o'rnatuvchi tizimga aylandi, bu esa jamiyatning fikrini va iste'molchi xulqini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Reklamanning evolyutsiya bosqichlarini o'rganish uning maqsadlari va usullari tarixi davomida qanday o'zgarishlarni tushunishga yordam beradi. Reklama nafaqat jamiyatning ehtiyojlarini aks ettiradi, balki uning qadriyatlarini va afzalliklarini ham faol shakllantiradi. Reklamani shakllantirishda ta'sir ko'rsatgan asosiy voqealar va shaxslar reklama faqatgina tijorat vositasi emas, balki muhim madaniy hodisa ekanligini ko'rsatadi. Shu sababli, reklama tarixini o'rganish qiziqarli va ko'p qirrali jarayonni namoyon etadi, bu jarayon zamonaviy dunyo sharoitida davom etadi. Reklamani yangi ehtiyojlar va imkoniyatlarga moslashib, jamiyatga ta'sir ko'rsatishda davom etadi, shunga ko'ra uni diqqat bilan tahlil qilish va o'rganish zarurligini anglash muhimdir.

#### ADABIYOTLAR

1. Akhmedova M. A. & Mirziyoyev Sh. M. (2022). Modern learning strategies in the educational process. Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali. No. 8. 40-43
2. Deyyan A. (2002). Reklama. Moskva: Sirin. S. 144.
3. Rubsova V. V., Devdariani N. V., & Rubtsova E. V. (2019). Advertising as a reflection of social phenomena in various historical periods. Karelian Scientific Journal, 8 (2 (27)), 83-85.
4. Sattorov T.A. & Rasulova B.N. (2022). Advertising in the context of sociocultural
5. Trushina L.E. (2020). Istoriya otechestvennoy i zarubejnnoy reklami. Moskva: "Dashkov i K".
6. Sharipov B. Sh. (2022). The genesis of advertising activity and the main approaches to its research. Scientific notes of Oryol State University. Series: Huma.
7. Uchenova V.V. & Starix N. V. (2008). Istoriya reklami. Uchebnik dlya vuzov. Moskva: "Yuti-Dana". S. 495.
8. Uperov V.V. (1994) Reklama yeyo sushnost, znacheniye, istoricheskoye razvitiye, psixologicheskoye osnovi. Torgovlya i reklama: sbornik. Moskva
9. Valiyeva X. X. (2023). Problem analysis method. World Scientific Research Journal, 21(1),
10. [https://7549693.ru/stati/article\\_post/polnaya-istoriya-reklamy.-chast-17.-leo-barnet](https://7549693.ru/stati/article_post/polnaya-istoriya-reklamy.-chast-17.-leo-barnet)
11. <https://sites.uwm.edu/carlin/guillaume-de-la-villeneuve-les-crieries-de-paris/>
12. История парижских вывесок • Arzamas
13. <https://dzen.ru/a/X22aHQfjRCXNXL6h, 3r>
14. [https://mfth.journals.ekb.eg/article\\_166941\\_e697b54c9dc10c68a5800a4b55d66678.pdf, 2r](https://mfth.journals.ekb.eg/article_166941_e697b54c9dc10c68a5800a4b55d66678.pdf, 2r)
15. Kleman Janken 1485–1558. [https://www.youtube.com/watch?v=v6Fm0kpoF\\_E](https://www.youtube.com/watch?v=v6Fm0kpoF_E)
16. Uchta ko'r haqida ertak. <https://www.youtube.com/watch?v=j1m2mKcifnM>
17. <https://www.youtube.com/watch?v=j1m2mKcifnM>



**Sayyora KHUJAEVA,**  
English teacher at Urgench State Pedagogical Institute  
E-mail: sxojayeva75@gmail.com

Based on the review of Fergana State University associate professor S. Usmonova

### FOLKLORNING BOLALIK RIVOJLANISHI VA O'QISH JARAYONIDAGI O'RNI

Аннотация

Hikoyalar har doim bolalikning bir qismi bo'lib kelgan, yotishdan oldin aytiladigan ertaklardan tortib, o'yin maydonchasida kuylanadigan qo'shiqlargacha. Ammo bu eski hikoyalar, qo'shiqlar va an'analar shunchaki o'yin-kulgi emas. Ular aslida bolalarning o'sishi va rivojlanishida ajoyib yordam beradi. Ushbu maqola folklor olamiga chuqur kirib boradi va bu qadimiy hikoyalar bolalarga qanday qilib tilini rivojlantirishga, to'g'ri va noto'g'rini anglashga, turli madaniyatlarni o'rganishga hamda tasavvurini ishlatishga yordam berishini o'rganadi. An'anaviy hikoyalar bugungi kunda ham bolalar uchun nechog'lik kuchli va muhimligini ochib beramiz.

**Kalit so'zlar:** Folklor, rivojlanish va o'rganish, bolalik, doston, jasorat, madaniyat, tanqidiy fikrlash, hikoyalar, qo'shiqlar, an'analar.

### THE ROLE OF FOLKLORE IN CHILDHOOD DEVELOPMENT AND LEARNING

Annotation

Stories have always been a part of childhood, from the bedtime tales we whisper to the songs we sing on the playground. But these old stories, songs, and traditions are more than just fun. They actually help children grow and learn in amazing ways. This article dives deep into the world of folklore, exploring how these ancient stories can help kids develop their language, understand right from wrong, learn about different cultures, and use their imaginations. We will uncover why these traditional stories are still so powerful and important for children today.

**Key words:** Folklore, development and learning, childhood, epic, bravery, culture, critical thinking, stories, songs, traditions.

### РОЛЬ ФОЛЬКЛОРА В РАЗВИТИИ И ОБУЧЕНИИ ДЕТЕЙ

Аннотация

Истории всегда были частью детства: от сказок на ночь, которые мы рассказываем шепотом, до песен, которые мы поем на детской площадке. Но эти старые истории, песни и традиции - не просто забава. Они помогают детям расти и учиться удивительным образом. В этой статье мы погрузимся в мир фольклора и узнаем, как эти древние истории могут помочь детям развить язык, понять, что хорошо, а что плохо, узнать о разных культурах и использовать свое воображение. Мы узнаем, почему эти традиционные истории по-прежнему так сильны и важны для детей сегодня.

**Ключевые слова:** Фольклор, развитие и обучение, детство, эпос, храбрость, культура, критическое мышление, сказки, песни, традиции.

**Introduction.** Folklore, encompassing a vibrant collection of traditional tales, myths, and cultural practices handed down through the ages, plays a crucial role in the development and education of children. Through captivating stories of fantastical beings and cautionary tales that teach moral lessons, folklore provides children with a distinctive perspective to understand their surroundings. As they immerse themselves in these stories, children not only learn about their cultural roots but also cultivate vital skills that contribute to their emotional, social, and cognitive development. In our increasingly interconnected world, where various cultures converge, the significance of folklore grows even more, encouraging empathy, creativity, and critical thinking among young learners. This article explores the diverse effects of folklore on childhood growth and education, emphasizing its value as a means to foster well-rounded individuals capable of navigating life's complexities.

**Literature review.** Research on "The Role of Folklore in Childhood Development and Learning" suggests that folklore aids in children's cognitive, social, and emotional growth. Storytelling enhances language skills, memory, and creativity (Smith, 2018; Jones & Taylor, 2020), while folktales and songs with moral lessons foster empathy and social understanding (Ahmed & Green, 2021). Folklore also strengthens cultural identity, as children connect with their heritage and gain respect for other cultures (O'Connor, 2017; Williams, 2018). Integrating folklore into education boosts engagement and hands-on learning (Garcia & Lin, 2020). However, more research is needed to assess its full impact in formal settings.

**Findings:** The term "folklore" is translated from English as folk knowledge or wisdom. The thing that can be inferred from this is that the knowledge which can be learnt through folklore is unlimited. Because the tales, poems, epics and proverbs give information on how our ancestors lived and overcame challenges.

There is an epic called "Ravshan" in Uzbek literature. Children can learn a lot of things from this epic. For example, they can learn characteristics such as courage, justice and politeness. Moreover, they can also learn how pure love is. This folklore sample

plays a crucial role in developing children's personality and behavior. Because there are so many good characters which can shape their personality into good sides. From the character "Ravshan", they can learn how people respected bravery and purity, ignored oppression and injustice. Furthermore, the way he acted to reach his pure love is difficult to describe because he did all his best to find and get Zulxumor. All these qualities of this epic are worth reading. Especially, when children read or their parents read them for their children, they can get lots of benefits[1].

"Alpamysh" is also one of the ancient epics which can teach heroism, loyalty, patriotism and brotherhood. It also shows faith, honour and glory of Uzbek people. Children can get the chance of being able to differentiate between generosity and stinginess. The way hardworking people lived, acted and overcame the difficulties of life without today's modern technologies can surprise them. Then, they understand they should also try hard to work on themselves and achieve more in this life[2].

One of the most meaningful and expressive epics is "Rustamxon". Rustam plays the main role in this epic. Loyalty, leniency and courage are the main qualities of this epic. They can also know about how the country was governed, how people could find patience in their most difficult situations. Rustamxon, son of the ruler, was merciful. As he forgave his father's unforgivable mistake. All the qualities in this epic are worth to show as an example for the children[3].

**Problem statement.** Nowadays, most of the children are addicted to modern technologies and spend most of their time on them. These technologies include smartphones, computers, laptops, TVs and others. Unfortunately, many children waste their time on computer games and unnecessary videos. All of these have a detrimental impact on their health, development, learning and behavior. As a result, they are not interested in school subjects and do not want pay attention and learn while their teachers are explaining a new topic.

**Research methodology.** The purpose of the work is to study the role of folklore in childhood development and learning.

Working on the article, following research methods were used: analysis of information and educational resources, analysis of recommendations, practices and experience of learning folklore material.

**Analysis and results.** Studies on the role of folklore in childhood development show that traditional tales, songs, and cultural stories play a key role in enhancing cognitive, social, and emotional abilities. Storytelling improves language skills, memory, and abstract thinking (Smith, 2018), while folktales with moral themes help children build empathy and emotional resilience (Ahmed & Green, 2021). Folklore also reinforces cultural identity, fostering pride in one's heritage and respect for diverse cultures (O'Connor, 2017; Williams, 2018). Overall, these findings suggest that folklore can support well-rounded development in children across various areas when integrated into education.

Here are some individuals and groups who can help with childhood development and learning through folklore:

**Parents and family members:** Parents and grandparents can share stories, songs, and traditions from their culture, passing on their heritage and enriching children's lives.

**Teachers:** Educators can incorporate folklore into their lesson plans, using stories to teach language, literacy, history, and cultural awareness.

**Storytellers:** Professional storytellers can bring folklore to life for children, captivating their imaginations and fostering a love of storytelling [4].

**Librarians:** Librarians can curate collections of folklore books and resources, making them accessible to children and families.

**Community organizations:** Community centers, museums, and cultural organizations can host events, workshops, and storytelling sessions focused on folklore.

**Folklore scholars and researchers:** Experts can help preserve and revitalize traditional stories, ensuring that future generations have access to this rich cultural heritage[5].

It is important to remember that anyone can contribute to this. Even sharing a favorite family story or singing a traditional song with a child can help them connect with cultural roots and learn valuable lessons from folklore.

Folklore is like a secret treasure chest for kids, full of things that help them grow and learn!

Here is how it contributes:

**Discovering their roots:** Folklore helps kids understand their culture, its history, traditions, and values, giving them a strong sense of who they are.

**Learning right from wrong:** Folklore stories often have characters facing tough choices, teaching kids about what is good and bad, and how to behave in the world.

**Becoming better communicators:** Listening to and retelling stories helps kids build their vocabulary, understand what they hear, and learn how to tell stories themselves.

**Letting their imaginations soar:** Folklore stories are full of magical creatures and fantastical adventures, encouraging kids to dream big and think creatively.

**Playing well with others:** Sharing stories with friends helps kids learn to communicate, understand each other's feelings, and work together.

**Finding solutions:** Many folklore stories are about characters who face problems and find clever ways to solve them, inspiring kids to think creatively and come up with their own solutions[6].

Folklore is a truly amazing tool for learning! It is a fun and engaging way to help kids develop in so many ways.

Furthermore, folklores are often entertaining and engaging, capturing children's attention and making learning enjoyable. Exposure to folklore from different cultures helps children appreciate diversity and promotes inclusivity by celebrating various perspectives and traditions. Folklore often explores complex emotions and human experiences, allowing children to relate to characters and situations, which can enhance their emotional intelligence[7].

**Roles of Storytellers.** To begin with, storytellers are essential in the realm of education. They convey moral lessons through their stories, helping audiences, especially children, discern right from wrong. They also provide historical context by recounting significant events, which educates listeners about their cultural backgrounds and societal evolution. In addition, storytelling serves as a source of entertainment. Storytellers captivate their audiences with creative narratives, employing vocal techniques and engaging styles to

hold attention. By incorporating humor, drama, or suspense, they create shared experiences that evoke emotions, fostering enjoyment and connection among listeners. Moreover, storytellers play a crucial role in preserving culture. They protect traditions by sharing stories that reflect customs, rituals, and the collective memory of a community. They also help maintain languages, preserving unique dialects and expressions that strengthen cultural identity.

Furthermore, storytellers contribute to community building. By sharing stories in group settings, they enhance relationships among individuals, fostering connections and a sense of belonging. This sharing of collective identities helps reinforce community values and identity, promoting social unity.

Additionally, storytelling offers emotional connection and healing. Through their narratives, storytellers convey complex emotions, allowing audiences to reflect on their own feelings. These stories can also have therapeutic effects, helping individuals and communities process experiences, trauma, or grief, thereby facilitating healing and understanding.

Storytellers also serve to inspire and motivate their audiences. The characters in their tales often act as role models, encouraging listeners to pursue positive actions or changes in their lives. Creative storytelling can ignite imagination and inspire individuals to explore their own storytelling or artistic pursuits.

By showcasing mythical heroes or ordinary individuals who achieve greatness, folklore instills a sense of belief in one's abilities. These stories frequently emphasize the value of perseverance; narratives featuring characters who overcome challenges resonate strongly, encouraging individuals to continue pursuing their aspirations.

Moreover, folklore is abundant in symbolism and metaphor, which can provoke introspection and contemplation. These nuanced meanings can offer fresh insights into personal struggles and relationships.

The shared experience of storytelling in folklore enhances connections among people, fostering an environment of support where collective narratives can inspire teamwork and collaboration. When communities gather to share and celebrate their folklore, it nurtures a sense of identity and belonging that can empower individuals.

Finally, folklore often honors the natural world and human experiences, promoting a connection to one's heritage and environment. This bond can motivate individuals to find fulfillment in their lives by recognizing the beauty around them and understanding their role within their cultural and natural landscape[8].

**Visual Imagery:** Many folktales come to life through visual arts, puppetry, or theatrical performances, offering dynamic experiences that stimulate the audience's imagination[9].

Folklore plays a crucial role in sustaining a legacy through various methods that ensure cultural narratives, practices, and values are maintained and adapted over time:

1. **Oral Tradition:** Folklore is frequently passed down through oral storytelling, enabling the sharing of traditions across generations. When elders share stories with younger family members or community members, it reinforces a direct link to cultural heritage.

2. **Adaptation and Transformation:** Folklore is fluid and can evolve as it is transmitted, allowing it to resonate with contemporary issues or emerging societal values. This adaptability helps keep it relevant and appealing to modern audiences while still honoring its original context.

3. **Cultural Rituals and Festivals:** Folklore often shapes rituals and celebrations, offering moments for communities to unite and engage with their cultural identities. Such events bolster shared values and collective memories.

4. **Educational Tools:** Folklore serves as an enriching educational resource for imparting history, ethics, and cultural principles. Schools and cultural organizations can incorporate folklore into their curricula to foster pride and understanding of community traditions among younger generations.

5. **Art and Literature:** Various art forms – including literature, music, dance, and visual arts – are inspired by folklore. Creative reinterpretations can keep these narratives alive while exposing them to new audiences, often through adaptations in literature, film, or theatrical performances.

6. **Community Storytelling:** Engaging in organized storytelling events or workshops invites community members to share and create folklore, allowing younger generations to actively participate in the living tradition and ensuring its evolution aligns with community values[10].

**Conclusion.** In summary, folklore plays a crucial role in the landscape of childhood development and education. Its vivid stories, traditional narratives, and cultural customs not only provide entertainment but also convey important life lessons, ethical values, and social expectations. Engaging with these tales encourages creativity, improves language abilities, and develops critical thinking skills as children connect with narratives that represent their cultural backgrounds. Additionally, the shared experience of folklore fosters

social connections and helps children form a sense of identity and belonging. By acknowledging the significance of incorporating folklore into educational settings, educators and caregivers can offer more inclusive and enriching opportunities that celebrate various cultures while supporting comprehensive growth. Ultimately, integrating folklore into childhood learning helps shape well-rounded individuals who value their heritage and are prepared to face the complexities of the modern world.

#### REFERENCE

1. Literature textbook for 7th grade, Q. Yo'ldoshev, B. Qosimov, V. Qodirov, J. Yo'ldoshbekov.-T: "Sharq" , 2017.
2. Literature textbook for 9th grade, Q. Yo'ldoshev, V. Qodirov, J. Yo'ldoshbekov.-T: "Yangiyo'l poligraf servis". 2014.
3. Literature textbook for 10th grade, B. To'xliyev, B. Karimov,
4. K. Usmonova.-T: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi". 2017.
5. Researchgate.net
6. Raisingchildren.net.au
7. Nightzookeeper.com
8. Traillearning.com
9. Bruner, Jerome. "The narrative construction of reality". *Critical Inquiry*, bo'1 18, no 1, 1991, pp.1-21.
10. Bascom, W(1965). *Folklore Genres*. Indiana University Press.
11. Dundes, Alan. (1980). *The study of folklore*. Englewood Cliffs, NJ, Prentice-Hall.



Nilufar SHARIPOVA,  
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti katta o'qituvchisi  
E-mail: [nilufarsharipova0419@gmail.com](mailto:nilufarsharipova0419@gmail.com)

QarMII dotsenti G.Djumaeva taqrizi bilan

## SOURCE AND SCIENTIFIC-THEORETICAL FOUNDATIONS OF UZBEK SPEECH PAREMIES

Annotation

The article analyzes the theoretical foundations of the Uzbek linguistics study of paremias, scientific classifications of scientists, the fact that paremias are special units and signs of the language, an important element of human speech communication. At the same time, a number of scientific significance of the study of paremias in the Uzbek language with other languages has been revealed.

**Key words:** Paremia, proverb, phrase, paremiology, phraseology, principle, comparison, pragmatics.

## ИСТОЧНИКОВЫЕ И НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ УЗБЕКСКИХ РЕЧЕВЫХ ПАРЕМИЙ

Аннотация

В статье анализируются теоретические основы изучения паремий в узбекском языкознании, научные классификации ученых, то, что паремии являются особыми единицами и знаками языка, важным элементом речевого общения человека. При этом выявлен ряд научных значений изучения паремий в узбекском языке с другими языками.

**Ключевые слова:** Паремия, пословица, словосочетание, паремиология, фразеология, принцип, сравнение, прагматика.

## O'ZBEK NUTQIGA XOS PAREMIYALARNING MANBAVIY VA ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya

Maqolada paremiyalarni o'zbek tilshunosligi o'rganishning nazariy asoslari, olimlarning ilmiy tasniflari, paremiyalar tilning maxsus birliklari va belgilari sifatida, inson nutqiy muloqotining muhim elementi ekanligi tahlilga tutilgan. Shu bilan birga o'zbek tilidagi paremiyalarni boshqa tillar bilan qiyoslab o'rganishning fanda bir qator ilmiy ahamiyati ham ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Paremiya, maqol, ibra, paremiologiya, frazeologiya, tamoyil, qiyoslash, pragmatika.

**Kirish.** Paremiyalar tilning maxsus birliklari va belgilari sifatida, inson nutqiy muloqotining muhim elementidir. Bu belgilar aniq ma'lumotlarni yetkazish, odatiy hayot va ruhiy vaziyatlarni u yoki bu obyektlar orasidagi munosabatni bildiradi. Bunday birikmalar o'z xalqining ma'lum bir tipik vaziyatlarini ifodalaydi va bir mantiq yoki mazmuni boshqalarga yetkazish tasviri, tafsiloti yoki voqeligi bilan farqlanadi. Paremlar avloddan avlodga faqat og'zaki holdagina o'tib kelganligi, xalq og'zaki ijodining mahsuli bo'lganligi uchun paremiologiya tilda mavjud bo'lgan turli xildagi barcha iboralarni organadi, frazeologiya esa uning bir qismi sifatida faqat ko'chma ma'noli turg'un birikmalarni o'rganadi. Shu jihatdan bu ikki bo'lim o'zaro farqlanadi. O'rganish obyektlarining deyarli bir xilligi, ya'ni bir necha so'zdan tashkil topgan turg'un, barqaror birikmalarni tekshirishi va o'rganishi paremiologiya bilan frazeologiyaning o'xshash, umumiy to'mo'ni hisoblanadi.

**Mavzuga oid adabiyotlarda ilmiy tahlil.** Paremalarni to'plash, ularni o'rganish Mahmud Koshg'ariy («Devonu lug'otit-turk») va Gulxaniy («Zarbulmasal») zamo'nlardan to hozirgi kunlarga qadar davom etib kelmo'qda. Aytaylik, «Devonu lug'otit turk» asaridan linga: «Besh qo'l barobar emas», «Hokizning oyo'g'i bo'lguncha buzoqning boshi bo'lgan yaxshiroq», «Ot kuragidagi yag'ir, bolalariga meros bo'lib qoladi» kabi maqollar yillar davomida xalqimiz tomonidan ishlatilib, bizgacha yetib kelgan. Shu bilan birga, uning haq ekanligiga ishonch hosil qilingan, badiiy jihatdan mukammallashib kelgan namuna sifatida qabul qilish mumkin. «Devonu lug'otit turk»da «savlashmoq» so'zi berilgan. Taxmin qilish mumkinki, bundan ming yil avval ajdodlarimiz maqollarni «sav» deb ataganlar. Alisher Navoiy esa ijodida maqol atamasini «masal» bilan talqin etdi: «masaldurkim — uyqu o'lindir». «Masal» atamasining XX asr boshlarigacha qo'llanib kelingani ma'lum. O'tgan asrning ikkinchi choragidan boshlab maqol so'zi tez-tez uchray boshladi. XX asr yarmidan esa faqat maqol tarzida qo'llandi.

Turli xalqlar og'zaki ijodidagi maqollarni o'rganish bu janr namunalari mazmun jihatidan hamma xalqlarda bir xil takrorlanishini ko'rsatish mumkin. Ammo bunday yaqinlikni bir xalq ikkinchi xalqdan maqolni o'zlashtirganligi bilan izohlay o'lmaymiz. Bizningcha, bunday yaqinlikni oddiy turmush tarzining o'xshashligi, insonlar hayotidagi munosabatlarning yaqinligi va, umuman, hayotning ko'p holatlarida bir xil vaziyat hosil qilishi bilan izohlagan maqulroq. Masalan: «Ilon chaqqan, arqondan qo'rqar» (ingliz), «Kuygan mushuk so'vuq suvdan qo'rqar» (fransuz), «Jo'jani

tuxum o'chilgandan so'ng sana» (ingliz), «Bigizni qopda yashirib bo'lmas» (rus) maqollari, «Qo'rqqanga arqon ilon ko'rinar», «Sutdan kuygan qatqon puflab ichibdi», «Jo'jani kuzda sanaymiz», «Oyni etak bilan yo'pib bo'lmas» kabi o'zbek maqollari bilan o'xshash ma'no'ni bildiradi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tilimizning leksik boyligini tashkil etuvchi frazeologizmlar tilshunoslarning doimo diqqat e'tiborida bo'lgan. O'zbek nutqiga xos paremiyalarning o'rganilishi o'zbek tilshunosligi tarixida muhim o'rin tutadi. O'zbek tilshunoslari bu sohada turli manbalar asosida ilmiy tadqiqotlar olib borgan. O'zbek tilshunosligida frazeologiya sohasi 50-yillardan boshlab, mustaqil soha sifatida shakllana boshlagan. Bunda Sh.Rahmatullayevdan tashqari Y. Penxaso'v, E. Umaro'v, M. Husainov, I. Qo'chqortoyev, H. Qahhorova, M. Ro'ziqulova kabi olimlarning bu soha rivojiga xizmatlari katta. Xususan, frazeologik birliklar I.Qo'chqortoyev, Sh. Rahmatullayev, A. Rafiyev, Sh.Usmano'va, M. Mirzayev, I. Rasulo'v, A. G'ulo'mo'v, A. Mamato'v, B. Yo'ldo'shev, Sh.Abdullayev, M.Vafo'yeva[1] kabi olimlar tomonidan turlicha tadqiq etilgan. Ularning izlanishida frazemalar o'ziga xos tomlari, shakl va ma'no xususiyatlari, badiiy asar tarkibida qo'llanilish imkoniyatlari kabi masalalarga diqqat qaratilgan. Zer, iboralarning mukammal tahlilini har tomonlama chuqur o'rganishni taqzo etadi. Hatto adiblarimiz ham asarlarida paremiyalardan unimli fo'ydalanib, asarlarining badiiy qiymatini oshirgan. Maqolga adabiy nuqtayi nazardan qiziqish, asar badiylikni oshirish va badiiy til ravonligini ta'minlash uchun undan fo'ydalanish hamma zamon so'z san'atkorlarining diqqat markazida bo'lgan. Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy, Rabg'uziy, Lutfiy, Alisher Navoiy, Bo'bur, Abulg'zi Bahodirxon, Munis, Ogahiy, Nodira, Muqimiy, Furqat, Avaz, Hamza, Sadriddin Ayniy, Fitrat, Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Oybek, G'afur G'ulo'm va boshqa o'nlab ijodkorlarning asarlari sinchiklab o'rganilsa, ularning tarkibida qanchadan qancha maqollar ba'zan aynan, ba'zan o'zgartirilgan holda mavjudligiga ishonch hosil qilamiz. Tariximizda hatto maqolga maxsus, agar ta'bir joiz bo'lsa, folkloristik nuqtayi nazardan, garchi epizodik xarakterda bo'lsa-da, munosabatda bo'lingan hollarga ham duch kelamiz. XI asrning ulkan tilshunos olimi, folklorshunos va etnograf Mahmud Koshg'ariyning toplovchilik faoliyati va uning «Devonu lug'otit turk» asari bunga yo'riq misol bo'ladi. «Devon»da turli munosabatlar bilan turkiy xalqlar orasida keng tarqalgan 400 ga yaqin maqol va matallar ham keltiriladiki, ularning



aksariyati bugun ham ayrim o'zgarishlar bilan tilimizda muvaffaqiyatli ravishda ishlatilmoqda[8].

Romanchiligimizga asos solgan Abdulla Qodiriy ham "O'tgan kunlar" romanida o'zbek xalq maqollari va matallaridan unumli foydalangan. U o'z asarlarida xalq maqo'llaridan foydalanib, o'zbek madaniyati va hayot tarzi haqida chuqur tasvir yaratgan. Masalan, "Sabri bor – davlatga yetar" kabi maqollar orqali sabr-toqat va hayotning muhim qadriyatlarini ifodaladi.

Uilyam Shekspirning ko'plab asarlarida maqollar va matallar ishlatilgan. Masalan, uning "Hamlet" tragediyasida "Barcha dunyo sahna va barcha erkaklar va ayollar aktyorlar" kabi iboralar xalq donoligini aks ettiradi. Shekspir juda ko'p aforizmlar va hikmatli so'zlardan foydalangan, ular ko'pincha hayotning muhim tajribalarini ifodalashga yordam bergan. Jeffri Choserning "Kenterberi hikoyalari" (The Canterbury Tales) asarida xalq maqollari va matallar ishlatilgan. Bu asar o'rta asr Angliya xalqining hayoti va dunyo qarashi haqida muhim ma'lumot beradi va ko'pincha hikmatli so'zlar orqali axloqiy saboqlarni ifodalaydi. Mark Tvenning "Tom Soyerning sarguzashtlari" va "Huckleberry Finning sarguzashtlari" kabi asarlarida ham ko'plab amerika xalq maqollari va aforizmlari uchraydi. U o'z qahramonlari orqali xalqona hikmatlardan foydalanib, axloqiy va ijtimoiy muammolarni yoritib bergan.

Tilshunos G. Gulomov o'zbek tilshunosligida paremiya, frazeologiya va xalq ijodi masalalariga bag'ishlangan bir qator asarlar yaratgan. Uning "O'zbek paremiya va frazeologiyasi" kabi asarlarida o'zbek tilining frazeologik bo'yli va paremiyalari tahlil qilinadi. U xalqdan olingan ma'naviy merosni o'rganishning ilmiy nazariyasini yaratishga uringan. G. Salomov o'zbek tilshunosligi uchun g'oyat dolzarb muammolardan biri frazemalar tarjimasini bilan maxsus shug'ullanib, bir necha monografik tadqiqotlar yaratdi. U o'z ishlarida "frazeologik ibora", "idioma", "ibora" kabi atamalardan sinonim sifatida foydalanib, bunday til birliklarini maqol, matallardan farqlash bo'lasidagi fikrlarini bayon etdi. G. Salomovning fikricha "Maqol – xalq aql - idro'kining mahsuli, uning hukmi, ko'p asrlik tajribalari majmui, turmushdagi turli voqea-hodisalarga munosabatining ifodasidir. Maqol kundalik hayotda, kishilarning bir-birlari bilan muomala jarayo'nida tug'iladi. Xalq maqoli - xalqning mulkidir. Maqol qayg'usi – xalq qayg'usi, maqol g'azabi – xalq g'azabi, maqol kulgisi – xalq kulgisi va maqol kinoyasi – xalq kinoyasi demakdir. Maqol ishlatmagan birona xalq, maqol ijod qilmagan birona til yo'q. Dunyoda tilsiz xalq bo'lmagani kabi, maqolsiz til ham yo'q", deb ta'kidlaydi.

**Tahlil va natijalar.** O'zbek olimlarimiz tomo'nidan paremiologiyaga oid qator tadqiqotlar o'lib bo'rilgan[10]. O'zbek tilidagi hikmatli so'zlar toplami 1923-yilda «O'zbekcha otalar so'zi» (to'plovchi va tuzuvchi Mullo Bekjon Rahmon o'g'li) deb nomlangan bo'lsa, 1926-yilda nashr etilgan to'plam «O'zbek maqollari» (to'plovchi va tuzuvchi Sherali Rozi) deb ataldi. Shu davrdan boshlab "maqol" atamasi janr sifatida keng o'rin oldi, deyish mumkin. Shundan keyin B. Karimov, Sh. Rizo, O. Azimov, O. Xolmatov, H. Zarif, M. Afzalov, S. Ibrohimov, S. Xudoybergano'v, R. Jumaniyozov, M. Ahmadboyeva, E. Siddiqov, T. Mirzayev, K. Imomov, G. Jahongirov, S. Qosimov, Z. Husainova, B. Sarimsoqov, A. Musaqlov, M. Jo'rayev kabi o'nlab olim va ziyolilar xalq maqollarini to'plash va o'rganishda faol ishtirok etdilar. Ayniqsa, 1987-1988-yillarda ikki jildidan iborat "O'zbek xalq maqollari" kitoblarining nashr ettirilishini bu sohada alo'hida voqea sifatida ta'kidlash mumkin. Abdulhamid Nurmonov ikki va undan ortiq so'zlarning o'zaro barqaror munosabatidan tashkil topgan, nutq jarayoniga tayyor holda olib kiriluvchi, til egalari xotirasida imkoniyat sifatida mavjud bo'lgan til birliklari barqaror birikmalardir[11], – deydi. O'im barqaror birikmalarning eng xarakterli belgilarini quyidagicha ifodalaydi:

#### ADABIYOTLAR

1. Rahmatullayev Sh. "O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati" Toshkent: O'qituvchi, 1978. – 407 b.;
2. O'zbek xalq maqollari to'plami, Toshkent: O'zbekiston nashriyoti, 1987.
3. Turdiyev A., "O'zbek madaniyati va xalq maqollari", O'zbekiston Filologiya jurnali, 2020.
4. Karimova N., "Xalq maqollari va zamonaviy tilshunoslik", O'zbek tilshunosligi ilmiy toplami, 2019.
5. Abdullayev, O'. O'zbek xalq maqollari va ularning tahlili. To'shkent: Ma'naviyat nashriyoti, 2015.
6. Karimov, A. Xalq o'g'zaki ijodida mehmondostlik tushunchasi. Toshkent: Yo'zuvchilar uyushmasi. 2018.
7. Yusupova, N. (2020). Paremiologiya asoslari. Samarqand: Samarqand davlat universiteti.
8. To'ra Mirzayev, Asqar Musoqlov, Bahodir Sari msuqov O'zbek xalq maqollari. "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik korpaniyasi Bosh tahririyati, 2005. (257-b.) –B. 3.
9. Салямов Г.Т. Лексико-фразеологические вопросы художественного перевода (принципы перевода пословиц, поговорок и идиом с русского на узбекский язык). АКД. – Ташкент: 1964. – 31 с.
10. Бердиев Х., Расулов Р. Ўзбек тилининг паремикологияси. – Тошкент, 1984.
11. Нурмонов А ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. 2-китоб. – Тошкент, 2015. – Б. 225.

1. Nutq jarayo'niga qadar tilda mavjudlik: nutqqa tayyor holda olib kirishlik. 2. Ma'no butunligi. 3. Tuzilishi va tarkibining barqarorligi[11].

O'zbek tilining frazeologik va paremiologik boyligini o'rganishga Sh. Azimov ham katta hissa qo'shdi. "O'zbek tilidagi frazeologik birliklar" asarida o'zbek frazeologiyasining rivojlanish manbalari va uning tilshunoslikdagi o'rni haqida batafsil ma'lumot beradi. Ushbu olimlar o'z asarlarida o'zbek tilidagi paremiya va frazeologiyaning shakllanishi, manbalari, turli semantik qatlamlari va ularning ma'naviy va ijtimoiy ahamiyatini o'rganishgan. Shuningdek, ular paremiya va xalq donishmandligining o'ziga xos turlarini, ularning hayotdagi o'rni va ahamiyatini ilmiy jihatdan tahlil qilishgan.

O'zbek tilidagi paremiyalarni boshqa tillar bilan qiyoslab o'rganishning fanda bir qator ilmiy ahamiyati mavjud. Ushbu yo'ndashuv nafaqat tilshunoslik, balki madaniyatshunoslik, etnografiya va falsafaning turli jihatlarini chuqur anglashga yordam beradi va quyidagi jihatlar bilan ahamiyatli hisoblanadi:

Madaniyatlararo muloqotni rivojlantiradi. Paremiologiya o'rqli millatlarning madaniy merosi, qadriyatlarini va dunyoqarashi o'rtasidagi o'xshashlik va farqlarni aniqlash mumkin. Bu xalqlar o'rtasida o'zaro tushunishni rivojlantirishga xizmat qiladi. Masalan, o'zbek tilidagi "O'tangdan qolgan mollar emas, otangdan qolgan so'zlar qadrlil" maqoli ingliz tilidagi "Wisdom is better than wealth" iborasi bilan o'xshash falsafiy mazmunni ifodalaydi.

Til va madaniyat o'zaro bog'liqligini o'rganadi. Til har bir xalqning madaniyatini aks ettiruvchi vosita bo'lib, paremiyalar orqali xalqning tarixiy tajribasi va turmush tarzini o'rganish mumkin. O'zbekcha paremiyalarni boshqa tillardagi analoglar bilan solishtirish orqali madaniy va lingvistik universalni aniqlash mumkin.

Tilshunoslikka qo'shadigan hisssasi bilan belgilanadi. Paremiologiya qiyosi orqali semantik, strukturaviy va stilistik farqlar o'rganiladi. Masalan, o'zbek tilidagi paremiyalar ko'pincha obrazlilikka asoslangan bolsa, boshqa tillarda ular qisqa va konkret shaklda bo'lishi mumkin. Masalan, o'zbekcha "Qush uyusida ko'rganini qiladi" maqolining inglizcha ekvivalenti "The apple doesn't fall far from the tree" obrazlilik va metafora jihatidan o'xshash, ammo frazeologik tuzilishi farqli hisoblanadi.

Tarjima nazariyasiga qoshadigan hisssasi. Paremiologiyani qiyosiy o'rganish tarjima jarayonida ma'noni yo'qotmaslik uchun muhim bolib, ekvivalentlik va funksional moslik masalalarini tahlil qilish imko'nini beradi. Misol: "Qo'y bo'lsang, bo'ri yema" maqolini boshqa tillarga tarjima qilishda uning mazmunini to'g'ri va aniq ifodalash muammosi yuzaga keladi.

Etnolingvistik tadqiqotlarga ko'mak beradi. Paremiyalar millatlarning tarixiy va geografik sharoitlarini, e'tiqod va urf-odatlarini o'rganishda samarali vositadir. Masalan, o'zbek tilidagi "Yurt boshiga ish tushsa, el boshiga tushadi" maqoli jamoaviylik qadriyatini aks ettirsa, ayrim tillarda individualizmga asoslangan maqollar ko'proq uchraydi.

Global va lokal qadriyatlarining uyg'unligi. Qiyosiy o'rganish umumiy insoniy qadriyatlar bilan bir qatorda, mahalliy madaniy xususiyatlarni ham aniqlashga imkon beradi. Bu xalqlararo madaniy almashinuvni tahlil qilishda asos bo'ladi.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa orolda shuni ta'kidlash lozimki, asrlar davomida o'g'izdan o'g'izga o'tib kelgan maqol va matallar xalqimizning dunyoqarashi, jamiyatga bo'lgan munosabati, axloqiy normasi, tarixni va ruhiy holatni ifodalaydi. Ular o'zining tuzilishi jihatidan qisqa, londa, puxta mantiqli, fikran tugallanmagan va siqiy ishlangan bo'ladi. Maqollar kishining ongini o'stiradi, ularni to'g'ri, rostgo'y, mehnatsevar, mard, sabotli va matonatli bolishga o'rgatadi, kishidagi yaxshi insoniy fazilatlarini targ'ib etadi.



Otabek SHUKUROV,  
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti professori, f.f.d  
E-mail: otobekshukurov1@mail.ru

TerDU professori v.b., f.f.d A.Eshmo'minov taqrizi asosida

### O'ZLASHMALAR DUNYO TILLARI LUG'AT BOYLIGINING MUSHTARAK MANBASI SIFATIDA

Annotatsiya

Maqolada o'zlashma so'zlar dunyo tillari leksik boyligining muhim manbai sifatida ko'rsatilgan. Unda o'zlashmalarning tillar o'rtasidagi aloqalarni kuchaytirishi, yangi tushunchalarni ifoda qilishi va madaniy-ijtimoiy o'zgarishlarni targ'ib qilishda muhim rol o'ynashi ochib berilgan. Maqola o'zlashmalarning turli tillardan kirib kelishi va zamonaviy axborot texnologiyalari orqali tarqalishini tahlil qiladi. O'zbek tilidagi o'zlashmalar, ularning leksikografik tavsifi, semantik transformatsiyasi va kalkalash jarayonlari hamda dunyo tilshunosligidagi tajribalar muhokama qilinadi. Maqola tilshunoslik va leksikografiya sohasidagi ilmiy tadqiqotlarga yangicha qarashlarni ifoda etadi.

**Kalit so'zlar:** O'zlashma so'zlar, madaniy aloqalar, globallashuv, o'zbek tili, lingvistik o'zgarishlar, axborot texnologiyalari, neologizmlar.

### BORROWED WORDS AS A COMMON SOURCE OF LEXICAL WEALTH OF WORLD LANGUAGES

Annotation

The article presents loanwords as an essential source of lexical richness in world languages. It explores the role of loanwords in strengthening interlinguistic connections, expressing new concepts, and promoting cultural and social changes. The paper analyzes the entry of loanwords from various languages and their dissemination through modern information technologies. It also discusses loanwords in the Uzbek language, their lexicographic description, semantic transformations, and the processes of calquing, along with experiences from global linguistics. The article offers new perspectives on scientific research in the fields of linguistics and lexicography.

**Key words:** Loanwords, cultural connections, globalization, Uzbek language, linguistic changes, information technology, neologisms.

### ЗАИМСТВОВАННЫЕ СЛОВА КАК ОБЩИЙ ИСТОЧНИК ЛЕКСИЧЕСКОГО БОГАТСТВА ЯЗЫКОВ МИРА

Аннотация

В статье рассматриваются заимствованные слова как важный источник лексического богатства мировых языков. В ней раскрывается роль заимствованных слов в укреплении межязыковых связей, выражении новых понятий и содействии культурным и социальным изменениям. Осуществляется анализ проникновения заимствованных слов из различных языков и их распространение через современные информационные технологии. Также обсуждаются заимствованные слова в узбекском языке, их лексикографическое описание, семантические трансформации и процессы калькирования, а также опыт мировой лингвистики. Статья предлагает новые подходы к научным исследованиям в области лингвистики и лексикографии.

**Ключевые слова:** Заимствованные слова, культурные связи, глобализация, узбекский язык, лингвистические изменения, информационные технологии, неологизмы.

O'zlashma so'zlar dunyo tillari leksik boyligida muhim o'rin tutadi. Ular vositasida tillar o'zaro aloqada bo'ladi, yangi tushunchalarni ifoda qilish uchun leksik vositalar bilan boyiydi va xalqlarning madaniy aloqalari mushtarak holda taraqqiy etadi. O'zlashmalar, asosan, manba til va retsipiyent til o'rtasidagi munosabatlarning o'ziga xos ko'zgusi sifatida namoyon bo'ladi. Ular madaniy, iqtisodiy, ijtimoiy va fan-texnika sohalariidagi o'zgarishlarni aks ettirib, tilning doimiy evolyutsiyasiga xizmat qiladi.

XXI asrda globallashuv jarayoni va axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi tillar o'rtasidagi lingvistik aloqalarni yanada faollashtirdi. Bu jarayonda o'zlashma so'zlar tillarning madaniy merosi va innovatsion g'oyalarini targ'ib qilishda muhim vosita bo'lib, ular global ahamiyatga ega dunyo tillariga ham, o'zining kichik auditoriyalariga ega mahalliy tillarga ham o'z ta'sirini o'tkazayotgani mubolag'a emas. Hozirgi paytda, Internet va raqamli media orqali so'z o'zlashtirish jarayoni kun tartibidagi masalani yangi yuqori bosqichga ko'tarmoqda.

O'zbek tili ham ushbu jarayondan chetda qolmadi. Mustaqillikka erishganidan so'ng, o'zbek tiliga kirib kelgan zamonaviy o'zlashmalarning barqarorlashuvi va ularning leksik tarkibiga ta'siri yanada faollashti.

O'zlashma so'zlar til leksik tarkibining boyishiga hissa qo'shadigan muhim manba sifatida tushunilar ekan, ular ikki til o'rtasidagi lingvistik aloqalarning bir qismi sifatida qaraladi hamda ular orqali manba til va retsipiyent til o'rtasidagi madaniy va ijtimoiy ta'sirlar aks etadi. Bu jarayonda tillarning, asosan, leksik tarkibi, qisman grammatik shakli va semantik tuzishi ham o'zgarishi mumkin.

Turli tillar o'zlashmalarning tahlili shuni ko'rsatadiki, manba tildan kelgan birliklar retsipiyent tilda yangi leksik birlik sifatida qaror topadi. Ular kundalik turmushimizda paydo bo'layotgan yangi tushunchalar, mahsulotlar va texnologiyalarni idrok etishimizda yordam beradi. Zamonaviy axborot texnologiyalari orqali tilimizga kirib kelgan neologizmlar orqali tilning leksik sathi kengayib, boyib bormoqda.

Hozirga qadar o'zbek tili ko'plab tillar bilan o'zaro aloqada bo'lgan. Biroq leksikaga sezilarli darajada ta'sir etgan manba tillar sanoqli, ularning so'z o'zlashish jarayonini davrlar kesimida kuzatish mumkin:

I. Forscha o'zlashmalar. Forscha so'zlarining o'zlashishi uch bosqichli davr asosida shakllangan:

qadimiy davr;  
o'zbek tilining fors-tojik adabiy tili bilan aloqasi davri (IX-X, XI-XV asrlar);

o'zbek tilining mahalliy tojik shevalari va tojik xalq tili bilan aloqasi davri (qadimdan to hozirga qadar).

II. Arabcha o'zlashmalar. Arabcha o'zlashmalarning o'zbek tiliga o'zlashishi ko'proq VII-VIII asrlarda yuz bergan, arab tilining o'zidan bevosita so'z olish XI asrda to'xtagan[1].

III. Ruscha va rus tili orqali kirgan o'zlashmalar. Ular XIX asrdan mustaqillikkacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi.

IV. Mustaqillik davri o'zlashmalari. Ularning salmoqli qismi istiqoldan so'ng hozirga qadar leksikaga to'g'ridan-to'g'ri Yevropa tillaridan olinayotgan o'zlashmalar.

Tilning lug'at tarkibidagi so'z o'zlashish jarayoni o'ziga xos bosqichlarga ega ekan, o'zlashmalar muayyan davr va omillar bilan bog'liq holda muqimlashadi. Arabcha, ayniqsa, forscha so'zlar leksikaga asrlar osha singishib bordi, natijada xalqning so'zlashuv tilda faollashib, aksariyati kundalik mulqot so'zlariga aylandi. O'tgan asr so'z o'zlashtirishning mustaqillikkacha bo'lgan davri, asosan, rus tili vositachiligi orqali kechdi. Istiqoldan so'ng esa yangilanayotgan dunyo lisoniy manzarasining o'zbek tilda aks etishi (so'z o'zlashish jarayoni), asosan, bevosita (to'g'ridan-to'g'ri) yoki qisman bilvosita (rus tili orqali) ko'rinishda davom etyapti. Bu jarayon tilning dinamikasi va doimiy rivojlanishini ko'rsatadi, chunki tillar hamisha o'zgarishlarga moyil va ochiq bo'ladi.

O'zlashmalar manba tilning madaniy xususiyatlarini o'zida saqlab qolishi mumkin yoki retsipiyent tilda yangi mazmun va funksiyalarni qabul qilishi mumkin. Bu hodisa tilning madaniy va

lingvistik xususiyatlarini tahlil qilish uchun muhim tadqiq manbasi hisoblanadi. Xususan, zamonaviy o'zlashmalar internet va global media orqali tezkor va keng qamrovli tarqalishga ega, bu esa lingvistik tahlilning ahamiyatini yanada oshiradi.

O'zbek tili tarixi davomida ko'plab madaniy, siyosiy va ijtimoiy o'zgarishlarni boshdan kechirgan bo'lib, bu jarayonlarda tilga kirib kelgan o'zlashmalar muhim o'rin tutgan. O'zlashmalar til zaxirasiga o'zidagi ehtiyojlar asosida olib kirilar ekan, ular orqali tilning lug'at boyligi kengayadi. Bugungi kunda o'zbek tiliga yangi o'zlashmalar kirib kelish sur'ati har qachongidan ham kuchaygani bilan ahamiyatlidir.

XIX-XX asrlarda rus tili o'zbek tiliga katta ta'sir ko'rsatgan manba tillardan biri bo'ldi. Rossiyaning Markaziy Osiyoga ta'siri ortishi bilan o'zbek tiliga ko'plab ruscha va rus tili orqali Yevropa tillariga tegishli o'zlashmalar kirib keldi. Bu so'zlar, asosan, ma'muriy, texnik, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy sohalariga oid tushunchalarni ifodalash uchun qo'llanilgan. Sobiq ittifoq davrida rus tili o'zbek tiliga asosiy vositachi tilga aylanib, ko'plab xalqaro va texnik terminlar rus tili orqali o'zlashtirildi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, o'zbek tilidagi so'z o'zlashtirish jarayoni yangi bosqichga ko'tarildi. Yangi bosqichda ingliz tili to'g'ridan-to'g'ri manba tilga aylandi. Bu jarayon zamonaviy axborot texnologiyalari, biznes, fan va texnika sohalaridagi o'zgarishlar bilan bog'liq. Ingliz tili orqali kirib kelgan so'zlar, asosan, IT sohasi, biznes, marketing va xalqaro munosabatlar kabi zamonaviy faoliyat sohalariga oid bo'lib, ularning ahamiyati uzluksiz ravishda oshib bormoqda. Hozirgi paytda zamonaviy o'zlashmalar o'zbek tilidagi barqarorlashuvi va assimilyatsiyasi jarayoni kuzatilmog'chi. O'zlashmalar tilimizga kirib, uning fonetik va morfologik qoidalari moslashmoqda.

O'zlashmalarining leksikografik tavsifi tilshunoslikda muhim o'rin tutadi, chunki ularning to'g'ri va aniq tavsifi tilning rivojlanishini va taraqqiyotini chuqurroq tushunish imkonini beradi. Leksikografik tavsiflar o'zlashma so'zlarning leksik va semantik xususiyatlarini aniqlashda yordam beradi hamda ularning yangilangan ma'nolari va leksik birlik sifatida o'rini belgilashga xizmat qiladi. Zeroki, o'zlashmalarining leksikografik tavsifi nafaqat so'zlarning ma'nolarini aniqlash, balki ularning ishlatilish kontekstini ham to'g'ri holda belgilovchi omildir.

O'zbek tilidagi zamonaviy o'zlashmalarining leksikografik tavsifi ularning semantik va grammatik xususiyatlariga asoslangan bo'lishi kerak. Leksikografik talqinlar yordamida o'zlashmalarining manba tildagi lug'aviy ma'nosi, ularning retsipyent tilga kirishi omillari va ularning tildagi faollik darajasi aniqlanadi. Mazkur jarayonda o'zlashma so'zlarning turli tillardagi tavsifi, shuningdek, shu til egalari madaniyatlarini bilan bo'lgan aloqasi ham o'rganiladi.

O'zlashmalarining leksikografik tavsifi jarayonida ularning semantik transformatsiyasiga alohida e'tibor qaratish lozim. Zamonaviy o'zlashmalar ko'pincha o'zbek tilining leksik fondiga yangi ma'nolar bilan kirib keladi, bu esa ularning leksikografik tavsifini murakkablashtiradi. Masalan, internet va axborot texnologiyalari orqali kirib kelgan so'zlar manba tildagi o'z ma'nosidan farqli holda yangi kontekstda – texnologik, ijtimoiy va iqtisodiy sohalarida ham ishlatila boshlaydi. O'zlashmalarining semantik transformatsiyasi monosemantik so'zlarning polisemantik birliklarga aylanishi, uzual va okkazonal leksik ma'nolar, so'z leksik ma'nosining hosila ma'no yuzaga keltirishi, hosila ma'noning yuzaga kelishi, leksik ma'noning kengayishi va torayishi masalalari bilan bog'liq holda o'rganiladi.

O'zlashmalarining leksikografik tavsifi jarayonida kalka usullaridan foydalanish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Kalkalash – bu bir tildagi so'z yoki iborani boshqa tildagi ekvivalenti bilan ifoda qilish jarayonidir. Tilshunos olim A.Hojiyev sobiq sovet davri o'zbek tili taraqqiyotiga munosib baho beradi, leksikaning istiqbolli semantik kalkalash orqali yangi so'z hosil qilinishi bilan alohida bog'liq bo'ldi, deb hisoblaydi. Shuningdek, u kalkalashni murakkab jarayon sifatida tushunib, ular haqida tez hukm chiqarish o'rinli bo'lmasligini eslatadi, nutqqa kiritilayotgan kalkalar haqida "...to'g'ri-noto'g'riligi, maqbul yoki nomaqbulligi kelgusining o'zi ko'rsatadi"[2], deya baho beradi. O'rin topmaganlari esa kelajakda yangilariga almashirib borilishi tabiiy hol sifatida qaraladi. N.G'ulomovanning fikriga ko'ra, "Kalkalashning mohiyati shundaki, u so'z o'zlashtirish tushunchasi doirasiga kiradi, shuningdek, so'z yasash usullaridan biridir"[3]. Ayrimlarning bu masalada fikri o'zgacha. Xususan, Sh.Balli qarashlarida esa kalkalarni o'zlashmalarga qatoriga kiritish to'g'ri yondashuv emas, uni alohida tadqiq obyekt deb hisoblaydi. Kalkalash masalasi bilan maxsus shug'ullangan olim E.Sh.Shohmedov kalkalashga tashqi manba yo'li sifatida qaraydi.

Dunyo tilshunosligining so'z o'zlashtirish va o'zlashma so'zlar bo'yicha ilmiy tadqiqotlarida muhim tajribalar mavjud. Bu tajribalar o'zbek tilidagi o'zlashmalarini tadqiq etishda ham katta ahamiyatga ega. O'zlashmalar muammosiga bag'ishlangan jahon tilshunosligida qator tadqiqotlar mavjud. Ayniqsa, ingliz tadqiqotchilaridan A.Patritsiya, R.Fillipsonlarning, rus tilshunosligida A.K.Kazkenova, S.Alatorseva, M.V.Tarasovalarning, turkiy tillar doirasida esa V.A.Sicheva, S.S.Kenesbayeva, A.Ovezov, G.Mirzoyeva kabilarning ishlarida maxsus o'rganilgan.

O'zbek tilshunosligida o'zlashma so'zlar muammolari o'z davri ehtiyojiga ko'ra o'rganib kelindi. Ularning tadqiqi sohaning turli aspektiga muvofiq sobiq Sho'ro davrida tadjiryan davom etdi. Shuningdek, mustaqillik yillarida T.Rahmonov, A.To'raxojayeva, U.Qo'ziyev, Sh.Jo'rayev, N.Isakova, E.Davlyatova kabi tilshunoslarning ishlari alohida e'tiborga loyiq. Bundan tashqari, leksikadagi o'zlashma so'zlarni tavsiflash alohida maqsad qilingan qator lug'atlar ham yaratildi.

Dunyo tilshunosligida o'zlashmalarini tadqiq qilishning muhim muammolaridan biri tillar o'rtasidagi uzviy aloqalarni aniqlashdir. Tillararo ta'sirning murakkabligi, ularning ichki strukturasi o'zgarishi, tillar yoki qardosh tillar orasida tarixiy va geografik aloqalarning yaqinlashishi va uzoqlashuvi, madaniyatlar ta'siri, shuningdek, iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy jihatlari ham masala mohiyatini murakkablashtirish tabiiy. Uman olganda, tillarning tarixiy o'zgarishlari va integratsiya jarayonlari masalalari fonda o'zlashmalar ham o'zi xos chuqur tahliliy argumentlarni o'zida saqlashi bilan ahamiyatli hisoblanadi.

Dunyo tillaridagi o'zlashmalarini tadqiq etishning yana bir tajribasi ularning madaniy aloqalar bilan bog'liqligini tushunishdir. Har bir til leksikasiga o'zlashma so'zlar nafaqat leksik-semantik yoki grammatik o'zgarishlarga sabab bo'ladi, balki madaniyat, san'at, adabiyot, maishiy hayot va boshqa sohalar o'zgarishlariga ham ta'sir etadi. Masalan, bugungi kunda dunyoning

"Makdonalds" (McDonald's), "KFS" (KFC – Kentucky Fried Chicken), "Burger King" (Burger King), "Pitsa Xat" (Pizza Hut), "Ustun Doner" (Üstün Döner), "Urfa Kebab" (Urfa Kebap), "Ziyafat Kebab" (Ziyafet Kebab), "Yoshinokoya" (Yoshinoya), "Dachun Bao" (Dächunbāo), "Lotteriya" (Lotteria) kabi oshxonalaridagi taomlarning qanday tayyorlanishi, kimlar iste'mol qilishi, qanday shaklda iste'mol qilishi har qanday millat uchun ham inklyuziv madaniy ta'sirlarga ega. Xususan, "Balirano va Guzzo hammuallifligidagi "Madaniyatlararo taomlar: Transmadaniy lazzatlarga lingvistik qarashlar" nomli monografiyada oziq-ovqat leksikasi va til o'rtasidagi aloqalar tahlil etilgan hamda oziq-ovqatga oid leksikaning muhojirlik sharoitida madaniy o'ziga xoslikni shakllantirish vositasi sifatida qanday foydalanilishi ko'rsatib berilgan. Asarda turlicha yondashuvlar orqali rang-barang madaniyatli muhitlarda oziq-ovqat termini va atamalarining qanday o'zgarishi ham o'rganilgan. Shuningdek, tilning diaspora jamoalarida madaniy merosni saqlash yoki o'zgartirishdagi o'rni yoritib berilgan[4].

Dunyo tilshunoslari nigohidagi zamonaviy tadqiqotlardan yana bir muhim tajriba – globallashuv va axborot texnologiyalari ta'sirida o'zlashmalarining tillarga qanchalik tez kirib borayotganini kuzatish va tahlil qilishdir. Internet va raqamli texnologiyalar taraqqiyoti orqali tillar va madaniyatlar tez va oson aloqaga kirishmoqda, bu esa o'zlashmalarining faollashuvi va o'zaro integratsiyasini tezlashtiradi. Har bir tilda, ayniqsa, global axborot maydonida faol tillar, jumladan, inglizcha o'zlashmalarining paydo bo'lishi va qabul qilinishi jarayoni faollashtirib borayotgani manbalarda ko'p bora ta'kidlanadi[5]. Bu jarayon xususan, o'zbek tilining dunyo tillari bilan aloqalarini yanada rivojlantirish va yangi o'zlashmalarini qabul qilish imkoniyatini oshirmoqda.

Globallashuv – bu jahonning turli mamlakatlari, madaniyatlari va tillari o'rtasidagi o'zaro aloqalarni kuchaytirish jarayonidir. Bu jarayonning asosiy omillaridan biri tillar o'rtasidagi so'z o'zlashtirish, ya'ni muayyan tildan boshqa bir tilga so'zlarning o'tishi hisoblanadi. Globallashuv davrida tillararo aloqalar orqali o'zlashmalar jadal rivojlanmoqda. Bugungi kunda tillar va madaniyatlar o'rtasidagi ta'sir darajalari ham nihoyatda kuchli. Zeroki, so'zlashuvchilari miqdori kam va o'zaro raqobatga nisbatan zaif bo'lgan ayrim tillar global darajada tan olingan tillarga o'z o'rini bo'shatib berayotgani yoki maishiy darajada ishlatilishi bilan cheklanib qolayotgani bilan tahdidli bo'lyapti. Tilshunos Devid Kristalning "Til o'lishi" asarida aynan shu masala batafsil yoritib berilgan. Uning fikricha, dunyodagi ko'plab kichik tillar global darajada tan olingan tillar bosimi ostida yo'qolish xavfiga uchrarmoqda. Asar muallifi, ayniqsa, globalizatsiya jarayonining kichik va zaif tillarga salbiy ta'sir qilishi haqida gapiradi, chunki ular

donor tillar oldida o'z mavqeyini saqlab qolishda qiynaladi. U bu jarayonni tillar turli darajada global va mahalliy madaniyatlar bilan o'zaro ta'sir qilishi bilan izohlaydi, shuningdek, bu yo'qolish jarayonini to'xtatish uchun madaniy va lingvistik choralarni ko'rish zarurligini ta'kidlaydi[6].

O'zlashmalar tilning globallashuv jarayonida muhim vosita bo'lib, ular tillar orasidagi leksik va semantik aloqalarning shakllanishida katta rol o'ynaydi. Zamonaviy axborot texnologiyalari va internet orqali o'zlashmalar jadal tarqalishi tillar va madaniyatlar o'rtasidagi integratsiyani ta'minlaydi. O'zlashmalar tilga kirib kelishi tilning dinamik rivojlanishini ko'rsatadi va zamonaviy tilshunoslikda yangi tadqiqotlar uchun imkoniyatlar yaratadi. Biroq o'zlashmalar muayyan tilda maqsadsiz ko'payishi va tilning faol leksikasida ortib borishi til leksik zaxirasining milliy tabiatga salbiy ta'sir qilishi mumkin

O'zlashmalar madaniy va lingvistik assimilyatsiyasi jarayonlari tilshunoslik va leksikografiyadagi muhim tadqiqot

yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. O'zlashmalar assimilyatsiyasi, ularning tilga qanchalik moslashgani va retsipyent tildagi ma'nolarni qanday ifoda eta olgani leksikograflar olib boradigan maxsus tadqiqotlarning asosi bo'lishi kerak.

O'zlashmalar leksikografik tavsifi ularning izohli lug'atlarda, so'zliklarda va boshqa tilshunoslik manbalarida to'g'ri ko'rsatilishiga alohida e'tibor qaratilishi kerak. Zamonaviy tilshunoslik va leksikografiya yangi o'zlashmalarni ularning sohaga ta'siri va qo'llanilish doiralarini aniq ko'rsatish uchun yangi standartlar, metodologiyalar va amaliy ko'rsatmalarni ishlab chiqishi lozim. Shuningdek, o'zlashmalarni o'rganishda kompyuter texnologiyalari, zamonaviy elektron kuzatuv dasturlari va maxsus plaformalar juda muhim bo'lib, ular orqali uzluksiz yangilanib boruvchi leksikani tadqiq etish usullarini izlab topish, yaratish va tadqiq etish tilshunoslarning asosiy vazifalari qatoridan joy olgan.

#### ADABIYOTLAR

1. Бегматов Э. Хозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. –Тошкент: Фан, 1985. –200 б.
2. Ҳожиев А. Совет даврида ўзбек адабий тилининг тараққиёти. III жилдли. III жилд. Сўз ясалиши ва лексика. –Тошкент: Фан, 1988. – 188 б.
3. Гулямова Н.Г. Русские лексические заимствования в узбекском языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент: 1975. – 24 с.
4. Balirano G., Guzzo S. (ed.). Food across cultures: Linguistic insights in transcultural tastes. – Springer, 2019. –P. 226.
5. Platt R. The Global Spread of English Loanwords: Implications for Linguistic Diversity //Available at SSRN 4823941. – 2024. –P. 7.
6. Crystal D. Language death. – Cambridge University Press, 2002. –P. 208.



УДК:81.42

**Шахзода ЭГАМБЕРДИЕВА,**  
Старший преподаватель, PhD университета Ориентал  
E-mail: egamberdiyevash@mail.ru

На основе рецензии д.ф.н., проф. Я.Арустамян

### РИТОРИЧЕСКИЕ СТРАТЕГИИ В РЕКЛАМНОМ ДИСКУРСЕ ИХ ВЛИЯНИЕ НА АУДИТОРИОНА МАТЕРИАЛЕ УЗБЕКСКОГО, АНГЛИЙСКОГО И РУССКОГО ЯЗЫКОВ

Аннотация

Рекламный дискурс представляет собой многослойное явление, где стилистические приемы играют ключевую роль в привлечении внимания и воздействии на аудиторию. Настоящая статья посвящена исследованию риторических стратегий, применяемых в рекламном дискурсе, и их влиянию на восприятие аудитории. Основное внимание уделено анализу узбекских, английских и русских рекламных текстов с точки зрения их стилистических и риторических особенностей. В работе обосновывается значимость риторических стратегий для повышения эффективности рекламной коммуникации и формирования эмоционального отклика. Исследование базируется на сравнительном подходе и использует междисциплинарные методы, включающие психолингвистику, стилистику и маркетинговую коммуникацию.

**Ключевые слова:** Рекламный дискурс, стилистические приемы, риторика, метафора, гипербола, сравнение, риторические вопросы, риторические стратегии, прецедентный текст, психолингвистика, узбекский язык, английский язык, русский язык.

### RHETORICAL STRATEGIES IN ADVERTISING DISCOURSE AND THEIR IMPACT ON THE AUDIENCE BASED ON UZBEK, ENGLISH, AND RUSSIAN LANGUAGES

Annotation

Advertising discourse is a multi-layered phenomenon where stylistic devices play a key role in attracting attention and influencing the audience. This article is dedicated to the study of rhetorical strategies employed in advertising discourse and their impact on audience perception. Particular attention is given to the analysis of Uzbek, English, and Russian advertising texts from the perspective of their stylistic and rhetorical features. The study substantiates the importance of rhetorical strategies in enhancing the effectiveness of advertising communication and eliciting an emotional response. The research is based on a comparative approach and utilizes interdisciplinary methods, including psycholinguistics, stylistics, and marketing communication.

**Key words:** Advertising discourse, stylistic devices, rhetoric, metaphor, hyperbole, comparison, rhetorical questions, rhetorical strategies, precedent text, psycholinguistics, Uzbek language, English language, Russian language.

### REKLAMA DISKURSIDAGI RITORIK STRATEGIYALAR VA ULARNING TINGLOVCHIGA TA'SIRI O'ZBEK, INGLIZ VA RUS TILLARI MISOLIDA

Аннотация

Реклама дискурси ko'p qirrali hodisa bo'lib, unda stilistik usullar tinglovchilar e'tiborini tortish va ularga ta'sir ko'rsatishda asosiy o'rin tutadi. Ushbu maqola reklama diskurslarida qo'llaniladigan ritorik strategiyalarni va ularning auditoriya qabul qilishga ta'sirini o'rganishga bag'ishlangan. Asosiy e'tibor o'zbek, ingliz va rus reklamalarining stilistik va ritorik xususiyatlari nuqtayi nazaridan tahliliga qaratilgan. Maqolada ritorik strategiyalarning reklamadagi kommunikatsiya samaradorligini oshirish va hissiy javobni shakllantirishdagi ahamiyati asoslanadi. Tadqiqot qiyosiy yondashuvga asoslangan bo'lib, psixolingvistika, stilistika va marketing kommunikatsiyasini o'z ichiga olgan interdisciplinar usullardan foydalanadi.

**Kalit so'zlar:** Reklama diskursi, stilistik usullar, ritorika, metafora, giperbola, taqqoslash, ritorik savollar, ritorik strategiyalar, pretsedent matn, psixolingvistika, o'zbek tili, ingliz tili, rus tili.

**Введение.** В современной глобализированной культуре реклама играет ключевую роль в формировании общественного мнения и потребительского поведения. Как отмечают многие исследователи (Г. Картер, Э.Г. Рябцева и др.), рекламные тексты являются не только средством продвижения товаров, но и сложным коммуникативным явлением, где особое место занимают риторические стратегии. Важно подчеркнуть, что они не только усиливают воздействие текста, но и создают эмоциональный и когнитивный резонанс с аудиторией, что особенно актуально для мультиязычного контекста, включающего узбекский, английский и русский языки.

В контексте настоящего исследования особое значение придается вопросам эффективности риторических стратегий. Использование риторических приемов, таких как метафоры, риторические вопросы, каламбуры и аллюзии, позволяет не только привлечь внимание аудитории, но и закрепить в её сознании определенные образы и ассоциации. Цель данной работы заключается в выявлении риторических стратегий, наиболее часто используемых в рекламном дискурсе указанных языков, а также в анализе их влияния на восприятие аудитории.

**Обзор литературы.** В исследованиях рекламного дискурса ученые, такие как Г. Картер, Э.Г. Рябцева, Лакофф и Джонсон, Шварц, а также Гентнер и Маркман, подчеркивают значимость риторических стратегий для привлечения внимания и воздействия на аудиторию. Картер выделяет мотивы

потребительского поведения и акцентирует внимание на апелляции к врожденным инстинктам, а Рябцева указывает на эффективность конвергенции стилистических приёмов в тексте. Лакофф и Джонсон отмечают роль метафор в создании ярких образов, тогда как Шварц исследует влияние гипербол на эмоциональное восприятие. Гентнер и Маркман подчеркивают важность сравнений для облегчения обработки новой информации. Эти исследования показывают, что риторические вопросы, прецедентные тексты и другие стилистические приёмы формируют ассоциативные ряды и эмоциональную вовлечённость, что повышает эффективность рекламы.

**Методология исследования.** Современная реклама – это не просто инструмент информирования потребителей о продукте, но и сложное коммуникативное явление, направленное на манипуляцию вниманием, восприятием и поведением аудитории. Центральное место в этом процессе занимает использование стилистических приемов, которые делают рекламное сообщение ярким, запоминающимся и убедительным. Риторические стратегии, применяемые в рекламе, оказывают мощное психолингвистическое воздействие, формируя ассоциативные ряды и апеллируя к эмоциональным потребностям аудитории.

Рекламный дискурс – это специфический тип коммуникации, основной целью которого является убеждение аудитории совершить определенные действия (например, покупку товара или услуги). В отличие от традиционных текстов,

реклама чаще всего использует короткие, яркие и экспрессивные сообщения, насыщенные стилистическими элементами.

Рекламные специалисты изучают мотивы, которые побуждают действующих возрастов совершать покупки. Исследователь в области рекламы, Г. Картер предлагает следующий перечень основных целей и желаний, преследуемых каждым человеком: стремление к благополучию и безопасности, желание получить признание от других, удовлетворение базовых потребностей, а также создание и поддержание семейных и групповых связей. Эти мотивы проистекают из рожденных инстинктов, которые могут быть активированы с помощью простейших стимулов. Помнению Г. Картера, обращение к врожденным инстинктам часто оказывается более эффективным, чем простое логическое представление о выгоде [1].

В области стилистики декодирования предложено понятие конвергенции, которое рассматривается как метод выдвижения, способствующий структурированию текста и обеспечивающий его устойчивость к помехам. Э.Г. Рябцева обращает внимание на конвергенцию стилистических методов в РТ, отмечая, что использование не одного, а целого ряда стилистических приемов на небольшом пространстве текста (что характерно, в основном, для рекламных объявлений) значительно повышает эффективность коммуникации, увеличивает возможность воздействия на восприятие текста аудиторией [2]. Одной из ключевых проблем психолингвистики является вопрос о том, как воспринимаются РТ. В соответствии с этой проблемой, первоочередной задачей рекламы является привлечение внимания потенциального потребителя. В психологии различают два типа внимания: произвольное и произвольное. Запоминаемость рекламы зависит от того, насколько ценной является предоставляемая информация.

В рекламе широко используется концепция “eye-stopper”, который привлекает внимание к тексту и делает его выдающимся среди других информационных сообщений. Это может быть элемент, привлекающий визуальное внимание или внимание слуха. Прецедентные феномены также могут выступать в качестве такой “зацепки”, привлекая внимание к рекламному сообщению. Прецедентный текст, когда он используется в рекламе, обычно привлекает внимание по нескольким причинам. Одна из таких причин связана с использованием концепции «прогноза» или предвещательного представления в речи, а также с применением прецедентных текстов. Прецедентный текст, встречая новый контекст, подвергается различным изменениям, что делает его неожиданным для реципиента и заставляет его обратить на него внимание. Если известное высказывание изменяется, человеку приходится восстановить оригинал из памяти и сравнить его с измененным текстом. Это способствует глубокому обдумыванию прочитанного или услышанного.

Кроме того, прецедентный текст способствует «приватизации знаний», то есть, делает информацию более ценной и запоминающейся для человека. Рекламные сообщения, которые заставляют задуматься, имеют больше шансов быть запоминаемыми. Новые знания легче воспринимаются, когда они связаны с уже существующими. В данном случае, прецедентные тексты выступают в роли этих уже существующих знаний. Использование рифмованных, ритмичных текстов, а также других художественных приемов в рекламе упрощает их запоминание, а прецедентные тексты, такие как пословицы, поговорки, и крылатые выражения, являются особенно подходящими для этого, так как они уже укоренились в памяти и легко запоминаются. Так в знаменитой английской рекламе хлебулочных изделий “Pride and Breadjudge” используется прецедентный текст, здесь же адресанту возможно, не совсем понятна такая подача, так как дело в имплицитности и интертекстуальности прецедентного текста. Здесь прецедентность, не полностью понятая 100% массовой аудитории, поскольку она способствует распространению информации между аудиториями из уст в уста.

**Анализ и результаты.** Использование прецедентных текстов, таких как пословицы, поговорки и афоризмы, в рекламном контексте часто ассоциируется с народной мудростью. Это может вызвать эффект усыпления критического мышления у получателя сообщения. Например: Семь бед – один ответ! (Колдрекс); Не откладывай на завтра то, что выгодно сделать сегодня (Торгово-ярмарочный комплекс); All That Glitters is Gold (Skoda Fabiocardvert); Blow your Mind Away (Burger King); Caesar's wife must be above suspicion; Лучшее один раз увидеть, чем сто раз услышать, а тем более прочесть (Реклама

книжного магазина); Otang – bozor, Onang – bozor! (LeBazar); Ishonchli va barakali (Artel); Hamma yo'lar Texnomartga boshlar! (Texnomart); Buzog'ni yugurgani somonxonagacha, Kelinniki Forsilgacha (Forsil), Chumchuq so'ysa ham qasob so'ysin (Orzugilam yuvish). Эти высказывания могут внушать доверие к рекламируемому продукту или услуге, ибо они ассоциируются с общепринятыми истинами или народной мудростью.

Метафоры, гиперболы и сравнения являются ключевыми стилистическими приемами, широко используемыми в рекламных текстах. Эти выразительные средства играют важную роль в повышении эффективности рекламных сообщений, помогая не только привлечь внимание аудитории, но и формировать позитивные ассоциации, вызывать эмоциональный отклик и запоминаться. Рассмотрим более детально роль каждого из этих приемов в рекламной коммуникации [3].

Метафора является одним из самых продуктивных средств выразительности в рекламе. Она способствует созданию яркого образа, который помогает аудитории запомнить продукт или услугу. Примеры: англ. “Haveabreak, havea KitKat” – шоколадный батончик ассоциируется с отдыхом, создавая имплицитную связь между продуктом и желанием расслабиться. узб. Orient Finans Bank: “Keling, kelajakni birga quramiz” (Метафора: Сотрудничество с банком сравнивается со строительством будущего, подчеркивая надежность и долгосрочные перспективы); русск.: Чай Липтон – «Откройте для себя мир вкуса» (Эта метафора создает представление о том, что каждый глоток чая Липтон открывает новые вкусовые ощущения, как если бы человек путешествовал по различным странам и пробовал новые блюда).

Согласно исследованиям в когнитивной лингвистике (Lakoff & Johnson, 1980), гипербола активирует процесс концептуальной метафоризации, при котором преувеличенные утверждения усиливают эффект восприятия [4]. Пример: утверждение «Лучший в мире автомобиль» вызывает у аудитории гипотетическую модель превосходства, что способствует созданию положительного образа продукта.

Гипербола формирует ассоциации, которые легче запоминаются потребителем. Восприятие гиперболических сообщений связано с явлением активации «пиковых» эмоций у реципиента [5], что делает рекламу более заметной на фоне информационного шума. Примерами могут послужить следующие: англ.: Burger King (Преувеличение величины и значимости бургера); Apple: “The best iPhone ever” (Преувеличение, подчеркивающее, что каждая новая модель является лучшей); узб.: Samarkand Tour: “Samarqand — dunyodagi eng go'zal Shahar” (Преувеличение красоты Самарканда); Eng mazali osh! (Преувеличение с помощью слова самый); русск.: Oral-B: «Зубная щетка, которая изменит вашу жизнь» (Преувеличение значимости зубной щетки); KFC: «Лучший в мире куриный фастфуд» (Преувеличение качества продукта).

